

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK 372.3**

**SAFAROVA MOHIDIL
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL
FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA‘LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

5A 111701– «Boshlang‘ich ta‘lim»

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: p.f.n. dots. T.Gafforova

Qarshi - 2013 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I– bob. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Boshlang‘ich ta‘limda modulli ta‘lim texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari	13
1.2. Boshlang‘ich ta‘limda modulli ta‘lim texnologiyalarni qo‘llashning mavjud ahvoli.....	25
II – 6o6. MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLI YO‘NALISHI.....	38
2.1.Modulli o‘qitish tushunchasining mohiyati va tavsifi.....	38
2.2. Modulli ta‘limni tashkil etish tamoyillari.....	43
2.3. Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasi.....	52
III – 6o6. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SHAKLLARI VA METODIKASI.....	61
3.1 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta‘limning mohiyati.....	61
3.2. Boshlang‘ich ta‘limda modulli ta‘lim texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajriba – sinov ishlari.....	67
Xulosa.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	78

Kirish.

Bugungi kunda har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini uning intellektual salohiyati hamda kadrlarni tayyorlash sifati bilan o'lchanadi. Bu haqida davlatimiz rahbari Oliy majlisning IX sessiyasida (1997 y., 29-avgust) so'zlagan nutqida juda o'rinli ta'kidlagan edi: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamaiz anglab yetmoqdamiz"¹. Butunjahon muammosiga aylangan kadrlar tayyorlash sifatini zamon talablariga moslashtirish bizning respublikamiz uchun ham o'ta dolzarb hisoblanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi" - deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Davlatlararo qattiq raqobat mavjud bo'lgan davrda har bir mamlakat barcha sohada raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladi. Davlatning iqtisodiy, texnik rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bular: mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, uning geografik joylashuvi, ta'lim tizimi, tarixi va boshqa ko'p omillardir. Lekin mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalana oladigan, davlatning tarixiy rivojlanishini belgilab beradigan (tarixni o'z qo'li bilan yaratadigan), davlat iqtisodiyotini boshqaradigan, yangidan-yangi texnikani yarata oladigan, mavjud ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan omil bu albatta, inson omilidir. Shunday ekan, aynan inson omili, boshqacha qilib aytganda, inson resursi mamlakat rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydi. Demak, O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishida ham inson omilining o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimi oldida katta vazifalar qo'yilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. O'quvchilarni bugungi kun talabi asosida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir. Bunday murakkab va muhim jarayonni amalga oshirishda ustoz-murabbiylar o'rnini beqiyosdir. Aynan ta'lim sohasida iqtisodiyotimizning barcha sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasi davlat siyosatining ustivor sohasiga aylandi.

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B.5.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Maktab ta’limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi”ning ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta’lim maktab bosqichini va 3 yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim bosqichini o’z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta’lim tizimi yaratildi.”¹

Endigi vazifa bu tizimni taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdir.

Prezidentimiz I.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir” mavzusidagi Vazirlar mahkamasining majlisidagi nutqida “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog’lom o’sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo’lgan, uyg’un rivojlangan insonlar bo’lib, XXI asr talablariga to’liq javob beradigan barkamol avlod bo’lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz,”² - degan edi. Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e’tibor ta’lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta’lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta’limi olgiga qo’yilgan muhim vazifalardir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o’quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o’quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o’zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi.

Darhaqiqat, o’quvchilarda mustaqil fikr shakllanmasa ular hayotdagi har xil muammolar echimini topa olmaydilar, ularda mustahkam e’tiqod ham shakllanmaydi. Bu haqda O’zbekiston Prezidenti I.Karimov Kadrlar tayyorlash milliy dasturini yaratish bo’yicha respublika komissiyasining majlisida so’zlagan “Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir” nutqida (1997 yil, 7 iyun) “Mustaqil fikrga ega bo’lmagan odam har qanday olomonga ergashib ketaveradi. Masalaning eng muhim jihati aynan mana shundadir”, – degan edi.³

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi yoshlarga bo’lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo’lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo’ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli, barkamol shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero,

¹ I.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir”. Toshkent, 2010 y.48-bet.

² .Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir”. Toshkent, 2010 y.74-75-b.

³ Баркамол влод орзуси. Тошкент, “Шарк”НМАК, 1998й. 122-бет

o'zgarlar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda inson erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi zarur.

Mustaqil fikrlash borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi. Shu boisdan ham Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida: «... bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi, umuman maktablarda bolalar mustaqil fikrlashga o'rgatiladimi, aminmanki, o'rgatilmaydi...

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson mustaqil fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasalar, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»¹, - degan edi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin tafakkur yuritishga imkon bermaydigan eng yomon illat o'quv jarayonida o'qituvchining «hukmronlik» rolining saqlanib qolayotganligidir.

O'quvchining mustaqil fikrlashidan qanoatlanilmasa uning shahdini bo'g'ib, boshqacha usulda mushohada qilishga majburlashning nafidan ko'ra zarari ko'proq. Shuning uchun ham «O'zbekiston umumta'lim maktabi konsepsiyasi»da «o'quvchi xato qilishga haqli» deya ogohlantiriladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda demokratik muhit bo'lmasa bola erkin, mustaqil fikrlay olmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga munosabatlarda ezgu insonparvar yondoshuvga amal qilish lozim. Bular:

- o'qituvchi va o'quvchi huquqida tenglik darajasi;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy nuqtai nazar huquqi;
- bolalar huquqi konvensiyasiga rioya qilish.

O'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, muammolarni mustaqil ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan,

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. 15 b.

ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining teng hamkoriga aylansin.

Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi. Shuningdek, mustaqil fikr yuritadigan inson o'z-o'zini anglaydi, o'zining hatta-harakati va odamlar bilan munosabatiga tanqidiy baho bera oladi, umuminsoniy axloq normalariga rioya etadi, mustahkam e'tiqodga ega bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiya nima?

Bu haqida ko'pgina mualliflar o'z ta'riflarini berganlar. Bular:

BMT ning nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YUNESKO ta'rificha:

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo'llash tizimidir.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. Bospalko.)

M.Ochilov “Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir”, degan ta'rifni beradi.

Pedagogik texnologiyaga professor N.Saidahmedov: “Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni”- degan ta'rifni beradi.

Ta'lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta'lim jarayonida inson va texnika resurslaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muayyan tizimi. XTV “Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish” markazi ta'rif.

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq horijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlari bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsada, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, YUNESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyillariga alohida urg'u berilgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish ancha samaradorligi amalda isbotlanmoqda. Shunday ta'lim texnologiyalardan biri modulli ta'lim texnologiyasidir.

Modulli ta'lim texnologiyasi-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. U ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilish va tarbiyaviy soxalarini rivojlantirish, o'rganish faoliyatini boshqarish bilan birga o'z-o'zini boshqarish kabilarga keng imkoniyatlar yaratish bilan ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, unda ta'lim mazmuni bilan uni o'qitish texnologiyasi chambarchas bog'langan integrasiyaon jarayon bo'lib, u quyidagi texnologiyalar majmui orqali amalga oshadi: muammo algoritmli, dasturlashtirilgan, aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllantirish, to'liq o'zlashtirish va boshqalar.

Modulli ta'lim dunyo tajribasida qo'llanilib kelayotgan (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya) ta'limning samarali shaklidir. Lekin uning didaktik ta'minoti to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli keng tarqalmayapti.

“Modul”, lat. **“modulus”** so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

Modul – ta'lim mazmunining shunday bir yaxlit bo'lagiki, u ta'lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.

Modul tarkibi:

- ta'sirlarning maqsadli rejasi,
- axborot banki,
- didaktik maqsadga erishishga metodik rahbarlik.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi haqida chuqur mulohaza yuritilganda, mazkur masala bilan shug'ullanayotgan chet ellik olimlarning fikrlari bizni ham qiziqtirmoqda. Ayniqsa, G.G. Boguslavskaya, M.M. Zinovkina, V.G. Kinele,

N.B. Krilova, A.M. Novikovlarning ta'lim oluvchini kasbiy bilimni mustaqil egallashga o'rgatish haqidagi ilmiy fikrlariga qo'shilgan holda, K.Angelovski, G.I.Ibragimov, V.M.Klarin, M.I.Maxmutov, V.M. Monaxov, V.M. Morozov, P.I. Pidkasistiy, G.K. Selevko, J.Naisbitt, P. Aburdenelarning ta'lim muassasalariga innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali yuqorida aytilgan masalani hal qilish imkoniyatlarini ma'qullaymiz. A.N.Aleksyuk, S.Y.Batishev, R.S.Bekireva, A.S.Galisheva, A.N.Pichugin, M.A.Choshanov, P.A.Yusyavichenelarning o'qitishning barcha nazariya va konsepsiyalarining ichida blokli-modulli o'qitish eng texnologik o'qitish degan xulosalari diqqatimizni jalb etdi.

Ularning ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra, **blokli-modulli o'qitish** ta'lim jarayonini individuallashtirish, ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, o'quv axborotlarini differensiyalash, yangi sharoitga moslashgan holda qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, mustaqil o'qish **imkoniyatlarini** yaratadi. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, biz magistrlik dissertasiyamiz mavzusini **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish”** deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi – Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini asoslash orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti –Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini yoritish jarayoni olindi.

Tadqiqot predmeti – Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar modul, modulli ta'lim, modulli ta'lim texnologiyasi tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari aniqlashtirilsa; ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda foydalanilsa; modulli ta'lim texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonining samaradorligi ortadi.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzyga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o'rganish asosida modulli o'qitish tushunchasining mohiyatini asoslash.
2. Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillarini aniqlashtirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishining o'ziga xosliklarini ochib berish.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasining amaliy-texnologik jihatlarini yoritib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli o'qitish texnologiyasining o'ziga xosliklarini ochib berildi.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning amaliy-texnologik jihatlari yoritib berildi.
boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasining amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlandi;
3. Boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning yo'l va usullarini ishlab chiqildi;
4. Boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga doir tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, pedagogik kuzatish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkyp mavzyga oid qarash hamda yondashuvlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsys ta'lim Vazirligining qarorlari, buyruqlari, ta'lim texnologiyasi nazariyasi, bixeviorizm hamda shaxsni shakllantirish haqidagi falsafiy, pedagogik va psixologik ta'limotlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida pedagogika fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasiga doir nazariy yondashuvlar, fanlararo modulli ta'limni tashkil etishning amaliy-texnologik jihatlari bilan boyitiladi.

Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktabi, pedagogika kolleji o'qituvchilari, metodistlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining hayotga tatbiq etilishi va ma'qullanganligi: Tadqiqot bo'yicha 1 ta respublikam ilmiy nazariy anjumani, Qarshi davlat universitetida o'tkazilgan "Fan, taraqqiyot va yoshlar" mavzusidagi anjuman materiallarida ma'ruzalar tezisi chop etildi, "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida mavzuga doir maqola topshirdim.

Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi 19-, Beshkent shahridagi 13-,

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Ta'lim jarayonida modulli ta'limning o'rni va mohiyati;

2. Modul, modulli ta'lim, modulli ta'lim texnologiyasi tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari;

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'limdan foydalanishning ahamiyati;

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasining amaliy-texnologik jihatlarini yoritib berish;

5. Modulli ta'lim texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonining samaradorligi.

Tadqiqot ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi:

Tadqiqotning birinchi bosqichi 2011-2012 yillarda olib borildi. Bunda muammoga oid bo'lgan falsafiy, pedagogik, psixologik yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar o'rganib chiqildi. Shuningdek, mavzu nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Dastlabki kuzatish, muammoning mavjud holati bilan tanishish asosida tadqiqotning maqsadi, mazmuni, vazifalari belgilab olindi.

Ikkinchi tajriba bosqichi 2012-2013 yillarda o'tkazildi. Bu bosqichda tadqiqotning dasturi tuzib chiqildi, uning nazariy asoslari, mazmuni tajriba ishlarining shakl va usullari ishlab chiqildi. Tadqiqotning uchinchi bosqichi, ya'ni 2013 yilda tajriba natijalari umumlashtirildi.

Ishning tuzilishi. Dissertatsiya uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I– bob. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Boshlang‘ich ta‘limda modulli ta‘lim texnologiyalarni joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq xalq ta‘limi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Zero, bundan buyon “Ma‘naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta‘lim va maorifni yuksaltirish, milliy u‘yg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi”¹.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta‘limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta‘lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang‘ich ta‘lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma‘naviy rivojlanishiga yordam beradi.

O‘tgan qisqa davr ichida “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilinib, uning talablariga ko‘ra sinovdan o‘tkazilgan davlat ta‘lim standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi darsliklar yaratildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik texnologiya, axborot hamda innovasion texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘z faoliyatlarida qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlari kuchaydi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bosh maqsadga aylandi; o‘qitishning eng samarali, ayniqsa, noan‘anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari ortdi. Yangilanish borasidagi muvaffaqiyatlarni ko‘rsatish, kamchiliklarni aniqlash, bajarilmayotgan ishlarni belgilash dolzarb muammoga aylandi.

Mustaqil Respublikamizda komil inson tarbiyasi doimo Prezidentimizning diqqat e‘tiborida bo‘lib keldi. Jumladan, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar berkitib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi - deb ta’kidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov. Yana shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz milliy istiqlol g‘oyasini barchaga, shu jumladan, endigina shaxs sifatida shakllanib o‘sayotgan bolalarga qanday usullar yordamida singdirish mumkinligi juda nozik masala ekanligini qayd qilib o‘tadilar. Mustaqil

¹ Barkamol vlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 1998 3-bet.

O'zbekistonimizning yanada ravnaq topishida barkamol shaxsni, komil insonni har tomonlama tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q" asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif keltirganlar. "Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq - atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"². Ta'lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, mustaqil fikrlaydigan komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish qo'yildi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

Mustaqillik - eng ulug', eng aziz ne'mat. Ozodlik, hurriyat, erkinlik. Bu oliy tushunchani yurakdan his qilish, anglab yashash - buyuk saodat. Mustaqillik - xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon, hech kimdan kam bo'lmagan hayot kechirish imkonini bergani, yurtdoshlarimizning barcha sohalarda o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.

"Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida bosib o'tgan, oson kechmagan yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiydir. Yani bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakka-yu yagona to'g'ri qaror ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda", - deydi Prezidentimiz I. A. Karimov³. "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak"⁴, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosda ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama

¹ Karimov I.A. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент, "Ўзбекистон", - 2012, 440 бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент "Шарқ" нашриёти, 1998б 6-бет

³ Президент I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi "XXI asr" gazetasi, 2011 yil, 36-son, 1-bet.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008, 1-bet.

rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabidir. Shunga erishilsagina Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa modulli ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat, kasb etadi.

O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish qachondan boshlanadi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun insonning fikrlash jarayonining shakllanish bosqichlarini bilish lozim. Insonning fikrlash jarayoni hayotni, insonlarni, ular orasidagi munosabatlarni, tabiatni sezgilar yordamida kuzatish jarayonida shakllana boradi. Bola dunyoga kelgandan boshlab hayotni, kattalar faoliyatini, tabiatdagi voqea va hodisalarni ko'rib, kuzatib, ularni o'ziga o'zlashtira boshlaydi va natijada unda tasavvurlar paydo bo'ladi, nutq shakllanadi. Shuning bilan birgalikda bola sezgilari yordamida to'plagan ma'lumotlari asosida ko'plab tasavvur boyliklariga ega bo'ladi va uni tushunishga, anglashga intiladi. Shuning uchun ularda ko'plab savollar paydo bo'ladi. Masalan, *osmonda nima bor? Nega kecha va kunduz bo'ladi? Qushlar nega uchadi? Nega men kichkinaman? Nega ranglar xilma-xil? Nega yomg'ir, qor yog'adi? Ular qaerdan paydo bo'ladi? Bulut-chi? va hokazo.*

Bir onaning uch yarim yashar bolasi haqida so'zlab berganlari: "Bir kun bolam menga shunday savol berdi:

-Ona nega bizning burnimiz har xil? Meniki yassi, sizniki tik, opamniki yana boshqacha? Nima deyishni bilmasdan,

-Shunday yasashganda bolam, dedim.

- Kim yasagan, do'xtirlarmi? Ular kesib-kesib yopishtirishadimi?

- Yo'q, bolam, xudo yasagan.

- Xudo qanday yasaydi?

Xullas, bolam meni savol-javobda yengdi. Nima deb tushuntirishni bilmadim. Bolamni chalg'itishga harakat qildim. Bolam esa savol berishini to'xtatmas edi.

Darhaqiqat, maktabgacha tarbiya yoshida bolalar ota-onalariga tinimsiz savollar yolg'indiradilar. Ana shunday paytda bolaning savollariga chidam bilan javob berish uning fikrlashiga, voqea, hodisalarni anglashiga yordam beradi, nutqining o'sishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha ba'zi ota-onalar bu savollarga befarq qaraydilar yoki javob berishni lozim topmaydilar. Uni urishib tashlaydilar. Bu esa bolaning fikrlash jarayonini susaytiradi, uni befarqlikka yo'llaydi. Hamma narsa mening uchun emas, mening bilishim shart emas deb o'ylaydi, hamma voqea va hodisalarga befarq bo'lib qoladi.

Bolaning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqatga kirishib kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida shakllana boradi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operasiyalaridan o'rinli foydalanadi. (Ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, guruhlarga ajratadi, haqli xulosa chiqarishga harakat qiladi). Shunday qilib unda fikrlash bosqichi paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlash darajasi maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashadi. O'quvchining fikrlash darajasining takomillashuvida o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subektiga aylantirmog'i lozim. O'quvchilarni o'rganayotgan materiallari ustida fikr yuritishga, o'zining fikrini erkin bayon etishga o'rgatish ayniqsa muhim. Bunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta samara beradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan darsda o'quvchi faol qatnashadi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan erkin muloqotga kirishadi. Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiya o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantiradi. O'quvchilarni o'quv materiali ustida erkin fikr yuritishga imkoniyat yaratadi. Bu sohada modulli ta'lim texnologiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta samara beradi. Didaktik o'yinlar bolada o'qish motivini rivojlanishiga yordam beradi. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, didaktik o'yinlar jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildirib boshlaydi. Masalan, "Suratdagi xatoni top" o'yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Qish manzarasi tasvirlangan suratda daraxtning gullayotgani ham chizilgan bo'lsa, buni bola mustaqil topadi. Shu joyda uning tafakkuri ham ishg'a tushadi. Ya'ni o'rganganlari asosida har bir faslning o'ziga xosliklarini esga oladi va qishda daraxt gullamasligini asoslaydi. Xuddi shuningdek, "Bo'lishi mumkin emas", "Matndagi xatoni top" o'yinlari, rebus, boshqotirma

kabilar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, darslikdagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bola rasimga o'z munosabatini bildiradi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi, rasm asosida hikoya yozish topshirig'i berilsa, u o'z tasavvurlari asosida hikoya yozadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari keng va undan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchini matn ustida ishlashga yo'llash mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali usullaridan biridir. Bular:

- Matnni bo'laklarga bo'lish va har bir bo'lakka sarlavha topish.
- Mazmunni saqlab qolgan holda matnni qisqartirib o'qish.
- O'qituvchining savollariga matndan javob topib o'qish.
- Matndan eng chiroyli tasvirlangan bo'lakni o'qish.
- Matndagi bosh g'oyani bildiruvchi gapni topish.
- Ertak yoki masalni o'qiganda "Nima haqiqatga yaqin, nima o'ylab topilgan" mavzusida suhbat.

suhbat.

- Matndan xulosalarni topish.
- Eshitgan voqea yoki hodisaga o'z munosabatini bildirish.
- "Asardagi nima sizga yoqdi?" mavzusida suhbat.
- "Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, befarq).
- Siymolarni ifodalovchi so'zlarni topish.
- Tushunilmaydigan so'zlar ma'nosini aytib o'qish.
- Matnni mantiqiy qismlarga bo'lib ifodali o'qish va qismlarning biridan ikkinchisiga

navbat bilan o'tish.

- Voqea yoki hodisani so'z yordamida tasvirlash.
- Ijodiy qayta hikoya qilish:
 - bosh shaxs nomidan;
 - shaxsni o'zgartirib;
 - vaqtni o'zgartirib.

• Hikoyadagi voqea-hodisalar sodir bo'lishidan oldingi bo'lib o'tgan voqea-hodisalar yoki voqeaning davomi qanday bo'lishini qo'shib aytish.

- Hikoyadan tashqaridagi voqealar tasvirini qo'shish.

• Bosh qahramonni tavsiflovchi savollar: U kim? Tashqi ko'rinishi. Topshirilgan ishni bajarishda odamlar bilan munosabati. Sizning qahramonga munosabatingiz, hikoya qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi? Unga qanday maslahatlar bergan bo'ladingiz? kabi savollar.

- Reja bilan ishlash: reja tuzing, reja ketma-ketligini o'zgartiring, reja qismlarini to'g'rilang, gaplar mazmunini o'zgartiring.

- Maqolni to'ldiring.
- Rasmga qarab hikoya tuzing.
- Biror bir qahramon nomidan ... mavzusida hikoya tuzing.
- She'rni kim aytayapti?
- She'rda yashiringan sirni toping.
- Hikoyadagi voqealarni chizmada ifodalang.
- Hikoya, ertak yoki she'rda o'rganganlari asosida rasm chizish va shunga o'xshash topshiriqlar.

Boshlang'ich sinflar uchun tayyorlanadigan darsliklar ham matn oxirida beriladigan mashqlar, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llashi lozim.

Masalan, “She'rni kim aytayapti?”, “She'rga siz qanday qo'shimcha qila olasiz?”, “Hikoya (yoki ertak) qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi?”, “Hikoya qahramoniga qanday maslahat berasiz?” , “Ertak voqealari ichida bo'lishni xohlaysizmi?”, “Unda kim bo'lib qatnashishni xohlaysiz?” kabi savollar, “Matnni qismlarga bo'ling va har bir qismga sarlavha qo'ying”, “O'qituvchi yordamida matn rejasini tuzing”, “Reja asosida matnni qayta hikoya qiling”, “Matndagi qahramonlarni almashtirib qayta hikoya qiling” va boshqa shu kabi topshiriqlarni berish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ba'zi darsliklarni ko'zdan kechirganimizda matn oxirida beriladigan savollar matndagi o'rganganlarini qaytarib aytib berishga undaydi. Matnni o'qituvchi o'qib beradi, uning mazmunini so'zlab beradi, o'quvchilar o'qiydilar va mazmunini yana so'zlaydilar va oxirgi savollar ham yana shuni takrorlaydi. Bundan ko'ra matn ustida ishlashga, fikrlashga undovchi savollar berilsa bola matn ustida fikr yuritadi, mustaqil xulosalar chiqaradi. Bunday ish usuli esa o'quvchining tafakkurini o'stiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bugungi kunda ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Buni har bir o'qituvchi bilishi va Vatanimizning kelajagi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi kadrlarni tayyorlashda, albatta, ularni tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashga yo'llovchi yo'l va usullarni tinimsiz izlashi va uni ta'lim jarayoniga joriy etishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil eta olishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylilik hamda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega bo'lish kabi katta tajribani talab etadi. Zero, yosh avlodni, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasidadir.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar merosini o'rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo'ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo'l ochiladi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'molga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b). Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b)..

Yusuf Xos Hojib bolaga bilim berib hunar o'rgatishni ularning yoshligidan boshlash kerakligini ta'kidlaydi (O'rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: 1996. 159-b.)

Bolalarga kasb-hunar va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o'rgatish masalasi Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham ko'tarilgan. "Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kimga naf' etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur" (Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol. 1994. 26- b).

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash, bolalarning xotirasini rivojlantirish, fikrlashga o'rgatishni ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil

narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi» (Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968. 106-107 b.).

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining o‘g‘itlarida har bir ishni boshlaganda butun diqqat, zehn va bor kuchni shu ishga qaratish lozimligini ta’kidlagan: «Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim» (. Amir Temur o‘g‘itlari. – T.: Navro‘z. 1997. 16- b.)

Amir Temur o‘z davrida qo‘l ostidagilarni tadbirkor, ishbilarmon, mamlakat obodonchiligi, el-yurt osoyishtaligi uchun hamfikir, hamsuhbat, yelkadosh bo‘lishlarini talab qilgan (. Amir Temur o‘g‘itlari. – T.: Navro‘z. 1997. 16, 39-40 b.)

Ulug‘ mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida maktab o‘qituvchilari mehnatiga baho beradi va uning mehnati ancha mashaqqat talab etishini tushuntiradi. (Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (Qalblar sevgisi) – T.: G‘afur G‘ulom. 1983. 28-29 b.)

Markaziy Osiyo allomalari merosida ilm va uni egallashdagi mahorat masalalari keng miqyosda talqin etiladi. Bunda albatta ilm o‘rgatuvchining muhim o‘rni ta’kidlanadi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, jahon talablariga mos tahsil oluvchilarni tarbiyalash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortlaridan ergashtira olish uchun bugungi ustozga qanday tartibda yordam berish mumkin? Ular uchun munosib ilmiy, uslubiy va ma’naviy muhit yaratilishining yo‘llari qay tarzda belgilanadi? Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirishda modulli ta’lim texnologiyasi barkamol insonni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Modulli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni mustaqil mutolaa qilish, bilim olish, erkin fikrlay olishga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Hozirgi davrda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, shunga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda o‘qituvchining o‘rni beqiyos. O‘qituvchining muntazam izlanishi, bilimni o‘rgatishning yangi va samarali yo‘llarini kashf etishi o‘quvchilar bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishlari, muhim amaliy ko‘nikma va malakalar egallashlarining omili bo‘la oladi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili, shuningdek, ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, pedagogik zukkolik, yangilikka intiluvchanlikning paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanishiga qiziqish tobora oshib bormoqda.

Bo‘ljak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish muammolari M.O.Ochilov, X.I.Ibragimov, U.N.Nishonaliev, Q.R.Shonazarov, H.Abdukarimov, D.X.Nasriddinova ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Pedagogik faoliyatning mohiyati, tuzilishi va mazmunining pedagogik ongda aks etishini K.Abduraxmonov, M.T.Gromkova, P.T.Kasavin, N.A.Sitnikova, M.Saidovlar tadqiq qilganlar.

Kasbiy mahoratning shakllanishi va pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlikni D.I.Arziqulov, R.Sh.Axlidinov, R.Z.Asamova, T.S.Derkach, S.F.erbak, M.Y.Ismoilova, B.X.Rahimov, B.R.Jo'raeva, K.M.Yuldashevlar o'rganganlar.

Pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari rus pedagoglari A.A.Andreev, V.P.Bespalko, M.T.Gromkova, M.V.Klarin, Mila Novik, amerikalik pedagog Bob Kizlik, o'zbekistonlik olimlar B.L.Farberman, N.Saidahmedov, M.Ochilov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, S.Ziyamuxamedova, B. Ziyamuxamedov, U.Tolipovlarning ishlarida bayon etilgan.

Lekin yuqoridagi ishlardan ko'rinib boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlariga kam e'tibor qaratilgan.

Modulli texnologiya umumlashgan universal tizim bo'lib, ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha optimal va mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu texnologiya quyidagi g'oya, prinsip va qoidalarni amalga oshiradi:

1. O'quv materialini, uni o'zlashtirish uchun taklif va topshiriqlar bilan birgalikda yirik blokli qilib tashkil etish.
2. O'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustaqil ishlab chiqilishini mo'ljallash.
3. O'quv faoliyati algoritmi (modul deb nom olgan o'quv metodik kompleks) va dastur (o'quv ishining ketma-ket topshiriq va bosqichlari) yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish.
4. O'qituvchi metodik tizimning ochiqqligi (o'quvchilarga darsda bajariladigan ishlar rejasi va materialni o'rganish dasturi oldindan aytib o'tiladi).
5. Materialni o'zlashtirish darajasi, uni o'rganish shakli, joyi va tempini o'quvchilar o'zlari tanlab olishlari mumkin.
6. Uyga vazifa ixtiyoriy.
7. Har bir o'quvchining samarali bilim olish faoliyati uchun sharoit yaratish.
8. Nazorat mezon iva mazmuniga o'quvchilarni perspektiv yo'naltirish.
9. O'quvchiga va uning qobiliyatiga ishonch ko'rsatish.
10. Darsda, ish jarayonida erkin o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro yordam.
11. Bahosiz operativ nazorat.
12. Yakuniy nazoratga qarab natijani baxolash joriy natijalarning o'rta arifmetik xisobi emas.
13. Har bir o'quvchiga yakuniy natijani yaxshilash imkoniyatini berish.
14. Ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish.
15. O'quv jarayoni samaradorligini baxolashda o'quvchilar ishtirok etadi.

1.2. Boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashning mavjud ahvoli

Tadqiqotlarimizda ko'rsatib o'tilganidek, boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashning rivojlanishi o'qituvchi mahoratini shakllantirish jarayonini tubdan o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq. Bular modulli ta'lim texnologiyalarini tushunish va shu sohada bilimlariga tayanib ta'limni modulli texnologiya asosida darsni tashkil etish, o'quv predmetini modullarga ajratish, har bir modul o'rtasida aloqa vositalarini izlash, va kutiladigan natijaga erishishni kafolatlashdan iboratdir.

Biz boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashda to'sqinlik qilayotgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan sabablarga asosiy e'tiborni qaratdik. Ta'kidlovchi kuzatish ishlari Qarshi shahridagi 19- maktab va Beshkent iahridagi 12- maktab va bir nechta boshqa maktablarda o'tkazildi. Kuzatishlarda Qarshi shahridagi maktab o'qituvchilaridan 100 nafar o'qituvchi qatnashdi. Bunda ta'kidlovchi kuzatishlar jarayonida anketa, kuzatish va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Avvalambor, oliy o'quv yurtidagi ta'lim tizimi ta'siri ostida pedagogik jarayonni bilish sabablarining rivojlanishini aniqlashga to'g'ri keldi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, talabalarining pedagogika o'quv yurtiga kirgunga qadar bu sohada egallagan bilimlari darajasi ancha past.

Talabalarining kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorgarligini qanday yo'nalishda tashkil etishni belgilash uchun pedagoglarga xos unumli va modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash shakllari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Faqat shundagina pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydigan o'qituvchilarning faoliyati sir-asrorlarini o'rganish zarur. Biz bu faoliyatning qay darajada samaradorligini taqqoslash, tahlil qilish orqali aniqlashga harakat qildik. Bizning fikrimizcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosidagi pedagogik mahoratni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

Birinchisi, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar kontingentining yangicha va samarali ishlash sirlarini o'rganib chiqish.

Ikkinchisi, pedagoglarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faolligini oshirish va aksincha, unga to'sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlash, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlashning yanada samaraliroq yo'llarini izlash. Mazkur masalalar bo'yicha to'plangan axborotlar maktab o'qituvchisi pedagogik faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari bilan boyitishda va uning samarali bo'lishiga yordam beradigan bir qator chora-tadbirlarni belgilab olishga yordam beradi.

Uchinchisi, tajribali o'qituvchilarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash sirlarining o'ziga xosligi, tuzilishidagi farqlari va xarakter xususiyatlarini chuqur o'rganish. Buni bilish o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faoliyatining

motivli asosini “tasvirlab” berishga, uni o‘z etaloni sifatida qabul qilishga, o‘qituvchi kasbiga qiziqishning o‘quv yurtidagi rivojlanish jarayonini bilish, yosh kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklarni ko‘rish, ularning amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga yordam beradi.

Tekshirishning bu uch asosi modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash motivlarining butun ko‘rinishini tasvirlab beradi. Shuningdek, o‘rganilgan ma’lumotlar o‘qituvchini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash faoliyatiga undaydigan kuch va shu harakatning rivojlanish yoki orqada qolish sabablarini aniqlashga asos bo‘la oladi.

Biz tadqiqotimiz davomida ushbu masalalarni yoritishga asos bo‘ladigan hujjatlarni to‘plashga muvaffaq bo‘ldik. O‘rganish jarayonida kuzatish, anketa, suhbat va tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Bizni qiziqtirgan ushbu tadqiqot ishlarida 50 nafar o‘qituvchi qatnashdi. Tadqiqotlarimizda qatnashganlar kontingentini uch guruhga bo‘ldik: pedagogik mohir o‘qituvchilar (14 kishi), 15 yilgacha stajga ega bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar (16 kishi) va 5 yilgacha stajga ega o‘qituvchilar (20 kishi). Mohir o‘qituvchilar guruhi ekspert metodi orqali tanlab olindi. Qolgan ikki guruhni tanlashda sobiq talabaning pedagog sifatida shakllanishi mumkin bo‘lgan vaqt orasidagi 5-6 yillik oraliq hisobga olindi. Ta’lim jarayonini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash asosida tashkil eta olgan o‘qituvchilar kontingentini o‘rganishni biz hozirgi zamon o‘qituvchisi faoliyatida modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash elementlari mavjudmi yoki mavjud emasmi degan savolga javob izlashdan boshladik. (1- ilova)

Bu o‘rinda biz masalani obektiv va subektiv tomonlarga ajratdik: pedagog o‘z faoliyatini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash asosida tashkil etilgan deb hisoblaydi (yoki aksincha, tashkil etilgan emas deb hisoblaydi), ayni paytda bu faoliyat mutlaq qarama-qarshi xarakterga ega bo‘ladi. Bu holatni aniqlashdan maqsad o‘qituvchi o‘z harakati haqida noto‘g‘ri va salbiy xulosalar chiqarmasligi, balki faoliyatni yaxshi yo‘lga qo‘yishning yangi va samarali imkoniyatlarini izlash kerakligini tushunishdir.

1.2.1-jadvalda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining o‘z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash elementlari mavjudligiga bo‘lgan munosabatlarining subektiv holati tasvirlangan. (1.2.1 -jadval)

Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari mavjudligiga bo'lgan munosabatlari

O'qituvchilar kategoriyasi Javoblar	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yil-gacha	15 yil-gacha	Mohir o'qituvchilar
modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman	2,5	6,5	25,0
modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman shekilli	6,4	41,6	30,0
Qancha intilsam ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ish chiqmayapti	59,0	15,2	25,0
O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlay olmayman	15,1	31,0	5
Bu savolga javob berishga qiynalaman	17,0	5,7	15

Bu jadvalda quyidagicha qisqartirishlar berilgan “ 5 yilgacha” - 5 yillik ish faoliyatiga ega o'qituvchilar, “ 15 yilgacha” - 15 yillik ish faoliyatiga ega tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar, ya'ni, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega o'qituvchilar (bundan keyin “mohir o'qituvchilar” deb beriladi).

1.2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 5 yillik stajga ega bo'lgan o'qituvchilarning ko'pchiligi faoliyatlarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga intilsalarda, o'zlarini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlamayotganliklarini e'tirof etdilar. Yosh o'qituvchilarning ko'pgina qismi o'z ishlarini baholashni bilmaganliklari sababli yuqoridagi savollarga javob berishga qiynaldilar. Ishonchsizlik holatiga tushgan yosh o'qituvchilar soni esa ozchilikni tashkil etadi.

5 yildan 15 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan tajribali o'qituvchilar guruhining javoblari birmuncha o'zgacha. Bu toifadagi pedagoglar ancha aniqroq javob berganlar. Bularning orasida o'z faoliyatini baholay olmaganlar ozchilikni tashkil etadi. Bu guruh javoblarida qarama-qarshilik ko'zga tashlanadi. Ular yoki o'z mehnatlarini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil qilingan deb hisoblaydilar, yoki kelajakda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash imkoniyatlariga umidsizlik bilan qaraydilar.

Uchinchi toifaga mansub pedagoglar mohir o'qituvchilar guruhini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi, asosan, o'z faoliyatlarini aniq baholay oladilar. Ushbu dalillarni ekspertlar (maktab direktori, tuman metodisti, jamoa fikri va shaxsiy kuzatishlarimiz) xuddi shu o'qituvchilarning faoliyatiga bergan baholariga asoslanib taqqosladik.

Mohir o'qituvchilarga baho berish bir oz murakkabroq kechdi. hattoki ekspertlar ham o'qituvchi faoliyatining haqiqiy xususiyatlarini aniqlashga qiynaldilar. Bu faoliyatning bir vaqtning o'zida ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida emasligini aniqlash murakkabdir. Ekspertlarning fikricha, mohir o'qituvchilar ikki guruhga bo'linadi: bular faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari mavjud bo'lgan o'qituvchilar va shuni qat'iy ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchilik kasbini noto'g'ri tanlagan, ushbu mehnat turiga xohishi, qiziqishi, qobiliyati bo'lmagan va faoliyati ochiqdan-ochiq reproduktiv xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyatini baholashda, shubhasiz ijobiy tavsif ustun bo'ladi.

Respondent o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni tushunishi 1.2.3- jadvalda aks ettirilgan.

1.2.2-jadval

Respondent o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mohiyatini tushunib yetishlari

Pedagoglar toifasi	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yilgacha	15 yilgacha	Mohir o'qituvchilar
Pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash ning mohiyati			
Metodik o'tkirlik fanni o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish	25,0	16,1	27,6
Modullarga bo'lish va ajratishni to'g'ri belgilash	15,0	20,9	10,4

Pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish	15,9	26,3	12,0
Psixologik-pedagogik bilimlarni to'g'ri qo'llash	27,1	16,5	27,0
Dars loyihasini tuza bilish	6,1	7,2	9,0
O'quvchilarni tushuna bilish, ularning qalbiga yo'l topa bilish	10,9	13,0	14,0

1.3.3-jadvalga asos bo'lgan manbalar har bir guruh pedagoglari tomonidan pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asoslarini va mohiyatini tushunishlarini ochib beradi.

Yosh o'qituvchilar modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik faoliyat qay darajada metodik ta'minlanganligi, psixologik-pedagogik bilimlarning to'g'ri qo'llanishida deb biladilar.

Tajribali o'qituvchilar o'z faoliyatlarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning ahamiyatini, metodik ta'minoti bilan birga pedagogik holatlarni chuqur tahlil qilish orqali tushunib yetish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydigan mohir o'qituvchilar uchun metodik ta'minlanganlik asosiy o'rinni egallaydi va modulli ta'lim texnologiyasini bilish, o'quvchilarga tushuntirish, ularga yetkaza olish, jalb qila bilishning ahamiyati yuqori baholangan.

1.2.2-jadval tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyatni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratini turli toifa o'qituvchilari turlicha tushunadilar. Lekin ulardagi umumiy jihatlardan biri, metodik mahorat va bilimlarning chuqur o'zlashtirilganligining uyg'unlashganligidadir.

Demak, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun to'plangan bilimlar manbalari ham bir-biridan farq qiladi.

Shundan keyin biz o'qituvchilarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faolligi omillarini o'rganishga kirishdik.

Birinchi navbatda biz samarali pedagogik faoliyatning sabablarini aniqlashga harakat qildik. Biz aniqlashga muvaffaq bo'lgan ma'lumotlar 1.2.3-jadvalda berilgan.

1.2.3-jadval

O'qituvchilarning fikricha pedagogik faoliyatdagi

muvaffaqiyat omillari

Pedagolar toifasi	Javoblar soni foiz hisobida
-------------------	-----------------------------

Ko'rsatilgan omillar	5 yil-gacha	Tajribali o'qituvchil.	Mohir o'qituvchilar
Chuqur ilmiy bilimlar	45,8	35,6	35,0
Faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish	28,4	41,9	60,0
Tadqiqot	10,0	26,8	35,0
modulli ta'lim texnologiyasi	36,5	45,5	60,0
O'z ustida muntazam ishlash	29,3	50,3	60,0
Vahti-vahti bilan qayta tayyorgarlik ko'rish	23,6	49,5	56,0
Yaxshi pedagogik jamoaning mavjudligi	31,4	29,5	25,0
Bo'sh vaqtning ko'pligi	12,7	8,1	3,1
Aqliy va ruhiy sog'lomlik	15,7	23,1	25,0
Ish haqiga qiziqish, moddiy rag'batlantirish mavjudligi	51,3	46,5	34,1
Ota-onalar bilan aloqa	43,4	49,8	50,0
O'quvchilar bilan ma'naviy yaqinlik	20,7	29,2	40,0
Boshqa sabablar	3,0	2,4	5,0

***Eslatma:** Ustunlardagi ko'rsatkichlar 100 foizni tashkil etmaydi. Chunki javob beruvchilar eng asosiy sabablarning 3 tasi-nigina ko'rsatishlari mumkin edi.

1.2.3- jadval yakunidan o'qituvchilarning faoliyatidagi muvaffaqiyat sabablarini turlicha ko'rsatib o'tganliklarini ko'rish mumkin. Ular qanchalik pedagogik faoliyat omillariga taalluqli bo'lsa, shuncha moddiy, tabiiy, bo'sh vaqtning ko'pligi, hamkasblar va o'quvchilar bilan munosabat kabilarga ham tegishli.

Yosh o'qituvchilar barcha sabablarni aniq ko'rsatib o'tishgan. Biroq ko'proq eslatib o'tilgan sabablardan: modulli ta'lim texnologiyasi (36,5 foiz), ota-onalar bilan aloqa (43,4 foiz), chuqur ilmiy bilimlar (45,8 foiz).

Olingan ma'lumotlardan shuni tushunib olish mumkinki, yosh o'qituvchi o'zini tiklab olishi uchun modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilishi, yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal eta olishi, ota-onalarning yordamiga muhtoj bo'lish bilan birga, o'quv yurtida olgan bilimlariga murojaat qilishi, yangi axborot manbalarini izlab topishi lozim va h.k.

Tajribali o'qituvchilarda ham barcha sabablar belgilangan bo'lsada, lekin ularning mazmuni biroz boshqacha xususiyatlarga ega. Ular ko'proq uchta sababga - faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish (51,9 foiz), vaqti-vaqti bilan qayta tayyorgarlikdan o'tish (49,5 foiz) va modulli ta'lim texnologiyaga asoslanishga (45,5 foiz) to'xtalib o'tganlar. So'ngra esa - sog'lomlik (23,1 foiz), chuqur ilmiy bilimlarga ega bo'lish (35,6 foiz), shuningdek, faoliyatning moddiy omillarining rivojlanishi va ularning pedagog ishining samaradorligiga ta'sirini ham ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni baholashda, o'qituvchilar malakalarining oshishi juda jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchilar o'z javoblarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga va qayta tayyorgarlikdan o'tish orqali yangi ilmiy va amaliy axborotlar to'plashni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Mohir o'qituvchilarda bir qadar boshqacha holat kuzatiladi. Ular muvaffaqiyatga olib keladigan sabablar deb: modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish, o'z ustida muntazam ishlash, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga kelgan muammolarga modulli ta'lim texnologiyasi asosida yechish va tadqiqotchilik ishlarini hisoblaydilar. Sunungdek ular ham malaka oshirishni alohida ta'kidlaydilar.

Moddiy rag'batlantirishga yuqori darajada qiziqmaydilar va ularning bo'sh vaqti ham uncha ko'p emas. Bu tushunarli hol. Mohir o'qituvchi uchun pedagogik faoliyat hamma narsadan ustun turadi, uning hayot mazmunini tashkil qiladi. Shuning uchun u o'z sevgan kasbiga hech qanday rag'batlantirishni kutmasdan, bor kuch-g'ayratini, bo'sh vaqtini sarf qilishga tayyor. Shunga ko'ra ular birinchi navbatda pedagogik mahorat asoslaridan biri bo'lgan modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay bilishni asosiy o'ringa qo'yadilar. Bunga erishish uchun o'qituvchilardan muntazam o'z ustida ishlash talab qilinadi.

Umuman 1.2.3-jadvalga asos bo'lgan manbalar muayyan toifadagi o'qituvchilar pedagogik faoliyatlari shakllanishining o'ziga xos asoslari va yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Yosh o'qituvchilar mahoratining rivojlanishida boshqalar, hamkasblari va ota-onalar bilan aloqa, o'zining modulli ta'lim bo'yicha bilimlarini boyitish manba bo'lib xizmat qiladi. Tajribali o'qituvchilar mahoratining shakllanish omillari - bu, ular kelajakda aloqada bo'ladigan pedagogika fani yutuqlari doirasidagi kadrlarni qayta tayyorlashning tashkilotchilik shakllari bo'lib hisoblanadi. Mohir o'qituvchilar rivojlanishining asosiy manbasi zahirida o'z ustida ishlash va modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni chuqur egallashning yangi shakllarini izlash jarayoni yotadi.

Mohir o'qituvchilar pedagogik faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish esa quyidagi natijalarni berdi:

a) tajribali o'qituvchilarning metodik mahoratini taqqoslash;

b) pedagogik holatlarni zukkolik bilan tahlil qila olish;

v) modulli texnologiyani qo'llashdagi o'ziga xoslik.

Shu nuqtai nazardan biz modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning mohiyati, uning rivojlanish manbalari, sabablari, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarini tushunib yetishdagi farqni aniqladik.

Taqqoslash natijalari samaraliroq bo'lishi uchun tajribali o'qituvchilar guruhida dastlabki tanlov o'tkazishga to'g'ri keldi. Taqqoslash uchun biz faqat «modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlagan» va «umuman modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydi» deb baholanganlarni tanlab oldik. Biz o'z iste'dodidan adashib, o'z ishini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil qila olmaganlarni, qancha harakat qilsa ham kerakli natiijaga erisha olmaganligi sababli samarali ishlay olmayotganlarni hisobga olmadik. Chunki ularning ishlarida ko'p qo'pol kamchiliklar mavjudligi, mazkur pedagoglarni mohir o'qituvchilar bilan taqqoslash samarasiz natijalarga olib kelishi mumkin edi. Bu ishga shu maktabda ishlaydigan o'qituvchilardan kasbdoshlari haqida ma'lumot berishlarini so'rashdan boshladik. (2-ilova)

Tajribali o'qituvchilar bilan anchagina ish tajribasiga ega bo'lgan va bu borada yuqori ko'rsatkichlarga erishgan o'qituvchilarni taqqoslab ko'rish natijasida ular orasidagi farqni, ularning qaysilarida pedagogik mahorat yuqoriligini aniqlash orqali mohir o'qituvchi nomiga musharraf bo'lgan pedagoglar ishining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkoniyat yaratildi.

Reja va dars o'tilishining tahlili, yangi materialning muammoliligi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan mohirona foydalana olishi, uning qay darajada faolligi, yangi axborotni o'zlashtirib olinishi, olingan bilimlarni mustahkamlashning shakl va turlari, darsda texnik vositalarning qo'llanilishi va boshqa bir qancha holatlar, tajribali o'qituvchi va mohir o'qituvchi orasida deyarli farq yo'q ekanligini ko'rsatib berdi. Ularning har birida ham o'z fanini yuksak mahorat bilan egallaganliklari, metodik mahorati, ishining puxtaligi, chuqur mantiqiyiligini ta'kidlab o'tish lozim.

Taqqoslangan guruhlarining pedagogik vaziyatlarni qanday tahlil qila olish qobiliyatlari orasida bir qadar farq borligini aniqladik. Tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar belgilangan bilimlarni teng o'zlashtira olishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Umuman olganda, kuzatishlarimiz natijasida tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar faoliyatidagi asosiy farq ularning pedagogik vaziyatlarni yuqori darajada tahlil qilishlari va uni o'z faoliyatlari bilan taqqoslay bilishlari, o'z ishlarini tanqidiy baholay bilishlarida deb bildik.

Bunda ularning birida pedagogik tahlil yo'nalishlari turlicha bo'lsa, ikkinchilarida esa bir xilligi kuzatiladi.

Tahlil natijasida ikkala guruh o'qituvchilar faoliyatining aksariyat o'xshashligi namoyon bo'ldi. Lekin ayrim parametrlar ikki toifa o'qituvchilar idroki orasida farq borligini ko'rsatdi. Ular quyidagilar: o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay olish darajasi, o'quvchilarni yaxshi anglash imkoniyati, pedagogik vaziyatlarni yaxshi hal qila olishi, o'quvchilarning ichki dunyosiga kirish qobiliyatiga egaligi va h.k.

Ushbu ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mohir o'qituvchilar faoliyatini o'zining shaxsiy fikridan yoki uning safdoshlari fikridan aniqlash mumkinligi ayon bo'ldi. Bu vaziyat har bir qatnashuvchi ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan materialga, faollik formulalariga va muvaffaqiyatlarga nisbatan munosabatning namoyon bo'lishida o'z aksini topadi.

Umuman, keltirilgan hujjatlar mohir o'qituvchilar faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish sirlari, birinchi navbatda, o'qituvchining pedagogik jarayonni yaxshi tushuna olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy baho bera bilishi eng muhim asos ekanligini va faqat shu yerda mohir o'qituvchilar va tajribali o'qituvchilar faoliyatidagi nozik farqlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatib berdi.

Bundan tashqari mohir o'qituvchilar munosabat doirasining o'ziga xosligi, ularning ichki ruhiy holatlari va harakatlarining aniq persepsiya (lat. idrok etish) laridan, o'z shaxsi va o'quvchi shaxsini aniq bilishidan yuzaga keladi.

Olingan natijalar o'qituvchining ta'lim jarayonini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi, pedagogik xususiyatlarini yaxshi bilishi va o'qituvchi shaxsining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishga yo'naltirilganligiga taalluqli ekanligidan dalolat berib turibdi.

Uning muhim xususiyatlari pedagogik bilimlarni puxta egallash va har qanday vaziyatda to'g'ri pedagogik tahlil qilishi, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay olishi, o'z faoliyatiga o'ta tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z faoliyatini tahlil qilishi va o'zgalar nazari bilan baholashi, o'z bilimini amaliy faoliyat bilan bog'lashi, o'quvchi bilan dildan gaplashishi, ularni muloqot jarayoniga qo'shilishga, o'zgalarning "Men"iga kira olish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Shaxsning shu xildagi yo'nalganligi o'z-o'zini va boshqalarni anglashda, ma'naviy aloqada bo'lish vositalarini izlash sabablarida namoyon bo'ladi.

BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. O'rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z faoliyatlarini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishlari hozirgi kundagi dozarb muammo bo'lib, pedagogik nazariyada bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

2. Tadqiqotimiz asosida turgan farazni to'g'ri belgilaganimiz eksperimental-tadqiqot ishlarimiz jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Haqiqatdan ham o'qituvchilarni o'z faoliyatlarini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilishda, avvalo "modul", "modulli ta'lim", "modulli ta'lim texnologiyasi" tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari aniq anglab yetsalar; ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda foydalanishga e'tibor qaratsalar yaxshi natija berishi mumkin.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni, yo'llarini izlashga, o'zining va o'zgalaring faoliyatiga xolis baho berishga o'rgatadi.

4. O'rta umumiy ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

II – BOB. MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHI

2.1. Modulli o'qitish tushunchasining mohiyati va tavsifi.

“Modulli o'qitish” termini xalqaro tushuncha – modul bilan bog'liq bo'lib (“modul”, lat. **“modulus”** so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi.) Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

Modulning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidir.

Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materialidir.

1982 yilda YUNESKOning anjumandagi ma'ruzasida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o'rganish orqali individual yoki guruh mashg'ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo'lish uchun mo'ljallangan alohida o'rgatuvi paket (to'plam)” deb ta'rif berilgan edi.

Modul – yuqori darajadagi yaxlitlik tizimida o'quv mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funksional tarmoq.¹

Modul – bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini majburiy tarzda nazorat qiluvchi o'quv materialining mantiqiy tugallangan qismi.²

Modul – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism.³

Modul deganda, ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligini tushunamiz.⁴

Modulli ta'lim – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism.⁵

Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi.¹

¹ Kaldibekova A.S. Modulli ta'lim texnologiyasi va uning o'ziga xosliklari. // Sb.nauchno-metodicheskix 24 chastyax. CH.6. – B.45.

² Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2003. – S.274.

³ Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – B.97.

⁴ Nuriddinov B.S. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanish: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2002. – B.13.

⁵ Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2003. – S.58.

O'quv moduli – har bir o'quv topshiriqlarini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar. Ko'proq oddiy va o'ziga xos tarzda o'quv moduli uni o'rganishning ko'proq oqilona shakl va metodlari bilan birgalikda odatiy o'quv dasturlari mavzu(bo'lim)larini aks ettiradi.²

Modulli o'qitish – o'rganishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Inson bosh miyasi to'qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv hujayralari) yoki shartli modullardan iborat. To'qima hujayralari bir-biri bilan ko'p sonli to'qnashuvlarda bo'lishadi. Bir hujayra va uning o'simtasini boshqa hujayra va uning o'simtasi bilan to'qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Bu hujayra bir vaqtning o'zida axboriy umumiylikka o'ziga xos yaxlitlik va tizimlilikka ega bo'lgan elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalar ping umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Modulli o'qitish, pedagogik ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish.

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv material blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad.
- ta'lim standartida berilgan predmet “o'quv elementlarida” maqsadning oydinlashishi.
- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar.
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi.

¹ Selevko G.K. Pedagogiyechkiye texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya. – M.: NII shkolnix texnologiy, 2005. – S. 58.

² Podlasiy I.P. Pedagogika. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2006. – S. 379.

- o‘z - o‘zini va o‘zaro nazoratni tashkil etish bo‘yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta’lim jarayonida alohida modullar asosida o‘quv faoliyatini tashkil etilishi o‘quvchining ta’lim faoliyatining sub’ekti sifatida mustaqil, rejali bilim o‘zlashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo‘llash o‘qituvchidan modulli ta’lim prinsiplarini yaxshi bilishni talab etadi:

Modullilikning 1-prinsipi ta’limning konstruktivligi:

a) o‘quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har bir maqsadga erishish ta’minlangan bo‘lsin;

b) o‘quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;

v) ta’limning har xil shakl va turlari integrallashsin;

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi: ta’lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta’lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida kursga, sinfga tegishli har xil darajali - yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3- prinsip: ta’limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqqligi va ularni almashtiraolish imkoniyati, o‘quv-biluv faoliyatining har bir o‘quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qiliish imkoniyati bo‘lgan shakli.

4- prinsip: ta’sirlarning tiizimliliigi: ta’limning har xil metod va usullari , mazmuni, o‘quv faoliyatining o‘zgaruvchanligi asosida bilim o‘zlashtirishning qulayligi, maxsus ko‘nikma va malakalarning shakllanishi.

5- prinsip: ta’limning ixchamligi: O‘quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’limning ixcham yo‘nalishi;

6- prinsip: ta’limni individuallashtirish: har bir o‘quvchining o‘zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasi va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab, baholash tizimida o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faolligini oshirish ta’limni individuallashtirish demakdir.

7- prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi: modul dasturi axborotlarni oson o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi maslahatidan foydalanishni taqozo etadi (savollar tizimi, algoritmlar va h.)

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o‘qituvchi o‘zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog‘i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o‘qituvchi:

- o‘quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya’ni, o‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi).

Modul – ta'lim mazmunining shunday bir yaxlit bo'lagiki, u ta'lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.

Modulli ta'limning boshqa ta'lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

1. Ta'lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (blok)dan iborat bo'lishi va ularni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o'quvchi uchun belgilanadi va u faqat o'quv material hajmini o'zlashtirishga oid ko'rsamallarni emas, balki o'zlashtirish darajasini ham o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi modulni qanday o'rganish kerakligi, zaruriy o'quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o'qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.

2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o'tadi. Faqat modulgina ta'limni sub'ekt-sub'ekt asosida o'tishiga yordam beradi.

3. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtining ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi. Shunday qilib har bir o'quvchi o'z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.

4. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o'quvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lib boshqaradi.

5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o'quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

2.2. Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillari

O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq (2.1-rasm) ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlilik tamoyili: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng huquqlik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati sub'ekt - sub'ekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Ya'ni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, pedagogik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Shular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:


- katta hajmdagi o'quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o'quv material, osonroq o'zlashtiriladi;
- o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, o'quv axborotning tegishli strukturasi modulda tuzish yo'li bilan erishiladi.

Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy – bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharx berish;
- muammoli – bu muammoni shakllantirish;
- tizimli – bu modul tarkibining tizimli namoyon etish;
- faollashtirish – bu yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;
- nazariy – bu asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni echish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;
- tajribaviy – bu tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;
- umumlashtirish – bu muammo echimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;
- qo‘llanish – bu harakatlarning yangi usullarini va o‘rganilgan materialni amaliyotda ko‘llash bo‘yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;
- xatoliklar – o‘quvchining modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ulanish – o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;
- chuqurlashtirish – iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqori murakkabli o‘quv materialini takdim etish;
- test-sinovlash – modul mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.



2.1.-расм. Modulli o'qitishning blok-sxemasi

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

4. Motivasiya (qiziqishni uyg'otish) tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati, o'quvchining o'quv-bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Bu asosiy qoidadir.

Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da'vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

5. Modullik tamoyili. Bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini uch xil ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

- to'la;
- qisqartirilgan;
- chuqurlashtirilgan.

O'qitishning u yoki bu turini tanlash o'quvchiga havola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o'zlashtirishda, usul va shakllarning turliligida ham modullik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil o'qish, o'quv va imitasion o'yinlar va hokazo), hamda muammoli ma'ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, modullik, yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko'zda tutiladi.

6. Muammolilik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi. Mashg'ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning echimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni echish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa o'quvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

7. Kognitiv vizuallik (koʻz bilan kuzatiladigan) tamoyil. Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga koʻra oʻqitishdagi koʻrgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina oʻzlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sunʼiy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi boʻlib, murakkab ob'ektlar kompyuter suratchalari koʻrinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi boʻlib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik oʻquv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. Shuning uchun rasmchalar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchidan, oʻquvchining koʻrish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, yaʼni oʻrganish jarayoniga miyaning tasviri oʻng yarim shari boy imkoniyatlari qoʻshiladi.

Ikkinchidan, oʻquv materialini mazmunini oʻzida zich joylashtirib ravshan koʻrsatuvchi surat (rasm), oʻquvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar, oʻquv informasion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda oʻquvchilarni estetik tarbiyalash vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek boʻladi: ularning biri simvolli boʻlsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) boʻladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvolli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni oʻz ichiga olgan, bilim berishni uygʻunlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (koʻzga koʻrinuvchi) axborot miyaning oʻng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy maʼlumotli mutaxassis uchun zarur boʻlgan, tasviri fikrlash qobiliyatini, intuisiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek «intuisiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatda ilm-fan gepotestasiz (farazsiz), faraz zsa intuisiyasiz mavjud boʻlmaydi.

Shu bilan birga, koʻrgazmali axborot ogʻzaki axborotdan koʻra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Koʻrish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan koʻra ancha yuqoridir. Bu esa oʻz navbatida, koʻrish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini etkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari koʻrgazmali axborot bir vaqtning oʻzida beriladi. Shuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga ogʻzaki axborotdan koʻra kam vaqt talab etiladi. Koʻrgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil boʻlishi ogʻzaki bayondan koʻra oʻrtacha 5-6 marta tezroq kechadi. Insonning koʻrgazmali axborotdan taʼsirlanishi, ogʻzaki axborotdan koʻra ancha yuqori boʻladi. Koʻpchilik hollarda u oxirgisini oʻtkazib yuboradi. Koʻrgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir.

Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga bog'liq bo'ladi. O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. Shuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

8. Xatoliklarga tayanish tamoyili. Bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga, o'quvchilarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi, o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga erdam beradi.

9. O'quv vaqtini tejash tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zahirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish, o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillarini to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda, yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

– **10. Texnologiklik tamoyili.** Bu tamoyil o'quvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalarga erishish kafolatini ta'minlovchi, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonini, tizimli modulli yondashuv asosida ro'yobga chiqarishni anglatadi. Mazkur tamoyil quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- maksimal aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlash;
- qo'yilgan o'quv maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;
- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;
- o'qitish natijalarini tezkor baholash va o'qitishga tuzatishlar kiritish;
- o'qitish natijalarini yakuniy baholash.

Texnologiklik tamoyili, o'qitishni qayta takrorlanadigan jarayonga aylanishiga imkon beradi.

Modulli o'qitish tizimida o'rgatuvchi sikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

O'quv maqsadlariga erishish uchun o'quv me'yoriy hujjatlarning uzviylikini ta'minlash tayanch sharoitlarini yaratish zarur. Ushbu maqsadlarda uzviylik tamoyilini qo'llash tavsiya etiladi.

11. Uzviylik tamoyili. Bu tamoyil o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlash uchun o'quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashishin anglatadi. Bunda fanlarning maqsadlariga ko'ra, o'quv rejadagi soatlar mosligi ta'minlanadi.

2.3. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi

Fan bo'yicha faoliyatli yondashuv ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini umumiy ta'lim maktablarida foydalanish mumkin. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- Fanning fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- Fanning bir yoki bir necha tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Fanning tushuntiruv apparatini qat'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlili asosida, eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va kompakt guruhlash imkoniyatini beradi. Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida o'quvchilarga fanni to'laligicha emas, balki faqatgina bir qator modullarni tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa iqtidorli o'quvchilarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:


Ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi (2.1 - rasmi).

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, Davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi. Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo'lib, birinchi fanni o'rganila boshlaganida, o'quvchilarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlanganida, u fanning o'rganish maqsadlari o'quvchilar e'tiboriga yetkaziladi:

Makromodullar vertikal yaqin o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularni o'rganilish muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog'lanishlar hisobga olinishi lozim.

– o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlarning, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.



2.1.-rasm. Fan bo'vicha faolivat vondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologivasining sxemasi

Modul o'z ichiga 2-3 mavzu va shu mavzular bilan bog'liq amaliy darslarni qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ishchi o'quv dastur.

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o'tilgan materialni nazorati bo'lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish (boshlang'ich) nazorati bo'ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuziladi va ular o'quvchiga mashg'ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan ko'rgazma materiallar va adabiyotlar to'plami bilan ta'minlanadi, har bir materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin. Pedagogning vazifasi axborotchi-nazoratchidan boshlab, maslahatchi-muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi vazifasi, o'qitish o'rgatuvchi modullar asosida amalga oshirilganida, namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul - o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va juda ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni juda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo'riqli darslar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modullar amaliy va nazariy mashg'ulotlar bilan birga tuziladi, ular darslar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Darslar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini ko'llab, materiallarini blok-sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki: (3-4- ilovalar)

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;

- asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;
- o'quv materialining (modulning) butun hajmi, o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni «siqish» vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

Modulli ta'lim uslubiyotida, bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvolli alomatlarini (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, rasmlar bloki, blok-sxemalar va boshqa ko'rgazmali materiallar o'quvchilar uchun tarqatma material vazifasini o'tashi mumkin. Shu bilan birga har bir fan, jumladan, modul bo'yicha atamalarining izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aqliy hujum, muammoli munozara, evristik (savol-javobli) suhbat, o'quv ishbilarmonlik o'yinlari va hokazo.

Shunday qilib, modulli o'qitishga o'tish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

I bosqich: O'quv rejadagi fanlarni makromodullarga ajratish.

II bosqich: O'qitish davri siqilganida, fanlarni o'rganishning eng maqbul ketma-ketligini o'rnatish.

III bosqich: Makromodul fanlari o'quv dasturlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

IV bosqich: O'quv predmetlarning modullarini shakllantirish.

V bosqich: Modulning o'quv-ko'rgazmali materialini ishlab chiqish

VI bosqich: Modulli o'qitish tamoyillari asosida o'qitish texnologiyasini loyihalash.

VII bosqich: Bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning maqbul sonini e'tiborga olib, mashg'ulotlar jadvalini tuzish.

O'quv jarayonining tashkil etilishini, modulli o'qitish tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

O'qitishning modulli tizimi xususiyatlaridan biri o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi, ushuni ikki aspektda talqin etish mumkin.

– o'qitish jarayonida modulli o'qitish tamoyillari asosida o'quv axborotini «siqish»;

– o'qitish davrini «siqish» yo'li bilan o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil etish shakli bu mashg'ulotlarni haftalik modulli rejalashtirish va o'quvchilar bilimini reyting baholash hisoblanadi. Ya'ni, bitta modul bir haftaga rejalashtirilishi va u talabalar bilimining testlar yoki boshqa nazorat turi yordamida baholanishi bilan tugallanishi zarur.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- o'quv predmetlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;
 - har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;
 - fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
 - o'quvchilar bilimini muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
 - o'quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);
 - informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, dars soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - optimallashtirish. Buning natijasida, o'quvchi yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.
- O'quv predmeti bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik-texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi (2.2 - jadval).
- o'qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi;
 - o'qishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

Fanni o‘qitishning pedagogik-texnologik xaritasining shakli

2-жадвал

Фanning umumiy maqsadi	Mavzu					Tayanch tushuncha			O‘qitish jarayoni		Test topshiriqlari	O‘zlashtirish darajasi (%)
	№	Nomi	O‘quv ilmiy adabiyotlar nomi	Ajratilgan soat	O‘quv maqsadi	Nomi	O‘quv maqsadi		Texnologiyasi (o‘qitish usullari)	Didaktik vositalar		
				Dars			Mazmuni	Toifasi (B.Blum bo‘yicha)				
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.

II BOB YUZASIDAN XULOSA

1. Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o‘quv materiali bolib, o‘quvchilarni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlariga egallashlariga katta imkoniyat yaratadi.
2. Modulli ta’lim jarayonida o‘qitishning uzluksizligi prinsipi amalga oshadi fanlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi
3. O‘qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko‘p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o‘zlashtiriladi;
4. O‘qishni individuallashtirish (o‘quvchi o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi).

III – BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SHAKLLARI VA METODIKASI.

3.1 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta‘limning mohiyati.

Biz tanlab olingan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga modulli ta‘lim asosida o‘qitishga doir o‘z tavsiyalarimizni berdik . Biz o‘tkazgan tajribalar aksariyat hollarda yaxshi natijalar berdi.

O‘qish darslariga qo‘yilgan zamonaviy talablar o‘qituvchidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qishga jalb qilish, badiiy adabiyotni san‘atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e‘tibor qaratish talab etiladi. Ta‘limning an‘anaviy tizimidan farqli ravishda modulli o‘qish darslarining asosida uning har bir etapida o‘quvchining faolligiga asoslangan mustaqil faoliyati, o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan har xil darajali modullar algoritmi asosida ta‘lim jarayoniga to‘liq jalb etish yotadi.

O‘quvchilar modul topshiriqlarini mustaqil o‘qiy oladigan davrdan boshlab modulli o‘qishga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya‘ni ikkinchi sinfdan boshlab modullarni kiritish yaxshi natija beradi.

Quyida modulli darsning qisqartirilgan variantini tavsiya etamiz (O‘qish darsining algoritmi)

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsining algoritmi

1-modul

Uy vazifasini tekshirishga tayyorgarlik.

Darslikning ...betini och (Agar u she‘r bo‘lsa takrorla (hikoya bo‘lsa birinchi abzatsgacha o‘qi).

She‘rning bir bandini o‘qib, partadoshingga aytib ber. (hikoya bo‘lsa mazmunini partadoshingga so‘zlab ber).

She‘rda yoki hikoyada nima haqida aytilgan. Qaysi voqea yoki hodisani eslab qolding, nima uchun?

O‘z-o‘zingni bahola va o‘rtog‘ing bahosini eshit.

2-modul

Quvnoq daqiqa:

1. Nafas olishga oid mashqlar: «sharni pufla», «choyni sovit», «changni hayda», «chiroqni puflab o‘chir».

2. Ovozga oid mashqlar: tovushlar artikulyatsiyasi, tez aytish, kichik she‘rni sekin, tez, past, baland ovozda, ichda o‘qish, jo‘r bo‘lib o‘qish, intonatsiyaga rioya qilib o‘qish, yoddan aytish.

3 –modul.

Tez o‘qish. O‘qituvchining “Boshla” degan buyrug‘idan keyin boshla.

1. Lablaringni bir-biri bilan jipslashtir.

2. Faqat ko‘zing bilan o‘qi.

Imkon boricha tezroq o‘qi, tushunmaydigan so‘zlaringni belgila.

Savollarga matndan javob ber.

Javobingni o‘rtog‘ing bilan muhokama qil, uni bilan maslahatlash. Umumiy muhokamada qatnash.

4- modul

Tez o‘qish malakasini egallash uchun intensiv mashqlar.

Yarim ovoz bilan boshlovchi(diktor)ga taqlid qilib o‘qish.

Ritmik chertmalar asosida o‘qish.

Matndan nigohni olib o‘qish.

Tezlashtirib o‘qish.

Juftlikda o‘qish.

Tez aytish tempida o‘qish..

Pichirlab o‘qish.

Faqat ko‘z bilan ichda o‘qish.

Tez o‘qish.

5-modul

Tavsiyalar

Intonatsiyaga rioya qilib o‘qi, urg‘ularni to‘g‘ri qo‘y.

O‘qiyotganda pauzalarga to‘g‘ri rioya qil.

Ovoz kuchining baland yoki pastligini o‘zing belgila.

Tempning tez yoki sekinligini aniqla.

His-hsyajon bilan o‘qi.

Intonatsiya bilan asarga o‘z munosabatingni bildir.

6-modul

Ijodiy daftardagi ish. (tanlash bo‘yicha topshiriqlar).

Darsni xulosalash – o‘z fikringni aytishni, dialogga kirishish, muammoga baho berishni o‘rgan.

Tavsiyalar har bir o‘quvchiga beriladi.

O‘quvchilarda algoritmlardan foydalanish malakasini shakllantirish.

Mustahkam bilim va malakalarga ega bo‘lish maqsadli mustaqil faoliyat tufayli amalga oshishi mumkinligi hammaga yaxshi ma‘lam.

Modullar haqidagi ko‘rsatmalardan tashqari o‘quvchilar uchun ishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan alohida papkalar partaga qo‘yilishi kerak. Mustaqil ishlashga mo‘ljallangan topshiriqlarning asosida matnni birinchi o‘qishdan o‘qiganlarining mazmunini tahlil qilish va berilgan savollarga javob berish kabi ishlar yotadi. Mazmunni chuqurroq idrok etish va tushunish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘rganishning metodik modeli.

Asosiy mazmunni aniqlash.

Hikoyani bayon etuvchini ajratish.(hikoyani kim aytayapti, u hikoya voqealarining ishtirokchisimi?)

Hikoya qahramonini aniqlash, uning harakatlari va bu harakatlarning sabablarini aniqlash.

Qahramon personajlar xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash.

Ta‘sir qiluvchi shaxsning hislari va holatini aniqlash va testda u holatni bildiruvchi so‘zdarni topish. tushungani bo‘yicha qahramonni og‘zaki tavsiflash.

Hikoya qahramoniga muallifning munosabatini aniqlash. Matndan shunga doir so‘zlarni topish.

Hikoya qahramoniga o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlarini aniqlash.

Asarning asosiy g‘oyasini tushunish.

Hikoya kompozitsiyasi ustida ishlash.

Boshlang‘ich sinfda ertakni o‘rganishning metodik modeli

Aniq voqelikni aniqlash:

Ertak qahramonlari;

Ularining rolining xususiyatlari (yaxshilik va yovuzlik, va b.);

Voqealarning izchilligi:

a) asosiy voqeaning xarakteri;

b) voealarning ketma-ketligi;

Xulq motivlari;

Ertak qahramonlari va personajlarning xarakterli xususiyatlari;

Ertak qahramonlari va personajlarning o‘zaro munosabatlari.

Ertak qahramonlari yoki ertakdagi ayrim epizodlarni o'ylagani bo'yicha og'zaki tavsiflash.

Ertakdagi asosiy g'oyani aniqlash.

Ertak qahramoniga yoki undagi voqea-hodisalarga o'quvchilarning shaxsiy munosabatini aniqlash.

Ertak janrining xususiyatlarini farqlash;

Kompozitsiya(tarkibiy tuzilishi);

Voqelik bo'lib o'tgan joy; (real voqelik yoki uydirma);

Ertak voqealarini badiiy ifodalash.

Boshlang'ich sinfda nazmiy materiallarni o'rganishning metodik modeli (she'rni o'rganish)

1. She'rning umumiy hayajonli qismlarini aniqlash;
2. She'rdagi tabiat manzaralarini tasvirlashga doir joylarni topish;
3. Qiziqarli obrazlar va aniq bo'rttirib ko'rsatilgan joylarni topish;
4. Ta'sirli joylarini alohida ta'kidlovchi ovoz bilan o'qish;
5. She'rdagi tasvirlangan jarayonni rasmda ifodalash;
6. Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini aniqlash;
7. Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini va munosabatini ifodalovchi so'zlarni she'rdan topib o'qish;
8. She'rning asosiy mazmunini aniqlash;
9. She'rda tasvirlanganlarga o'quvchining munosabatini aniqlash;
10. She'rdagi aytuvchi shaxsini aniqlash.

O'qish darslarida adabiy asardagi badiiy obrazlarni tahlil etishga doir savollar.

Asar qahramoni bilan do'stlashishni xohlarmiding?

Sen uning o'rnida bo'lsang nima qilar eding?

Hikoya(yoki ertak) qahramonining hamma ishlarini to'g'ri deb o'ylaysanmi? Nima uchun u shunday qildi?

Qahramonni shunday qilishga nima majbur qildi? Boshqacha ham bo'lishi mumkin edimi?

Qahramondagi qaysi sifatlar senga yoqadi, qaysi sifatlar yoki xulqidagi ayrim o'ziga xosliklar senga yoqmaydi

Uning odamlarga munosabati senga yoqadimi?

Qahramonga qanday maslahat bergan bo'lar eding ?

Asardagi voqealar ichida bo'lishni xohlarmiding?

Asarda bo'lib o'tgan voqealarda kim bo'lib qatnashishni xohlar eding?

Shunday vaziyatga tushib qolsang qanday choralar ko'rar eding (yoki nima qilar eding)?

Shunday vaziyatda o'zingni qanday tutgan bo'lar eding?

Agar hikoya qahramonlari sizning sinfingizda o'qiganda sinfingiz hayotida qanday o'zgarish bo'lishi mumkin edi?

Matn mazmuni bo'yicha o'tkaziladigan suhbat savollari.

She'r matnini o'qiyotganingda ko'z oldingda nimalar namoyon bo'ladi? O'qiyotganingda nimalarni his qilasan?

O'qiyotganingda musiqa eshitganday bo'lasanmi?

Qanday musiqa eshitganday bo'lasan (og'ir, xursand, o'ynoqi va h.?)

She'rdagi so'zlar bog'lanishining qaysi tomonlari senga ko'proq yoqadi?

She'rning o'zi qanaqa: g'amginmi, xushchaqchaqmi, oddiymi, O'ylashni talab etadiganmi? to'qib chiqarilgan hodisami? U qanday kayfiyatda yozilgan?

Shoir tabiatning qaysi holatini tasvirlagan? Tasvirlanganlarga uning munosabati qanday?

Qaysi she'rlar hislarni qo'zg'aydi, diqqatni oshiradi, tabiatiga notinchlik yoki tinchlanish hissini olib keladi, uyqu keltiradi yoki boshqa holatlarga kiritadi.

Shoir tomonidan tasvirlangan tabiat hodisalari insonlarning qanday tuyg'ulariga mos keladi?

Ana shu qatorlarni yozganda shoir ko'nglidan nimalar kechgan deb o'ylaysiz? U qanday holatda bo'lgan, nimalarni orzu qilgan?

She'rni yozgan muallif sizningcha nima haqida o'ylagan, nimalarni eslab xotirlagan?

Siz tabiatning shu holati bilan tanishmisiz? Hayotda unga duch kelganmisiz? Qanday holatda duch kelgansiz?

Shu satrlarni yana qachon o'qiy olasiz? Qanday holatda? Qanday vaziyatda? Qanday sharoitlarda sizga bu she'rni do'stingiz yoki kattalar o'qishidan eshitish istagi paydo bo'lar edi?

Bunday ko'rsatmalar o'quvchilarni materialni anglab, tushunib o'zlashtirishga mustaqil tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarishga yordam beradi.

3.2. Boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajriba – sinov ishlari.

Modulli ta'lim texnologiyasi asosida darslarni tashkil etishga doir o'tkaziigan eksperiment ishlari natijasini aniqlash maqsadida takror tekshiruvlar o'tkazildi.

Tajriba yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars jarayonini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil eta olgan o'qituvchilar kontingentini o'rganishni biz hozirgi zamon o'qituvchisi faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjudmi yoki mavjud emasmi degan savolga javob izlashdan boshladik. Bu o'rinda biz masalani obyektiv va subyektiv tomonlarga ajratdik: pedagog o'z faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan deb hisoblaydi (yoki aksincha, tashkil etilgan emas deb hisoblaydi), ayni paytda bu faoliyat mutlaq qarama-qarshi xarakterga ega bo'ladi. Bu holatni aniqlashdan maqsad o'qituvchi o'z harakati haqida noto'g'ri va salbiy xulosalar chiqarmasligi, balki faoliyatni yaxshi yo'lga qo'yishning yangi va samarali imkoniyatlarini izlashi kerakligini tushunishdir.

3.2.1-jadvalda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining tajribadan keyingi o'z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjudligiga bo'lgan munosabatlarining subyektiv holati tasvirlangan. (3.2.1-jadval)

**Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchilarining oʻz pedagogik faoliyatlaridagi
modulli taʼlim texnologiyasi elementlari**

mavjudligiga boʻlgan munosabatlari (javoblar foiz hisobida)

Oʻqituvchilar kategoriyasi Javoblar	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yil- gacha	15 yil- gacha	Mohir oʻqituvchilar
Modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlayman	10,0	18,5	45,0
Modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlayman shekilli	39,4	46,0	37,0
Qancha intilsam ham modulli taʼlim texnologiyasi asosida ish chiqmayapti	37,0	13,2	8,0
Oʻylashimcha modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlay olmayman	6,1	18,0	7,0
Bu savolga javob berishga qiynalaman	7,5	4,3	3,0

Bu jadvalda quyidagicha qisqartirishlar berilgan “ 5 yilgacha” - 5 yillik ish faoliyatiga ega oʻqituvchilar, “ 15 yilgacha” - 15 yillik ish faoliyatiga ega tajribali oʻqituvchilar va mohir oʻqituvchilar.

1.3.1-jadvaldan koʻrinib turibdiki, tajribadan keyin oʻqituvchilar ishida anch siljish boʻlgan. 5 yillik stajga ega boʻlgan oʻqituvchilarning koʻpchiligi faoliyatlarini modulli taʼlim texnologiyasi asosida tashkil qilishga kirishishgan, baʼzilari esa modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlamayotganliklarini eʼtirof etdilar.

5 yildan 15 yilgacha mehnat stajiga ega boʻlgan tajribali oʻqituvchilar guruhining javoblarida koʻrinib turibdiki ular modulli taʼlim afzalliklarini anglaganlar va bi ishni amalgam oshirishga kirishganlar. Bularning orasida ham oʻz faoliyatini baholay olmaganlar bor, lekin ular ozchilikni tashkil etadi. Bu guruh javoblarida qarama-qarshilik koʻzga tashlanadi. Ular yoki oʻz mehnatlarini modulli taʼlim texnologiyasi asosida tashkil qilingan deb hisoblaydilar, yoki kelajakda modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlash imkoniyatlariga umidsizlik bilan qaraydilar.

Uchinchi toifaga mansub pedagoglar mohir oʻqituvchilar guruhini tashkil etadi. Ularning koʻpchiligi, asosan, oʻz faoliyatlarini aniq baholay oladilar. Ushbu dalillarni ekspertlar (maktab direktori, tuman metodisti, jamoa fikri va shaxsiy kuzatishlarimiz) xuddi shu oʻqituvchilarning faoliyatiga bergan baholariga asoslanib taqqoslaymiz.

Taqqoslash haqidagi ma'lumotlar 3.2.2 - jadvalida berilgan.

3.2.2-jadval tahlilidan ko'rib turibmizki, ko'pchilik yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyati modulli ta'lim texnologiyasi faoliyati sifatida emas, balki unga intilish, faoliyatga yangicha yondashuv yo'llari ustida izlanish deb baholanadi. Ijobiy baholar va modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlay olmaydi deb baholaganlar soni ozchilikni tashkil etadi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra o'qituvchilar faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari

O'qituvchilar toifasi, mehnat staji Baholar	Baholar soni foiz hisobida		
	5 yil gacha	15 yil-gacha	Mohir o'qituvchilar
Shubhasiz modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlaydi	1,3	9,5	51,1
Umuman aytganda modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlaydi	8,2	41,9	23,5
Modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlashga harakat qiladi, lekin har doim ham ishi modulli ta'lim texnologiyasi asosida chiqmaydi	60,8	22,8	22,4
O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlay olmaydi	9,6	12,3	2,0
Baho berishga qiynalaman	20,1	13,5	1,0

Mohir o'qituvchilarga baho berish bir oz murakkabroq kechdi. hattoki ekspertlar ham o'qituvchi faoliyatining haqiqiy xususiyatlarini aniqlashga qiynaldilar. Bu faoliyatning bir vaqtning o'zida ham modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil eta olmaslini aniqlash murakkabdir. (12,3 %) Ekspertlarning fikricha, mohir o'qituvchilar ikki guruhga bo'linadi: bular ijodiy faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjud bo'lgan o'qituvchilar va shuni qat'iy ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchilik kasbini noto'g'ri tanlagan, ushbu mehnat turiga xohishi, qiziqishi, qobiliyati bo'lmagan va faoliyati ochiqdan-ochiq reproduktiv xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini tashkil etish mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyatini baholashda, shubhasiz ijobiy tavsif ustun bo'ladi.

3.2.1- va 3.2.2 - jadvallarni taqqoslash natijasi o'qituvchilarning o'z faoliyatlariga baho berishlaridagi subektiv fikrlari ko'rib chiqilayotgan mazkur masala bo'yicha obektiv holatni aks ettiradi. Bu ko'rinish yosh o'qituvchining amaliy malakasi yetishmasada, modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlashga intilishidan, tajribali o'qituvchining o'z qiziqishi va imkoniyatlarini baholashda, ko'p yillik faoliyat tajribasiga asoslanishida, mohir o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlash uchun intilishi, malakasi va kasbiga nisbatan qiziqishi tufayli yuzaga keldi.

Biz modulli ta'lim texnologiyasi asosida dars o'tilganda o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalarining o'sishi va ta'lim samaradorligining oshishi an'anaviy ta'lim asosidagi darsga

qiyosan baholashga harakat qildik. Tekshiruvda jami Beshkent shahridagi 12-umumta'lim maktabi 3-4- sinf o'quvchilaridan 182 nafari qatnashdi.

Buning uchun o'quvchilar uchun mustaqil topshiriqlar tizimini ishlab chiqildi. O'quvchilarga taqdim etilgan suratlar asosida mustaqil hikoyalar tuzish topshirig'I berildi.

Baholash uchun quyidagi mezonlar tanlandi:

Yuqori daraja. Bunga o'qituvchi bergan yo'nalish asosida 8-10 gapdan iborat hikoya tuza oladigan o'quvchilar kiritildi. Ular suratlardagi muhim jihatlarni o'qituvchi yordamisiz aniqlay oladilar, fikrlarini erkin bayon qila oladilar va fikrlarini o'ziga xos holda himoya qila oladilar. Ular tuzgan hikoyalaridagi gaplar o'zaro mantiqan bog'lanishi va so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishiga alohida e'tibor qaratildi (30 o'quvchi).

O'rta daraja. Bunga o'qituvchi yordami asosida 4-5 gapdan iborat hikoya tuza oladigan o'quvchilar kiritildi. Ular fikrlarini erkin bayon qila oladilar, ammo o'qituvchi e'tiroz bildirsa ikkilanib qoladilar. Ular tuzgan gaplarda 1-2 ta xatoga yo'l qo'yilishi hisobga olindi (64 o'quvchi).

Quyi daraja. Bunga o'qituvchining bevosita yordami asosida deyarli mantiqan bog'lanmagan, gap tuzishda xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilarning hikoyalari kiritildi. Ular o'qituvchining fikrini to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladilar (88 o'quvchi).

Suratlar asosida o'tkazilgan suhbat jarayonida jami 182 ta 3-4--sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Birinchi bosqichda tajriba natijalari quyidagicha bo'ldi:

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o'quvchilarning deyarli hammasi o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qildilar. Kuzatish natijalari asosida o'quvchilar fikrlashi quyidagicha 3 darajada baholandi:

3.2.3-jadval

3-4- sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash darajalari

Sinf	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf
O'quvchi soni	14	16	30	34	41	47
% хисобида	16,8	16,5	35,1	35	48,1	48,5

O'tkazilgan tajriba tadqiqot ishlaridan keyin o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi ancha rivojlandi. Bu quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

3.2.3-jadval

Tajribadan keyin 3-4- sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash darajalari

Sinf	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf
O'quvchi soni	34	44	40	41	11	12
% hisobida	40	45	47	42	13	13

III BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish ishlarning turli shakllarini muntazam va o'zaro bog'liq holda tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday ishlarni tashkil etishning yanada samarali shakli yaxlit tizimlilik asosida amalga oshirilishidir.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi maktabda ta'lim sohasidagi ishlarning tizimli tashkil etilishiga bog'liq.

3. Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida biz o'qituvchilarni ko'proq modulli ta'lim faoliyatiga jalb etilishi ularda shu ishga oid qiziqishning ortishi, maktabda o'qituvchilarning moddiy va ma'naviy rag'batlanishi, raqobat muhitining yaratilishiga bog'liq, degan xulosaga keldik.

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishi uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Chunki, har bir darsni o'tishdan avval uni modullarga ajratgan holda tuzilgan dars ishlanmalari asosida o'tiishlari kerak.

5. Shuningdek, o'qituvchi modulli ta'lim texnologiyasi asosida dars o'tishi uchun metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

UMUMIY XULOSALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish maksimal imkoniyatlarni yaratib beradi, uning jamiyatdagi tez o'zgaruvchan sohalariga erkin o'ta olishiga, madaniyatga kirishi va muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Ayniqsa, ijtimoiy hayot, fan va ishlab chiqarish sohalarida jadal rivojlanib boruvchi texnologik jarayonlar har tomonlama yetuk yoshlarning o'sib borishi va ularning ehtiyojlari asosida darslarni tashkil etishni talab etadi.

Bularni amalga oshirish natijasida:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish o'z-o'zini anglashga va o'z-o'ziga baho bera olishga o'rgatadi;
- dars jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga joriy eta olishlarini shakllantirish uchun sharoit yaratiladi;
- o'zaro bir-birlari bilan hamkorlik qila olish malakalari rivojlanadi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaxlit – ijtimoiy, jismoniy, ma'naviy, intellektual rivojlanishi ta'minlanadi;
- ta'limning nazariy va amaliy faoliyat bilan aloqasi mustahkamlanadi;
- o'quvchilarga ortiqcha qiyinchilik tug'diradigan muammolar hal etiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida modulli o'qitish keng qo'llaniladi.

Modul deganda, biror tizimning funksional yuklamasini aniqlashga doir mustaqil qismiga tegishlilik tushuniladi. Nazariy ta'limda esa, modul – bu o'quvchilarning u yoki bu fan bo'yicha bilimlariga doir ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli axborot yoki harakatlarning aniq belgilangan “doza”si. Yuqorida bayon etilganlarga asosanib, ta'limiy modul tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ta'limiy modul – bu o'zlashtirish ta'lim oluvchi mazkur modullarni egallashi natijasida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning nazorat qilish shakli bilan muvofiqlikda tugashi zarur bo'lgan, o'zida bilishga doir va kasbiy jihatlarni ochib beruvchi o'quv fanining biror qismi mazmunining mantiqiy tugallangan shakli.

Modul bilishga doir va kasbiy tavsifdan iborat bo'ladi. Ana shunga bog'liq holda modulning bilishga doir (axboriy) va o'quv-kasbiy (faoliyatli) qismlari haqida gapirish mumkin. Birinchisining vazifasi – nazariy bilimlarni shakllantirish bo'lsa, ikkinchisining vazifasi – egallangan bilimlar asosida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Blokning bilishga yo'naltirilgan tarkibi o'z navbatida ta'limiy va o'quv-kasbiy qismlarga ajratilgan. Bilishga yo'naltirilgan qism:

- interfaol, izlanuvchan, muammoli texnologiyalarni qo'llash;
- tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rnatish;

- mustaqil izlanish, shaxsiy tajribaga murojaat etish, tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy fikrlarni bayon qilishga undovchi topshiriqlar berish;

- o'quvchilar o'quv faoliyatining turli noan'anaviy turlari, tegishli fanning asosiy tushunchalariga ta'rif berish; xilma-xil nazariyalar, g'oyalar, talqinlarni qiyoslash; adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan shaxsiy bilimlarni umumlashtirishga asoslangan evristik shakldagi amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'limiy qism o'quvchilarga o'quv materiallarini o'rganish metod va usullarini ko'rsatuvchi quyidagi topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

Shaxsiy hayotiy tajriba va o'qib o'rganilganlarni yodga olish (esga tushurish).

Ularga tayanib o'rganilayotgan masala bo'yicha shaxsiy fikr (ta'rif, izoh)ni aniqlashtirish.

Mavzu yuzasidan mavjud turli nuqtai nazarlarni taqqoslash;

Yangi ma'lumotlarni bilish, tahlil qilish va umumlashtirish asosida shaxsiy fikr(ta'rif, g'oya, yondashuv)ni shakllantirish.

Yangi axborotlarning butun to'plamidan o'zi uchun zarurlarini ajrata olish.

Yangi atamalar, ularning ma'nosi bilan tanishish, ularni yozib olish va xotirada mustahkamlash, avvaldan ma'lum bo'lgan atamalarning mazmunini aniqlashtirish.

Mavzuga tegishli adabiyotlar bilan tanishgan holda, qiyin va tushunarsiz joylarni aniqlashtirib olib, o'qituvchiga beriladigan savollarni, eng murakkab va qiziq masalalarni avvaldan belgilab olgan holda kelish.

O'quv qism. Bu qismga refleksiv va amaliy-faoliyatning shakl va metodlari – so'rovnomalar, “O'z-o'zini tahlil qilish xaritasi” bilan ishlash, turli didaktik masalalarni echish, matnlar ustida ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Shuningdek, modul ishlanmalarda: 1) moduldagi tegishli blokning; 2) o'qituvchi faoliyatining; 3) o'quvchilar faoliyatining maqsadlari alohida ko'rsatib beriladi.

Modulli ta'lim tizimi xilma-xil turdagi madaniy, ijtimoiy va ta'limiy vazifalarning o'zaro aloqasi, moslashuvchan pedagogik vositalarning qo'llanishi, o'quvchilarning madaniy qadriyatlarni pedagogik qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'zlashtirishi, bilim olishning o'z hayotidagi o'rnini anglatish hisobiga erishiladi. Ushbu vazifalarni hal etishga:

- muammoli topshiriq va savollarning qo'llanishi;

- pedagogik voqelikda dars jarayonida uchraydigan voqea-hodisalarning tahlil etilishi;

- amaliy mashg'ulotlarning turli shakllarda (fikr almashinuvi, illyustrasiya, refleksiya, “intellektuallar uchrashuvi”) o'tkazilishi – badiiy asarlar matnlari bilan ishlanishi topshiriqlarning murakkablik darajasiga ko'ra tabaqalashtirilishi yordam berdi.

Shularni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishda quyidagi natijalarga erishish mumkin degan xulosaga keldik:

1. Modulli o'qitishning imkoniyati – materialni “dozalash”, ta'lim oluvchilarning individual o'ziga xosliklari va qobiliyatlari bilan birlashtirish, materialni maxsus tanlab olish, axborot-bilish va ta'limiy vazifalarning birlashishi, majburiy baholash tamoyili, unga katta qo'zg'aluvchanlik, moslashuvchanlik, xilma-xillikni taqdim etilishi kasbiy amaliyot va madaniy hamda ijtimoiy-pedagogik reallikka bakalavr-talabalarini mustaqil olib kirishga taqriban ta'limni yuqori darajada tashkil etilishiga imkon beradi.

2. Modulli o'qitish, pedagogik ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- mustaqil fikrlash motivatsiyasi (qiziqtirish) asosida, boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

3. Fanlar bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi.

4. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

5. Mazmunan fanlar asosida tashkil etilgan fanlararo modulli o'qitish tizimi umumkasbiy blok bilan madaniy-ijtimoiy fanlar blokini “birlashtirish” vazifasini amalga oshiradi.

6. Fanlararo modulli o'qitish jarayonida kasbda va ijtimoiy muloqotda yangi faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga faol munosabatni shakllantirish, motivasion darajasi va mazmunini oshirish, modulli ta'lim doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakatlarini faollashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 214 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni. 1997. – 31-61-b.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 24 b.
4. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” – Toshkent, “Sharq”. 1997 y
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent, “Sharq” 1998 y. 6 –bet.
6. Karimov I.. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanyada yuksaltirishdir. Toshkent, “O'zbekiston”, 2010 y.48-75 betlar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, “O‘zbekiston”, - 2012 y. 440 bet
8. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi. “XXI asr” gazetasi, 2011 yil 36-son 1-bet.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
6. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2001. – 68 s.
7. Avliyakov N.X. Prakticheskiye osnovi modulnoy sistemi obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. O‘quv qo‘llanma – Buxara: 2001. - 99 s.
8. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari. O‘quv metodik qo‘llanma. - T.: Yangi asr avlodi, - 2003. – 88 s.
9. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskoye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. – Tashkent: Moliya, 2002.
10. Belouxin D.A. Osnovi lichnostno-oriyentirovannoy pedagogiki. -M.: Voronej, 1997. – 92 s.
11. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. - M: Nauka, 1989. – 192 s.
12. Bondarevskaya YE.V. Gumanitarnaya paradigma lichnostno-oriyentirovannogo

obrazovaniya // Pedagogika. – 1997. - №4. – S.11-14.

13. Borodina N.V., Samoylova YE.S. Modulnaya texnologiya v professionalnom obrazovanii: Uchebnoye posobiye. - Yekaterinburg.: UGPPU, 1998. -27 s.

14. Davletshin M.G. Modul texnologiya obucheniY. – T: TGPU, 2000.

15. Kaldibekova A.S. Modulli ta’lim texnologiyasi va uning o’ziga xosliklari. // Sb.nauchno-metodicheskix 24 chastyax. CH.6. – 228 b.

16. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. - M: Znaniye, 1989 - 80 s.

17. Lavrentev G.V. Slagayemiye texnologii modulnogo obucheniY.- Barnaul, Izd.Altayskogo gos.un-ta, 1994. - 108 s.

18. Maxmutov M., Ibragimov G.I., Ushakov M.A. Pedagogicheskiye texnologii, razvitiye mishleniya uchashixsY. – Kazan: 1993 – 88 s.

19. Nazarova T.S. Pedagogicheskiye texnologii noviy etap evolyusii. – M.: Pedagogika. 1997. - S. 20-26.

20. Nishonaliyev U. N. Modulniye pedagogicheskiye texnologii.- Professionalnoye obrazovaniye. M: 2002. - № 14. - S. 10-12.

21. Nuriddinov B.S. Kasb ta’limi o’qituvchilari malakasini oshirishda faol o’qitish metodlaridan foydalanish: Ped.fan.nomzodi. ...diss. Avtoref. – T., 2002, 13- bet.

22. Pedagogika: pedagogicheskiye teorii, sistemi texnologii. Pod red. Smirnova M: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1999. - 544 s.

23. Pedagogicheskaya texnologiya / Pod red. Kukushkina V.S. – Seriya «Pedagogicheskoye obrazovaniye» - Rostov. Izdatelskiy sentr Mart,2002.-320 s.

24. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta’lim markazi, 1999. – 55 b.

25. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari. –T.: RTM, 2000. – 46 b.

26. Saliyeva Z. Pedagogika kollejlari o’quv jarayoniga ta’limiy texnologiyalarni tatbiq etish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti,2009. – 48 b.

27. Selevko G. K. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii.- M., Narodnoye obrazovaniye, 1998. – 130 s.

28. Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov na-Donu. Feniks, 2003. – 274 ctr.

29. Farberman B.L. Progressivniye pedagogicheskiye texnologii. - T: Fan, 2002. - 130 s.

30. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo’lajak

o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – 135 b.

31. Yussyavichine L.A. Teoriya i praktika modulnogo obucheniY.- Kaunas: Shviyesa, 1989.

32.K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili kitobi 2- sinf uchun. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010, 128.

33.G'afforova T., G'ulomova X. Ona tilidan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2001. - 10 bet.

34.G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. -112 b.

35.G'afforova T., Nurillaeva Sh. «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar». Qarshi «Nasaf», 2003 y.

36.G'afforova T., Nurillaeva Sh., Haydarova O. «Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari uchun didaktik materiallar». Toshkent, «Ilm-ziyo», 2003 y.

37.G'afforova T.va boshqalar. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2003 y.

38.G'afforova T.va boshqalar. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2003 y.

39.G'afforova T.va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. Toshkent, «Sharq», 2003 y.

40.G'afforova T.va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2012 y.

41.G'afforova T.va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, «Sharq», 2012

42.Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.

43.Haydarova O.Q.Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.

44.www.pedagog.uz

45.www.edu.uz

46.www.ziyo.edu.uz

47.www.gov.uz

48.www.ziynet.uz

49.www.istedod.uz

50.www.cer.uz

51. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>

52. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>

53. “**Ziyo NET**” axborot – ta’lim tarmog‘i ([www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

ILOVALAR

O'qituvchilarga berilgan anketa sabollari:**MUHTARAM O'QITUVCHI!**

Sizdan o'qituvchining faoliyatiga taalluqli bir qancha savollariga javob berishingizni iltimos qilamiz. Shuni bilingki, Siz bergan javoblar faqat ilmiy maqsadlar uchun foydalaniladi. Deyarli hamma savollarning ba'zi javoblari berilgan. Sizning mulohazalaringizga to'g'ri kelgan javoblarning raqamlarini doira ichiga oling yoki tagiga chizing. Shuningdek, javoblarni to'ldirish ham mumkin. Buning uchun bo'sh joylar qoldirilgan.

- 1.Sizning yoshingiz ?_____yosh.
- 2.Jinsingiz? 1.Erkak. 2.Ayol.
- 3.Ishlayotgan maktabingiz?
 - 1.O'rta umumiy ta'lim maktabi.
 2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabi.
 - 3.Lisey.
 4. Kasb-hunar kolleji.
 - 5..Maxsus maktab.
 - 6._____
- 4..Maktabingizda siz bajarayotgan vazifangiz?
 - 1.Direktor.
 - 2.O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.
 - 3.Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi (direktor o'rinbosari).
 - 4.O'qituvchi.
 - 5.Sinf rahbari.
 - 6.Bosh etakchi.
 - 7._____
- 5.Umumiy mehnat stajingiz?.....
- 6.Pedagogik stajingiz?
- 7.Zamonaviy ta'limni qanday tushunasiz?
 - 1.Yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish.
 - 2.Chuqurlashtirilgan bilim berish.
 - 3.Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish.
 - 4.Ta'lim mazmuniga o'zgartirishlar kiritish.
 - 5._____
 - 6._____
- 8.Noan'anaviy darslarga qanday qaraysiz?

1. Ijobiy.

2. Bunday darslarda maqsad aniq emas.

3. Bunday darslar menga yoqmaydi.

4. Bunday darslar zamon talabi.

5. _____

6. _____

9. Pedagogik faoliyatingizdagi muvaffaqiyatlar nimaning natijasi?

1. Chuqur ilmiy bilimlar.

2. Faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish.

3. Tadqiqot.

4. Modulli ta'lim texnologiyasi.

5. O'z ustida muntazam ishlash.

6. Vaqti-vaqti bilan qayta tayyorgarlik ko'rish.

7. Yaxshi pedagogik jamoaning mavjudligi.

8. Bo'sh vaqtning ko'pligi.

9. Aqliy va ruhiy sog'lomlik.

10. Ish haqiga qiziqish, moddiy rag'batlantirish mavjudligi.

11. Ota-onalar bilan aloqa.

12. O'quvchilar bilan ma'naviy yaqinlik.

13. Boshqa sabablar

10. O'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab ishlashi uchun qanday imkoniyatlar bo'lishi kerak deb uylaysiz?

1. Maqsadning aniqligi va natijaning kafolatlanganligi.

2. O'qituvchiga erkinlik berish kerak.

3. Dastur, darsliklarni tanlash imkoniyati bo'lishi zarur.

4. Moddiy rag'batlantirish kerak.

5. Maoshini va mas'uliyatini oshirish kerak.

6. Maktabning o'quv-moddiy ta'minoti yaxshi bo'lishi kerak.

7. _____

8. _____

11. Modulli ta'lim texnologiyasidan o'z faoliyatingizda qo'llaysizmi?

1. Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman.
 2. Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman shekilli.
 3. Qancha intilsam ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ish chiqmayapti.
 4. O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlay olmayman
 11. Bu savolga javob berishga qiynalaman.
 12. Pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning mohiyati nimada?
 1. Metodik o'tkirlik fanni o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish
 2. Modullarga bo'lish va ajratishni to'g'ri belgilash.
 3. Pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish.
 4. Psixologik-pedagogik bilimlarni to'g'ri qo'llash.
 5. Dars loyihasini tuza bilish.
 6. O'quvchilarni tushuna bilish, ularning qalbiga yo'l topa bilish .
 13. O'qituvchining qaysi sifatlarini yuqori baholaysiz?
 1. Chuqur bilimga, keng ma'lumotga ega bo'lish.
 2. Pedagogik ishda texnologik yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish.
 3. Pedagogik mahorat.
 4. Kuzatuvchanlik, pedagogik vaziyatlarni tushuna bilish va ijodiy hal qila bilish.
 5. Bolalarni sevish.
 6. O'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga nisbatan talabchanlik.
 7. O'quvchilar bilan umumiy til topa bilish.
 8. Yangiliklarni seza olish.
 16. _____
 17. _____
 14. Maktabingizda nechta o'qituvchi bor? _____ ta
- Sizningcha shulardan nechitasi o'z faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etib ishlaydi? _____ ta
15. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligini qanday tushunasiz?
 1. O'qituvchi ta'lim jarayonida hukmron, o'quvchi bo'ynsunishi lozim.
 2. O'qituvchi va o'quvchi erkin muomala qilish kerak.
 3. O'quvchi xususiyatini bilib muomala qilish kerak.
- Iltimosimizni bajarganingizdan cheksiz minnatdormiz!

**O'qituvchiga uning kasbdoshlari bergan bahoni aniqlash uchun
tarqatilgan varaqa**

1.Modulli ta'lim asosida ishlaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	Modulli ta'lim asosida ishlamaydi
2.Dars loyihasini oqilona ishlab chiqadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars loyihasini ishlashga qiynaladi.
3.Dars maqsadini aniq belgilaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars maqsadini aniq belgilay olmaydi.
4.Dars maqsadini o'quv-chilar yaxshi biladi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'quvchilar darsning maq-sadini tushunmaydi.
5.Darsning natijasida maqsadga erishadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Darsning natijasida maq-sadga erisha olmaydi.
6.Dars algoritmini yaxshi ishlab chiqadi	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars algoritmini yaxshi ishlay olmaydi.
7.Modul dastirini yaxshi ishlab chiqadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Modul dastirini yaxshi ishlab chiqa olmaydi.
8.O'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini yaxshi tashkil etadi	<u>2 1 0 1 2</u>	Ўқувчиларнинг ўқув билиш фаолиятини ташкил эта олмайди.
9.Har bir o'qivchining oldida modul ishlanmasi va yo'llanma turadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'qivchilarning oldida modul ishlanmasi va yo'llanma qo'yilmaydi.
10.Nutqi ravon, sof adabiy tilda gapiradi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Nutqi ravon emas, shevada gapiradi.
11.O'z faoliyatini tanqidiy baholay bi-ladi, xatolar ustida ishlaydi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'z faoliyatini tanqidiy baholay olmaydi, xatolar ustida ishlamaydi.
12. Pedagogik mahorat egasi	<u>2 1 0 1 2</u>	. Pedagogik mahoratga ega Emas.
13.Darsda texnika vositalaridan foydalanadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Darsda texnika vositalarini qo'llashni билмайди.
14.O'zini to'g'ri baholaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	O'zini yuqori baholaydi
15.Har qanday vaziyatning echimini tez topadi	<u>2 1 0 1 2</u>	Og'ir vaziyatlarda echimni bilmaydi
16. Darsda qiziqarli o'yinlar tashkil qiladi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Darsda qiziqarli o'tmaydi.

17. Dars texnologiyasini
yaxshi ishlab chiqadi.

2 1 0 1 2

Dars texnologiyasini yaxshi
bilmaydi.

3 -ilova

**ANIQ MODULLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN
O‘QISH DARSINING ISHLANMASI.
(1 sinf)**

Mavzu: O‘zbek xalq ertagi «Rostgo‘y bola».

Maqsad: To‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko‘nikmasini mutahkamlash, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish.

O‘quvchilar shaxsida to‘g‘ri so‘zlik, rostgo‘ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori: Biz nimaiki qilmaylik,

Barchasi zarur, kerak.

Bilim egallash uchun

Tinimsiz o‘qish kerak.

1 – modul.

Uyga vazifani tekshirish.

“Maymun va duradgor” haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o‘quvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni o‘qib, mazmunini so‘zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o‘quvchilarning javoblari to‘ldiriladi.

2 – modul.

Quvnoq daqiqa.

O‘qituvchi: Yaxshi o‘qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

«Choyni sovit»

«Gulni hidla»

«Sharni shishir»

«Changni hayda».

2) Ovoz mashqi: tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

- Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz.

Yaxshilab e'tibor qiling:

To'g'ri so'z bola. H.H.Niyoziy.

(Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,

To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi biri:" Tanga berurman sanga

So'zla bir og'izgina yolg'on manga"

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:

"so'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur

Tangaga yolg'onni kim olg'on erur".

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

b	r	o	s	t	g	o'	y	b	r
o	o	b	o	l	a	ya	o'	o	o
l	s	yo	l	g'	o	n	r	l	s
a	t	a	n	g	a	k	k	a	t
r	g	k	i	sh	i	a	k	o	g
o	o'	m	a	k	t	a	b	yu	o'
s	y	s	o'	z	i	ng	i	z	y
t	o	g'	i	z	g	i	n	a	a
g	l	a	r	o	s	t	g	o'	y
o'	y	s	a	n	g	a	k	i	m

- rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim.

3 – modul.

Skanerdagi so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og'izgina yolg'on, rostgo'y bola, yolg'onchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu so'zlar vositasida ertak tuzib beradi.Bolalar o'zlaricha tuzgan ertaklarini so'zlab beradilar.

Bugungi o‘tadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar(Bo‘lmasa o‘qituvchi ertak nomini aytadi: “Rostgo‘y bola”). Kelinglar endi ertakni eshitib ko‘ramiz. Unda ba‘zi notanish so‘zlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qo‘yilgan bo‘lishi ham mumkin)

Podshoh – yurtning boshqaruvchi kishi.

Vazir – podshohning yordamchisi.

Tadbir – o‘ylab qilingan ish.

Xomush – xafa.

4 – modul.

Ertakni o‘qituvchi tomonidan o‘qish, ma‘lum bir qismini o‘quvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolg‘on gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (O‘quvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? O‘qituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida o‘quvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, “Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir”... qolganini o‘quvchilar davom ettiradilar).

5 -modul.

Mustaqil o‘qish.

Usul: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga ovoz chiqarib o‘qiy boshlaydi (o‘quvchilar faqat ko‘z bilan o‘qiydilar), o‘qituvchi jim bo‘lib, o‘qishni ichida davom ettiradi, o‘quvchilar esa ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin yana o‘qituvchi ovoz chiqarib o‘qiydi, o‘quvchilar ko‘z bilan o‘qiydilar va shunday o‘qish ertak oxirigacha davom etadi

O‘qish oldidan topshiriq: xattaxtaga yozilgan so‘zlarni ertakda berilganday izchillikda, so‘zlar qo‘shib yozing:

1. Qadimda.
2. podshoh bo‘lgan.
3. Xomush bo‘lib yurgan.
4. Vazirning maslahati.
5. gul urug‘i.
6. farzand qilib olmoqchi.
7. vaqt o‘tibdi.
8. shahar aylanibdi.
9. gullarni ko‘rib o‘taveribdi.
10. ko‘zi tushibdi.
11. gullar qani?
12. qaynattirgan.

6 – modul .

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

- Ertak qahramonlari kimlar?

- Quyidagi soʻzlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yoʻq, gul urugʻi tarqattiribdi. (podshoh).

- Yaxshi farzand topish yoʻlini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)

- Qanday yoʻl bilan rostgoʻy, aqlli bola tanlandi?

- Keyin nima boʻldi?

- podshoh gul urugʻini nima qilgan ekan?

- Quyidagi hikmatli soʻzlardan qaysi biri ertak mazmunini toʻldiradi?

1. Boshingga qilich kelsada rost gapir.
2. Yolgʻonning umri qisqa.
3. Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.
4. Toʻgʻrilik baxt keltirar.

(Toʻgʻri gapirgani uchun bola podshohga farzand boʻldi.).

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, oʻquvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham boʻlishi mumkin) kabi guruhlariga boʻlinib markazlarda ishlaydilar.

Oʻqish markazi: «kitoblar olami».

1 guruh – oʻquvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi koʻrsatilgan qismni oʻqib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga boʻlinadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qogʻozlarga yopishtiriladi. Oʻquvchilar boʻlingan matnni tiklab, toʻliq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh – tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qoʻyish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir oʻquvchining daftarida qahramonlar xislatlariga tegishli soʻzlar yozilgan: farzandi yoʻq, xomush, koʻp bolalarni koʻrdi, gulsiz tuvak ushlab oʻtirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni oʻqib, kimga tegishliligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yoʻqligini aniqlang (vazirga tegishli gap yoʻq). Oʻzingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo‘ladi:

Xomush podshoh .

Aqlli vazir.

Rostgo‘y bola.

Yolg‘onchi bolalar.

Gulsiz tuvak.

Prezentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o‘z ishlarining yakuni haqida so‘zlaydilar.

O‘qituvchi: Qarang xattaxtamizda

Hosil bo‘ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida- alohida aytiladi.(bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g‘oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

- Bu darsdan qanday yangilik o‘rgandingiz? Sizga nima yoqdi? Nima sizga yoqmadi, siz qanday bo‘lishini xohlar edingiz?

4- ilova

O‘qish (2 sinf)

Modulli o‘qish darsi

Mavzu: «Ta’zir» (Xudoyberdi To‘xtaboyev)

Maqsad:

Ta’limiy: modulli o‘qish metodikasidan foydalangan holda yangi mavzu bilan tanishtirish, asar mazmunini to‘liq tushunib olishlariga, ifodali o‘qish malakalarini o‘zlashtirilishiga erishish.

Tarbiyaviy: O‘zber xalqining milliy xususiyatlaridan biri kattalarni hurmat qilish, ularga yordam berish kabi ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Ongli, to‘g‘ri o‘qish malakalarini rivojlantirish. Ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish bilan birga mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish. Dars jixosi: Individual modul-jadval, tayyorgarlik signallari, rasmlar, Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlaridan ko‘rgazma.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

1-Modul, 1- topshiriq

1) Psixologik gimnastika

Har bir kun, har bir soat

Yangilik olib kelsin.

Yaxshilik sizga hamroh,

Aqlingiz mayoq bolsin.

- **Bu soʻzlar bugungi darsimiz shiori boʻladi.**

2) Oʻqiganda toʻgʻri nafas olish va aniq talaffuz qilishni rivojlantirish.

- nafas gimnastikasi (”gulni hidlash”, ”shamni oʻchirish”, ”shar shishirish”)

- Soʻzlash mashqi (sheʼr ustida ishlash, xattaxtada yozish)

Yaxshi boʻlish osonmas

U boʻy ham tanlamaydi.

Rangga bogʻliqmas biroq -

U shirinlik, holvamas

- Koz bilan oʻqish;
- Ovozsiz, ichda oʻqish;
- Shivirlab oʻqish;
- Baland ovozda, tez, aniq, ravon oʻqish.

II. Mavzu ustida ishlash

2-Modul, 1,2- topshiriqlar

1) **Muallifning hayoti va ijodi koʻrgazmasi.**(Koʻrgazmada X.Toʻxtaboyevning bolaalar uchun yozgan asarlaridan qoʻyiladi)

Muallifning qaysi asarlarini bilasiz?

Bobom qurgan koʻprik, Sariq devni minib, Erkacholning oʻrigi, X.Toʻxtaboyev

- Siz bu muallif haqida nimalarni bilasiz?
- Muallifning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
- Biz koʻrgazmada qoʻygan kitoblardan muallif asarlarini oʻrganishingiz mumkin.

2) Prognostika ishlari.

- Asarda nima haqida gap boradi?

Topshiriq: Muhokama qiling va asar janrini aniqlang.

- Asardagi qahramonlarning ketma-ketligini aniqlang.

(Hikoya o‘qilgandan keyin xattaxtda qahramonlarning illyustrasiyalari ilinadi)

- O‘qituvchi hikoyani o‘qiydi, o‘quvchilar tinglaydilar.
- Sizga hikoya yoqtimi?
- Bahromjonning harakatlarini qanday baholaysiz?
- Kim haq deb o‘ylaysiz?
- Leksik ishlar o‘tkaziladi.

Mazmun ustida ishlab, o‘quvchilar bilimini faollashtirish. (juftlikda ishlash)

- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
- Bahromjonning qaysi ishi Sizga yoqmadi?
- Hayotda shunday ishlar bo‘lib turishini kuzatganmisiz?
- Bahromjon nima uchun birdan o‘zgarib qoldi?
- Bivisi Bahromjonga qanday saboq berdi?
- Quyidagi maqol nimani anglatadi: Yaxshilik nur keltirar,
- Yomonlik – zulmat
- Hikoya qahramonlariga baho bering.
- Buvi nimani o‘yladi?
- Bahromjon xatosini qanday tushundi?

Tez o‘qish mashqi. (musobaqa tarzida o‘tadi).

Модуль 3, задание 1

- Modul tablitsasiga murojaat qilamiz. Vazifa: Hikoya mazmuni ustida ishlash uchun vazifalarni tanlang.
- 9-vazifa (ichda o‘qish), 8 (shivirlab o‘qish), 7 (juftlikda o‘qish), 5(diktorlarga taqlid qilib o‘qish).
- Mimik mashqlar.

(O‘qituvchi hikoya qahramonlari rolini bajarib berishni topshiradi.)

- Yana modul tablitsasiga murojaat qilamiz va shu asosda ishimizni davom ettiramiz. (Juftlikda ishlash: hikoyani o‘qish va birbiriga uning mazmunini gapirib berish, muammoli savollar berish).
- Tanlab o‘qish. (gaplarning mazmuniga qarab tanlab o‘qish)
- Har bir qahramonning xarakteri, ovoz tempi, hayajonli replikalarni tanlab o‘qish.

Rollarga bo‘lib o‘qish.


Muzikali relaksatsiya

(Chiroyli engil musiqa ovozi. O‘qituvchi asta, tinch ovoz bilan bolalarni o‘zlarini bo‘shashtirib, dam olishlarini aytadi.)Markazlarda ishlash.

O‘qish markazi– rollarga bo‘lib o‘qish. Ro‘yxatdagi shaxsiy sifatlardan hikoya qahramonlarini xarakterlovchi sifatlarni ajrating.

Dramalashtirish markazi – hikoya insserovkasini yaratish.

Tadqiqot markazi – «Кластер» tuzish.



Markazlarning prezentatsiyasi.

Рефлексия

- Quyidagi maqollardan qaysi biri hikoya mazmunini ifodalaydi?

Odob – insonga husn.

Odobli bola elda aziz

Odob bilan baxt topilar,

Sabr bilan –taxt.

Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.

Одоб-кишининг зеб-зийнати.

Каттага ҳурматда бўл,

Кичикка иззатда бўл.

Қадр қилсанг, қадр топасан.

O‘quvchilar maqollarni tanlab. Uni izohlaydilar.

- Dars qiziqarli bo‘ldimi? Unda keling darsga baho beramiz. Darsni yaxshi deb hisoblaganlar xattaxtdagi ko‘rgazmali qurolning cho‘ntakchalariga yashil doirachalarni soladilar, darsga qiziqmaganlar esa sariq doirachalarni tanlab, cho‘ntakchaga joylaydilar. O‘quvchilar xattaxta oldiga kelib, topshiriqlarni bajaradilar.
- O‘qituvchi:

Mehnat qilsang, ko‘ksing tog‘,

Hurmat qilsang, diling chog‘.

III. **Uyga vazifa** (Matnni ota-onasiga o‘qib berish va muhokama qilish)

6-модул, 1- topshiriq

Hikoyaning rejasini tuzish va shu reja asosida qayta hikoya qilishga tayyorlanib kelish.
Ijodiy ish daftarida: hikoyadan olgan taassurotlari asosida rasm chizish.

JO'RAYEVA NARGIS NORQULOVNA

Boshlang'ich sinflarda darslarni integratsiyalash texnologiyasi

5A 111701– «Boshlang'ich ta'lim»

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S Y E R T A S I Y A

Илмий раҳбар: DOTS. T. G'AFFOROVA

Qarshi - 2013 y.

I– bob. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Boshlang‘ich ta’limda modulli ta’lim texnologiyalarni joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari	13
1.2. Boshlang‘ich ta’limda modulli ta’lim texnologiyalarni qo‘llashning mavjud ahvoli.....	25
II – 6o6. MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLI YO‘NALISHI.....	38
2.1. Modulli o‘qitish tushunchasining mohiyati va tavsifi.....	38
2.2. Modulli ta’limni tashkil etish tamoyillari.....	43
2.3. Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasi.....	52
III – 6o6. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SHAKLLARI VA METODIKASI.....	61
3.1 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta’limning mohiyati.....	61
3.2. Boshlang‘ich ta’limda modulli ta’lim texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajriba – sinov ishlari.....	67
Xulosa.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	78

Kirish.

Bugungi kunda har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini uning intellektual salohiyati hamda kadrlarni tayyorlash sifati bilan o'lchanadi. Bu haqida davlatimiz rahbari Oliy majlisning IX sessiyasida (1997 y., 29-avgust) so'zlagan nutqida juda o'rinli ta'kidlagan edi: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamaiz anglab yetmoqdamiz"¹. Butunjahon muammosiga aylangan kadrlar tayyorlash sifatini zamon talablariga moslashtirish bizning respublikamiz uchun ham o'ta dolzarb hisoblanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi" - deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Davlatlararo qattiq raqobat mavjud bo'lgan davrda har bir mamlakat barcha sohada raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladi. Davlatning iqtisodiy, texnik rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bular: mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, uning geografik joylashuvi, ta'lim tizimi, tarixi va boshqa ko'p omillardir. Lekin mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalana oladigan, davlatning tarixiy rivojlanishini belgilab beradigan (tarixni o'z qo'li bilan yaratadigan), davlat iqtisodiyotini boshqaradigan, yangidan-yangi texnikani yarata oladigan, mavjud ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan omil bu albatta, inson omilidir. Shunday ekan, aynan inson omili, boshqacha qilib aytganda, inson resursi mamlakat rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydi. Demak, O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishida ham inson omilining o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimi oldida katta vazifalar qo'yilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. O'quvchilarni bugungi kun talabi asosida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir. Bunday murakkab va muhim jarayonni amalga oshirishda ustoz-murabbiylar o'rnini beqiyosdir. Aynan ta'lim sohasida iqtisodiyotimizning barcha sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasi davlat siyosatining ustivor sohasiga aylandi.

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B.5.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Maktab ta’limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi”ning ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta’lim maktab bosqichini va 3 yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim bosqichini o’z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta’lim tizimi yaratildi.”¹

Endigi vazifa bu tizimni taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdir.

Prezidentimiz I.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir” mavzusidagi Vazirlar mahkamasining majlisidagi nutqida “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog’lom o’sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo’lgan, uyg’un rivojlangan insonlar bo’lib, XXI asr talablariga to’liq javob beradigan barkamol avlod bo’lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz,”² - degan edi. Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e’tibor ta’lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta’lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta’limi olgiga qo’yilgan muhim vazifalardir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o’quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o’quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o’zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi.

Darhaqiqat, o’quvchilarda mustaqil fikr shakllanmasa ular hayotdagi har xil muammolar echimini topa olmaydilar, ularda mustahkam e’tiqod ham shakllanmaydi. Bu haqda O’zbekiston Prezidenti I.Karimov Kadrlar tayyorlash milliy dasturini yaratish bo’yicha respublika komissiyasining majlisida so’zlagan “Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir” nutqida (1997 yil, 7 iyun) “Mustaqil fikrga ega bo’lmagan odam har qanday olomonga ergashib ketaveradi. Masalaning eng muhim jihati aynan mana shundadir”, – degan edi.³

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi yoshlarga bo’lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo’lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo’ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli, barkamol shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero,

¹ I.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir”. Toshkent, 2010 y.48-bet.

² .Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir”. Toshkent, 2010 y.74-75-b.

³ Баркамол влод орзуси. Тошкент, “Шарк”НМАК, 1998й. 122-бет

o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda inson erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi zarur.

Mustaqil fikrlash borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi. Shu boisdan ham Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida: «... bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi, umuman maktablarda bolalar mustaqil fikrlashga o'rgatiladimi, aminmanki, o'rgatilmaydi...

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson mustaqil fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasalar, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»¹, - degan edi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin tafakkur yuritishga imkon bermaydigan eng yomon illat o'quv jarayonida o'qituvchining «hukmronlik» rolining saqlanib qolayotganligidir.

O'quvchining mustaqil fikrlashidan qanoatlanilmasa uning shahdini bo'g'ib, boshqacha usulda mushohada qilishga majburlashning nafidan ko'ra zarari ko'proq. Shuning uchun ham «O'zbekiston umumta'lim maktabi konsepsiyasi»da «o'quvchi xato qilishga haqli» deya ogohlantiriladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda demokratik muhit bo'lmasa bola erkin, mustaqil fikrlay olmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga munosabatlarda ezgu insonparvar yondoshuvga amal qilish lozim. Bular:

- o'qituvchi va o'quvchi huquqida tenglik darajasi;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy nuqtai nazar huquqi;
- bolalar huquqi konvensiyasiga rioya qilish.

O'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, muammolarni mustaqil ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan,

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. 15 b.

ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining teng hamkoriga aylansin.

Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi. Shuningdek, mustaqil fikr yuritadigan inson o'z-o'zini anglaydi, o'zining hatta-harakati va odamlar bilan munosabatiga tanqidiy baho bera oladi, umuminsoniy axloq normalariga rioya etadi, mustahkam e'tiqodga ega bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiya nima?

Bu haqida ko'pgina mualliflar o'z ta'riflarini berganlar. Bular:

BMT ning nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YUNESKO ta'rificha:

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo'llash tizimidir.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. Bospalko.)

M.Ochilov “Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir”, degan ta'rifni beradi.

Pedagogik texnologiyaga professor N.Saidahmedov: “Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni”- degan ta'rifni beradi.

Ta'lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta'lim jarayonida inson va texnika resurslaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muayyan tizimi. XTV “Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish” markazi ta'rif.

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq horijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlari bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsada, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, YUNESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyillariga alohida urg'u berilgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish ancha samaradorligi amalda isbotlanmoqda. Shunday ta'lim texnologiyalardan biri modulli ta'lim texnologiyasidir.

Modulli ta'lim texnologiyasi-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. U ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilish va tarbiyaviy soxalarini rivojlantirish, o'rganish faoliyatini boshqarish bilan birga o'z-o'zini boshqarish kabilarga keng imkoniyatlar yaratish bilan ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, unda ta'lim mazmuni bilan uni o'qitish texnologiyasi chambarchas bog'langan integrasiyaon jarayon bo'lib, u quyidagi texnologiyalar majmui orqali amalga oshadi: muammo algoritimli, dasturlashtirilgan, aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllantirish, to'liq o'zlashtirish va boshqalar.

Modulli ta'lim dunyo tajribasida qo'llanilib kelayotgan (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya) ta'limning samarali shaklidir. Lekin uning didaktik ta'minoti to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli keng tarqalmayapti.

“Modul”, lat. **“modulus”** so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

Modul – ta'lim mazmunining shunday bir yaxlit bo'lagiki, u ta'lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.

Modul tarkibi:

- ta'sirlarning maqsadli rejasi,
- axborot banki,
- didaktik maqsadga erishishga metodik rahbarlik.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi haqida chuqur mulohaza yuritilganda, mazkur masala bilan shug'ullanayotgan chet ellik olimlarning fikrlari bizni ham qiziqtirmoqda. Ayniqsa, G.G. Boguslavskaya, M.M. Zinovkina, V.G. Kinele,

N.B. Krilova, A.M. Novikovlarning ta'lim oluvchini kasbiy bilimni mustaqil egallashga o'rgatish haqidagi ilmiy fikrlariga qo'shilgan holda, K.Angelovski, G.I.Ibragimov, V.M.Klarin, M.I.Maxmutov, V.M. Monaxov, V.M. Morozov, P.I. Pidkasistiy, G.K. Selevko, J.Naisbitt, P. Aburdenelarning ta'lim muassasalariga innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali yuqorida aytilgan masalani hal qilish imkoniyatlarini ma'qullaymiz. A.N.Aleksyuk, S.Y.Batishev, R.S.Bekireva, A.S.Galisheva, A.N.Pichugin, M.A.Choshanov, P.A.Yusyavichenelarning o'qitishning barcha nazariya va konsepsiyalarining ichida blokli-modulli o'qitish eng texnologik o'qitish degan xulosalari diqqatimizni jalb etdi.

Ularning ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra, **blokli-modulli o'qitish** ta'lim jarayonini individuallashtirish, ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, o'quv axborotlarini differensiyalash, yangi sharoitga moslashgan holda qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, mustaqil o'qish **imkoniyatlarini** yaratadi. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, biz magistrlik dissertasiyamiz mavzusini **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish”** deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi – Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini asoslash orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti –Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini yoritish jarayoni olindi.

Tadqiqot predmeti – Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar modul, modulli ta'lim, modulli ta'lim texnologiyasi tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari aniqlashtirilsa; ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda foydalanilsa; modulli ta'lim texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonining samaradorligi ortadi.

Tadqiqotning vazifalari:

5. Mavzyga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o'rganish asosida modulli o'qitish tushunchasining mohiyatini asoslash.

6. Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillarini aniqlashtirish.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishining o'ziga xosliklarini ochib berish.

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasining amaliy-texnologik jihatlarini yoritib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli o'qitish texnologiyasining o'ziga xosliklarini ochib berildi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning amaliy-texnologik jihatlari yoritib berildi.

boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasining amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlandi;

3. Boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning yo'l va usullarini ishlab chiqildi;

4. Boshlang'ich sinfda modulli ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga doir tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, pedagogik kuzatish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkyp mavzyga oid qarash hamda yondashuvlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsys ta'lim Vazirligining qarorlari, buyruqlari, ta'lim texnologiyasi nazariyasi, bixeviorizm hamda shaxsni shakllantirish haqidagi falsafiy, pedagogik va psixologik ta'limotlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida pedagogika fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasiga doir nazariy yondashuvlar, fanlararo modulli ta'limni tashkil etishning amaliy-texnologik jihatlari bilan boyitiladi.

Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktabi, pedagogika kolleji o'qituvchilari, metodistlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining hayotga tatbiq etilishi va ma'qullanganligi: Tadqiqot bo'yicha 1 ta respublikam ilmiy nazariy anjumani, Qarshi davlat universitetida o'tkazilgan "Fan, taraqqiyot va yoshlar" mavzusidagi anjuman materiallarida ma'ruzalar tezisi chop etildi, "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida mavzuga doir maqola topshirdim.

Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi 19-, Beshkent shahridagi 13-,

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Ta'lim jarayonida modulli ta'limning o'rni va mohiyati;

2. Modul, modulli ta'lim, modulli ta'lim texnologiyasi tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'limdan foydalanishning ahamiyati;
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasining amaliy-texnologik jihatlarini yoritib berish;
5. Modulli ta'lim texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonining samaradorligi.

Tadqiqot ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi:

Tadqiqotning birinchi bosqichi 2011-2012 yillarda olib borildi. Bunda muammoga oid bo'lgan falsafiy, pedagogik, psixologik yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar o'rganib chiqildi. Shuningdek, mavzu nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Dastlabki kuzatish, muammoning mavjud holati bilan tanishish asosida tadqiqotning maqsadi, mazmuni, vazifalari belgilab olindi.

Ikkinchi tajriba bosqichi 2012-2013 yillarda o'tkazildi. Bu bosqichda tadqiqotning dasturi tuzib chiqildi, uning nazariy asoslari, mazmuni tajriba ishlarining shakl va usullari ishlab chiqildi. Tadqiqotning uchinchi bosqichi, ya'ni 2013 yilda tajriba natijalari umumlashtirildi.

Ishning tuzilishi. Dissertatsiya uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I– bob. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Boshlang‘ich ta‘limda modulli ta‘lim texnologiyalarni joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq xalq ta‘limi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Zero, bundan buyon “Ma‘naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta‘lim va maorifni yuksaltirish, milliy u‘yg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi”¹.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta‘limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta‘lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang‘ich ta‘lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma‘naviy rivojlanishiga yordam beradi.

O‘tgan qisqa davr ichida “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilinib, uning talablariga ko‘ra sinovdan o‘tkazilgan davlat ta‘lim standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi darsliklar yaratildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik texnologiya, axborot hamda innovasion texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘z faoliyatlarida qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlari kuchaydi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bosh maqsadga aylandi; o‘qitishning eng samarali, ayniqsa, noan‘anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari ortdi. Yangilanish borasidagi muvaffaqiyatlarni ko‘rsatish, kamchiliklarni aniqlash, bajarilmayotgan ishlarni belgilash dolzarb muammoga aylandi.

Mustaqil Respublikamizda komil inson tarbiyasi doimo Prezidentimizning diqqat e‘tiborida bo‘lib keldi. Jumladan, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar berkitib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi - deb ta’kidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov. Yana shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz milliy istiqlol g‘oyasini barchaga, shu jumladan, endigina shaxs sifatida shakllanib o‘sayotgan bolalarga qanday usullar yordamida singdirish mumkinligi juda nozik masala ekanligini qayd qilib o‘tadilar. Mustaqil

¹ Barkamol vlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 1998 3-bet.

O'zbekistonimizning yanada ravnaq topishida barkamol shaxsni, komil insonni har tomonlama tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q" asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif keltirganlar. "Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq - atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"². Ta'lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, mustaqil fikrlaydigan komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish qo'yildi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

Mustaqillik - eng ulug', eng aziz ne'mat. Ozodlik, hurriyat, erkinlik. Bu oliy tushunchani yurakdan his qilish, anglab yashash - buyuk saodat. Mustaqillik - xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon, hech kimdan kam bo'lmagan hayot kechirish imkonini bergani, yurtdoshlarimizning barcha sohalarda o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.

"Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida bosib o'tgan, oson kechmagan yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiydir. Yani bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakka-yu yagona to'g'ri qaror ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda", - deydi Prezidentimiz I. A. Karimov³. "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak"⁴, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosda ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama

¹ Karimov I.A. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент, "Ўзбекистон", - 2012, 440 бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент "Шарқ" нашриёти, 1998б 6-бет

³ Президент I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi "XXI asr" gazetasi, 2011 yil, 36-son, 1-bet.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008, 1-bet.

rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabidir. Shunga erishilsagina Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa modulli ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat, kasb etadi.

O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish qachondan boshlanadi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun insonning fikrlash jarayonining shakllanish bosqichlarini bilish lozim. Insonning fikrlash jarayoni hayotni, insonlarni, ular orasidagi munosabatlarni, tabiatni sezgilar yordamida kuzatish jarayonida shakllana boradi. Bola dunyoga kelgandan boshlab hayotni, kattalar faoliyatini, tabiatdagi voqea va hodisalarni ko'rib, kuzatib, ularni o'ziga o'zlashtira boshlaydi va natijada unda tasavvurlar paydo bo'ladi, nutq shakllanadi. Shuning bilan birgalikda bola sezgilari yordamida to'plagan ma'lumotlari asosida ko'plab tasavvur boyliklariga ega bo'ladi va uni tushunishga, anglashga intiladi. Shuning uchun ularda ko'plab savollar paydo bo'ladi. Masalan, *osmonda nima bor? Nega kecha va kunduz bo'ladi? Qushlar nega uchadi? Nega men kichkinaman? Nega ranglar xilma-xil? Nega yomg'ir, qor yog'adi? Ular qaerdan paydo bo'ladi? Bulut-chi? va hokazo.*

Bir onaning uch yarim yashar bolasi haqida so'zlab berganlari: "Bir kun bolam menga shunday savol berdi:

-Ona nega bizning burnimiz har xil? Meniki yassi, sizniki tik, opamniki yana boshqacha? Nima deyishni bilmasdan,

-Shunday yasashganda bolam, dedim.

- Kim yasagan, do'xtirlarmi? Ular kesib-kesib yopishtirishadimi?

- Yo'q, bolam, xudo yasagan.

- Xudo qanday yasaydi?

Xullas, bolam meni savol-javobda yengdi. Nima deb tushuntirishni bilmadim. Bolamni chalg'itishga harakat qildim. Bolam esa savol berishini to'xtatmas edi.

Darhaqiqat, maktabgacha tarbiya yoshida bolalar ota-onalariga tinimsiz savollar yolg'indiradilar. Ana shunday paytda bolaning savollariga chidam bilan javob berish uning fikrlashiga, voqea, hodisalarni anglashiga yordam beradi, nutqining o'sishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha ba'zi ota-onalar bu savollarga befarq qaraydilar yoki javob berishni lozim topmaydilar. Uni urishib tashlaydilar. Bu esa bolaning fikrlash jarayonini susaytiradi, uni befarqlikka yo'llaydi. Hamma narsa mening uchun emas, mening bilishim shart emas deb o'ylaydi, hamma voqea va hodisalarga befarq bo'lib qoladi.

Bolaning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqatga kirishib kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida shakllana boradi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operasiyalaridan o'rinli foydalanadi. (Ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, guruhlarga ajratadi, haqli xulosa chiqarishga harakat qiladi). Shunday qilib unda fikrlash bosqichi paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlash darajasi maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashadi. O'quvchining fikrlash darajasining takomillashuvida o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subektiga aylantirmog'i lozim. O'quvchilarni o'rganayotgan materiallari ustida fikr yuritishga, o'zining fikrini erkin bayon etishga o'rgatish ayniqsa muhim. Bunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta samara beradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan darsda o'quvchi faol qatnashadi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan erkin muloqotga kirishadi. Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiya o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantiradi. O'quvchilarni o'quv materiali ustida erkin fikr yuritishga imkoniyat yaratadi. Bu sohada modulli ta'lim texnologiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta samara beradi. Didaktik o'yinlar bolada o'qish motivini rivojlanishiga yordam beradi. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, didaktik o'yinlar jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildirib boshlaydi. Masalan, "Suratdagi xatoni top" o'yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Qish manzarasi tasvirlangan suratda daraxtning gullayotgani ham chizilgan bo'lsa, buni bola mustaqil topadi. Shu joyda uning tafakkuri ham ishga tushadi. Ya'ni o'rganganlari asosida har bir faslning o'ziga xosliklarini esga oladi va qishda daraxt gullamasligini asoslaydi. Xuddi shuningdek, "Bo'lishi mumkin emas", "Matndagi xatoni top" o'yinlari, rebus, boshqotirma

kabilar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, darslikdagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bola rasimga o'z munosabatini bildiradi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi, rasm asosida hikoya yozish topshirig'i berilsa, u o'z tasavvurlari asosida hikoya yozadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari keng va undan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchini matn ustida ishlashga yo'llash mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali usullaridan biridir. Bular:

- Matnni bo'laklarga bo'lish va har bir bo'lakka sarlavha topish.
- Mazmunni saqlab qolgan holda matnni qisqartirib o'qish.
- O'qituvchining savollariga matndan javob topib o'qish.
- Matndan eng chiroyli tasvirlangan bo'lakni o'qish.
- Matndagi bosh g'oyani bildiruvchi gapni topish.
- Ertak yoki masalni o'qiganda "Nima haqiqatga yaqin, nima o'ylab topilgan" mavzusida suhbat.

suhbat.

- Matndan xulosalarni topish.
- Eshitgan voqea yoki hodisaga o'z munosabatini bildirish.
- "Asardagi nima sizga yoqdi?" mavzusida suhbat.
- "Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, befarq).
- Siymolarni ifodalovchi so'zlarni topish.
- Tushunilmaydigan so'zlar ma'nosini aytib o'qish.
- Matnni mantiqiy qismlarga bo'lib ifodali o'qish va qismlarning biridan ikkinchisiga

navbat bilan o'tish.

- Voqea yoki hodisani so'z yordamida tasvirlash.
- Ijodiy qayta hikoya qilish:
 - bosh shaxs nomidan;
 - shaxsni o'zgartirib;
 - vaqtni o'zgartirib.

• Hikoyadagi voqea-hodisalar sodir bo'lishidan oldingi bo'lib o'tgan voqea-hodisalar yoki voqeaning davomi qanday bo'lishini qo'shib aytish.

- Hikoyadan tashqaridagi voqealar tasvirini qo'shish.

• Bosh qahramonni tavsiflovchi savollar: U kim? Tashqi ko'rinishi. Topshirilgan ishni bajarishda odamlar bilan munosabati. Sizning qahramonga munosabatingiz, hikoya qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi? Unga qanday maslahatlar bergan bo'ladingiz? kabi savollar.

- Reja bilan ishlash: reja tuzing, reja ketma-ketligini o'zgartiring, reja qismlarini to'g'rilang, gaplar mazmunini o'zgartiring.

- Maqolni to'ldiring.
- Rasmga qarab hikoya tuzing.
- Biror bir qahramon nomidan ... mavzusida hikoya tuzing.
- She'rni kim aytayapti?
- She'rda yashiringan sirni toping.
- Hikoyadagi voqealarni chizmada ifodalang.
- Hikoya, ertak yoki she'rda o'rganganlari asosida rasm chizish va shunga o'xshash topshiriqlar.

Boshlang'ich sinflar uchun tayyorlanadigan darsliklar ham matn oxirida beriladigan mashqlar, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llashi lozim.

Masalan, “She'rni kim aytayapti?”, “She'rga siz qanday qo'shimcha qila olasiz?”, “Hikoya (yoki ertak) qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi?”, “Hikoya qahramoniga qanday maslahat berasiz?” , “Ertak voqealari ichida bo'lishni xohlaysizmi?”, “Unda kim bo'lib qatnashishni xohlaysiz?” kabi savollar, “Matnni qismlarga bo'ling va har bir qismga sarlavha qo'ying”, “O'qituvchi yordamida matn rejasini tuzing”, “Reja asosida matnni qayta hikoya qiling”, “Matndagi qahramonlarni almashtirib qayta hikoya qiling” va boshqa shu kabi topshiriqlarni berish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ba'zi darsliklarni ko'zdan kechirganimizda matn oxirida beriladigan savollar matndagi o'rganganlarini qaytarib aytib berishga undaydi. Matnni o'qituvchi o'qib beradi, uning mazmunini so'zlab beradi, o'quvchilar o'qiydilar va mazmunini yana so'zlaydilar va oxirgi savollar ham yana shuni takrorlaydi. Bundan ko'ra matn ustida ishlashga, fikrlashga undovchi savollar berilsa bola matn ustida fikr yuritadi, mustaqil xulosalar chiqaradi. Bunday ish usuli esa o'quvchining tafakkurini o'stiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bugungi kunda ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Buni har bir o'qituvchi bilishi va Vatanimizning kelajagi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi kadrlarni tayyorlashda, albatta, ularni tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashga yo'llovchi yo'l va usullarni tinimsiz izlashi va uni ta'lim jarayoniga joriy etishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil eta olishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylilik hamda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega bo'lish kabi katta tajribani talab etadi. Zero, yosh avlodni, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasidadir.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar merosini o'rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo'ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo'l ochiladi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'molga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b). Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b)..

Yusuf Xos Hojib bolaga bilim berib hunar o'rgatishni ularning yoshligidan boshlash kerakligini ta'kidlaydi (O'rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: 1996. 159-b.)

Bolalarga kasb-hunar va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o'rgatish masalasi Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham ko'tarilgan. "Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kimga naf' etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur" (Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlool. 1994. 26- b).

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash, bolalarning xotirasini rivojlantirish, fikrlashga o'rgatishni ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil

narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi» (Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968. 106-107 b.).

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining o‘gitlarida har bir ishni boshlaganda butun diqqat, zehn va bor kuchni shu ishga qaratish lozimligini ta’kidlagan: «Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim» (. Amir Temur o‘gitlari. – T.: Navro‘z. 1997. 16- b.)

Amir Temur o‘z davrida qo‘l ostidagilarni tadbirkor, ishbilarmon, mamlakat obodonchiligi, el-yurt osoyishtaligi uchun hamfikir, hamsuhbat, yelkadosh bo‘lishlarini talab qilgan (. Amir Temur o‘gitlari. – T.: Navro‘z. 1997. 16, 39-40 b.)

Ulug‘ mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida maktab o‘qituvchilari mehnatiga baho beradi va uning mehnati ancha mashaqqat talab etishini tushuntiradi. (Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (Qalblar sevgisi) – T.: G‘afur G‘ulom. 1983. 28-29 b.)

Markaziy Osiyo allomalari merosida ilm va uni egallashdagi mahorat masalalari keng miqyosda talqin etiladi. Bunda albatta ilm o‘rgatuvchining muhim o‘rni ta’kidlanadi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, jahon talablariga mos tahsil oluvchilarni tarbiyalash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortlaridan ergashtira olish uchun bugungi ustozga qanday tartibda yordam berish mumkin? Ular uchun munosib ilmiy, uslubiy va ma’naviy muhit yaratilishining yo‘llari qay tarzda belgilanadi? Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirishda modulli ta’lim texnologiyasi barkamol insonni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Modulli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni mustaqil mutolaa qilish, bilim olish, erkin fikrlay olishga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Hozirgi davrda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, shunga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda o‘qituvchining o‘rni beqiyos. O‘qituvchining muntazam izlanishi, bilimni o‘rgatishning yangi va samarali yo‘llarini kashf etishi o‘quvchilar bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishlari, muhim amaliy ko‘nikma va malakalar egallashlarining omili bo‘la oladi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili, shuningdek, ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, pedagogik zukkolik, yangilikka intiluvchanlikning paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanishiga qiziqish tobora oshib bormoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish muammolari M.O.Ochilov, X.I.Ibragimov, U.N.Nishonaliev, Q.R.Shonazarov, H.Abdukarimov, D.X.Nasriddinova ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Pedagogik faoliyatning mohiyati, tuzilishi va mazmunining pedagogik ongda aks etishini K.Abduraxmonov, M.T.Gromkova, P.T.Kasavin, N.A.Sitnikova, M.Saidovlar tadqiq qilganlar.

Kasbiy mahoratning shakllanishi va pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlikni D.I.Arziqulov, R.Sh.Axlidinov, R.Z.Asamova, T.S.Derkach, S.F.erbak, M.Y.Ismoilova, B.X.Rahimov, B.R.Jo'raeva, K.M.Yuldashevlar o'rganganlar.

Pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari rus pedagoglari A.A.Andreev, V.P.Bespalko, M.T.Gromkova, M.V.Klarin, Mila Novik, amerikalik pedagog Bob Kizlik, o'zbekistonlik olimlar B.L.Farberman, N.Saidahmedov, M.Ochilov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, S.Ziyamuxamedova, B. Ziyamuxamedov, U.Tolipovlarning ishlarida bayon etilgan.

Lekin yuqoridagi ishlardan ko'rinib boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlariga kam e'tibor qaratilgan.

Modulli texnologiya umumlashgan universal tizim bo'lib, ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha optimal va mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu texnologiya quyidagi g'oya, prinsip va qoidalarni amalga oshiradi:

1. O'quv materialini, uni o'zlashtirish uchun taklif va topshiriqlar bilan birgalikda yirik blokli qilib tashkil etish.
2. O'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustaqil ishlab chiqilishini mo'ljallash.
3. O'quv faoliyati algoritmi (modul deb nom olgan o'quv metodik kompleks) va dastur (o'quv ishining ketma-ket topshiriq va bosqichlari) yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish.
4. O'qituvchi metodik tizimning ochiqligi (o'quvchilarga darsda bajariladigan ishlar rejasi va materialni o'rganish dasturi oldindan aytib o'tiladi).
5. Materialni o'zlashtirish darajasi, uni o'rganish shakli, joyi va tempini o'quvchilar o'zlari tanlab olishlari mumkin.
6. Uyga vazifa ixtiyoriy.
7. Har bir o'quvchining samarali bilim olish faoliyati uchun sharoit yaratish.
8. Nazorat mezon iva mazmuniga o'quvchilarni perspektiv yo'naltirish.
9. O'quvchiga va uning qobiliyatiga ishonch ko'rsatish.
10. Darsda, ish jarayonida erkin o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro yordam.
11. Bahosiz operativ nazorat.
12. Yakuniy nazoratga qarab natijani baxolash joriy natijalarning o'rta arifmetik xisobi emas.
13. Har bir o'quvchiga yakuniy natijani yaxshilash imkoniyatini berish.
14. Ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish.
15. O'quv jarayoni samaradorligini baxolashda o'quvchilar ishtirok etadi.

1.2. Boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashning mavjud ahvoli

Tadqiqotlarimizda ko'rsatib o'tilganidek, boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashning rivojlanishi o'qituvchi mahoratini shakllantirish jarayonini tubdan o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq. Bular modulli ta'lim texnologiyalarini tushunish va shu sohada bilimlariga tayanib ta'limni modulli texnologiya asosida darsni tashkil etish, o'quv predmetini modullarga ajratish, har bir modul o'rtasida aloqa vositalarini izlash, va kutiladigan natijaga erishishni kafolatlashdan iboratdir.

Biz boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni qo'llashda to'sqinlik qilayotgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan sabablarga asosiy e'tiborni qaratdik. Ta'kidlovchi kuzatish ishlari Qarshi shahridagi 19- maktab va Beshkent iahridagi 12- maktab va bir nechta boshqa maktablarda o'tkazildi. Kuzatishlarda Qarshi shahridagi maktab o'qituvchilaridan 100 nafar o'qituvchi qatnashdi. Bunda ta'kidlovchi kuzatishlar jarayonida anketa, kuzatish va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Avvalambor, oliy o'quv yurtidagi ta'lim tizimi ta'siri ostida pedagogik jarayonni bilish sabablarining rivojlanishini aniqlashga to'g'ri keldi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, talabalarning pedagogika o'quv yurtiga kirgunga qadar bu sohada egallagan bilimlari darajasi ancha past.

Talabalarning kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorgarligini qanday yo'nalishda tashkil etishni belgilash uchun pedagoglarga xos unumli va modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash shakllari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Faqat shundagina pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydigan o'qituvchilarning faoliyati sir-asrorlarini o'rganish zarur. Biz bu faoliyatning qay darajada samaradorligini taqqoslash, tahlil qilish orqali aniqlashga harakat qildik. Bizning fikrimizcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosidagi pedagogik mahoratni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

Birinchisi, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar kontingentining yangicha va samarali ishlash sirlarini o'rganib chiqish.

Ikkinchisi, pedagoglarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faolligini oshirish va aksincha, unga to'sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlash, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlashning yanada samaraliroq yo'llarini izlash. Mazkur masalalar bo'yicha to'plangan axborotlar maktab o'qituvchisi pedagogik faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari bilan boyitishda va uning samarali bo'lishiga yordam beradigan bir qator chora-tadbirlarni belgilab olishga yordam beradi.

Uchinchisi, tajribali o'qituvchilarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash sirlarining o'ziga xosligi, tuzilishidagi farqlari va xarakter xususiyatlarini chuqur o'rganish. Buni bilish o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faoliyatining

motivli asosini “tasvirlab” berishga, uni o‘z etaloni sifatida qabul qilishga, o‘qituvchi kasbiga qiziqishning o‘quv yurtidagi rivojlanish jarayonini bilish, yosh kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklarni ko‘rish, ularning amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga yordam beradi.

Tekshirishning bu uch asosi modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash motivlarining butun ko‘rinishini tasvirlab beradi. Shuningdek, o‘rganilgan ma’lumotlar o‘qituvchini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash faoliyatiga undaydigan kuch va shu harakatning rivojlanish yoki orqada qolish sabablarini aniqlashga asos bo‘la oladi.

Biz tadqiqotimiz davomida ushbu masalalarni yoritishga asos bo‘ladigan hujjatlarni to‘plashga muvaffaq bo‘ldik. O‘rganish jarayonida kuzatish, anketa, suhbat va tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Bizni qiziqtirgan ushbu tadqiqot ishlarida 50 nafar o‘qituvchi qatnashdi. Tadqiqotlarimizda qatnashganlar kontingentini uch guruhga bo‘ldik: pedagogik mohir o‘qituvchilar (14 kishi), 15 yilgacha stajga ega bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar (16 kishi) va 5 yilgacha stajga ega o‘qituvchilar (20 kishi). Mohir o‘qituvchilar guruhi ekspert metodi orqali tanlab olindi. Qolgan ikki guruhni tanlashda sobiq talabaning pedagog sifatida shakllanishi mumkin bo‘lgan vaqt orasidagi 5-6 yillik oraliq hisobga olindi. Ta’lim jarayonini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash asosida tashkil eta olgan o‘qituvchilar kontingentini o‘rganishni biz hozirgi zamon o‘qituvchisi faoliyatida modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash elementlari mavjudmi yoki mavjud emasmi degan savolga javob izlashdan boshladik.(1- ilova)

Bu o‘rinda biz masalani obektiv va subektiv tomonlarga ajratdik: pedagog o‘z faoliyatini modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash asosida tashkil etilgan deb hisoblaydi (yoki aksincha, tashkil etilgan emas deb hisoblaydi), ayni paytda bu faoliyat mutlaq qarama-qarshi xarakterga ega bo‘ladi. Bu holatni aniqlashdan maqsad o‘qituvchi o‘z harakati haqida noto‘g‘ri va salbiy xulosalar chiqarmasligi, balki faoliyatni yaxshi yo‘lga qo‘yishning yangi va samarali imkoniyatlarini izlash kerakligini tushunishdir.

1.2.1-jadvalda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining o‘z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash elementlari mavjudligiga bo‘lgan munosabatlarining subektiv holati tasvirlangan. (1.2.1 -jadval)

1.2.1-jadval

Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari mavjudligiga bo'lgan munosabatlari

O'qituvchilar kategoriyasi Javoblar	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yil-gacha	15 yil-gacha	Mohir o'qituvchilar
modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman	2,5	6,5	25,0
modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman shekilli	6,4	41,6	30,0
Qancha intilsam ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ish chiqmayapti	59,0	15,2	25,0
O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlay olmayman	15,1	31,0	5
Bu savolga javob berishga qiynalaman	17,0	5,7	15

Bu jadvalda quyidagicha qisqartirishlar berilgan “ 5 yilgacha” - 5 yillik ish faoliyatiga ega o'qituvchilar, “ 15 yilgacha” - 15 yillik ish faoliyatiga ega tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar, ya'ni, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega o'qituvchilar (bundan keyin “mohir o'qituvchilar” deb beriladi).

1.2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 5 yillik stajga ega bo'lgan o'qituvchilarning ko'pchiligi faoliyatlarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga intilsalarda, o'zlarini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlamayotganliklarini e'tirof etdilar. Yosh o'qituvchilarning ko'pgina qismi o'z ishlarini baholashni bilmaganliklari sababli yuqoridagi savollarga javob berishga qiynaldilar. Ishonchsizlik holatiga tushgan yosh o'qituvchilar soni esa ozchilikni tashkil etadi.

5 yildan 15 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan tajribali o'qituvchilar guruhining javoblari birmuncha o'zgacha. Bu toifadagi pedagoglar ancha aniqroq javob berganlar. Bularning orasida o'z faoliyatini baholay olmaganlar ozchilikni tashkil etadi. Bu guruh javoblarida qarama-qarshilik ko'zga tashlanadi. Ular yoki o'z mehnatlarini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil qilingan deb hisoblaydilar, yoki kelajakda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlash imkoniyatlariga umidsizlik bilan qaraydilar.

Uchinchi toifaga mansub pedagoglar mohir o'qituvchilar guruhini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi, asosan, o'z faoliyatlarini aniq baholay oladilar. Ushbu dalillarni ekspertlar (maktab direktori, tuman metodisti, jamoa fikri va shaxsiy kuzatishlarimiz) xuddi shu o'qituvchilarning faoliyatiga bergan baholariga asoslanib taqqosladik.

Mohir o'qituvchilarga baho berish bir oz murakkabroq kechdi. hattoki ekspertlar ham o'qituvchi faoliyatining haqiqiy xususiyatlarini aniqlashga qiynaldilar. Bu faoliyatning bir vaqtning o'zida ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida emasligini aniqlash murakkabdir. Ekspertlarning fikricha, mohir o'qituvchilar ikki guruhga bo'linadi: bular faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash elementlari mavjud bo'lgan o'qituvchilar va shuni qat'iy ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchilik kasbini noto'g'ri tanlagan, ushbu mehnat turiga xohishi, qiziqishi, qobiliyati bo'lmagan va faoliyati ochiqdan-ochiq reproduktiv xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyatini baholashda, shubhasiz ijobiy tavsif ustun bo'ladi.

Respondent o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni tushunishi 1.2.3- jadvalda aks ettirilgan.

1.2.2-jadval

Respondent o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mohiyatini tushunib yetishlari

Pedagoglar toifasi	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yilgacha	15 yilgacha	Mohir o'qituvchilar
Pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash ning mohiyati			
Metodik o'tkirlik fanni o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish	25,0	16,1	27,6
Modullarga bo'lish va ajratishni to'g'ri belgilash	15,0	20,9	10,4

Pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish	15,9	26,3	12,0
Psixologik-pedagogik bilimlarni to'g'ri qo'llash	27,1	16,5	27,0
Dars loyihasini tuza bilish	6,1	7,2	9,0
O'quvchilarni tushuna bilish, ularning qalbiga yo'l topa bilish	10,9	13,0	14,0

1.3.3-jadvalga asos bo'lgan manbalar har bir guruh pedagoglari tomonidan pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asoslarini va mohiyatini tushunishlarini ochib beradi.

Yosh o'qituvchilar modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik faoliyat qay darajada metodik ta'minlanganligi, psixologik-pedagogik bilimlarning to'g'ri qo'llanishida deb biladilar.

Tajribali o'qituvchilar o'z faoliyatlarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning ahamiyatini, metodik ta'minoti bilan birga pedagogik holatlarni chuqur tahlil qilish orqali tushunib yetish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydigan mohir o'qituvchilar uchun metodik ta'minlanganlik asosiy o'rinni egallaydi va modulli ta'lim texnologiyasini bilish, o'quvchilarga tushuntirish, ularga yetkaza olish, jalb qila bilishning ahamiyati yuqori baholangan.

1.2.2-jadval tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyatni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash mahoratini turli toifa o'qituvchilari turlicha tushunadilar. Lekin ulardagi umumiy jihatlardan biri, metodik mahorat va bilimlarning chuqur o'zlashtirilganligining uyg'unlashganligidadir.

Demak, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun to'plangan bilimlar manbalari ham bir-biridan farq qiladi.

Shundan keyin biz o'qituvchilarning modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash faolligi omillarini o'rganishga kirishdik.

Birinchi navbatda biz samarali pedagogik faoliyatning sabablarini aniqlashga harakat qildik. Biz aniqlashga muvaffaq bo'lgan ma'lumotlar 1.2.3-jadvalda berilgan.

1.2.3-jadval

O'qituvchilarning fikricha pedagogik faoliyatdagi

muvaffaqiyat omillari

Pedagolar toifasi	Javoblar soni foiz hisobida
-------------------	-----------------------------

Ko'rsatilgan omillar	5 yil-gacha	Tajribali o'qituvchil.	Mohir o'qituvchilar
Chuqur ilmiy bilimlar	45,8	35,6	35,0
Faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish	28,4	41,9	60,0
Tadqiqot	10,0	26,8	35,0
modulli ta'lim texnologiyasi	36,5	45,5	60,0
O'z ustida muntazam ishlash	29,3	50,3	60,0
Vahti-vahti bilan qayta tayyorgarlik ko'rish	23,6	49,5	56,0
Yaxshi pedagogik jamoaning mavjudligi	31,4	29,5	25,0
Bo'sh vaqtning ko'pligi	12,7	8,1	3,1
Aqliy va ruhiy sog'lomlik	15,7	23,1	25,0
Ish haqiga qiziqish, moddiy rag'batlantirish mavjudligi	51,3	46,5	34,1
Ota-onalar bilan aloqa	43,4	49,8	50,0
O'quvchilar bilan ma'naviy yaqinlik	20,7	29,2	40,0
Boshqa sabablar	3,0	2,4	5,0

***Eslatma:** Ustunlardagi ko'rsatkichlar 100 foizni tashkil etmaydi. Chunki javob beruvchilar eng asosiy sabablarning 3 tasi-nigina ko'rsatishlari mumkin edi.

1.2.3- jadval yakunidan o'qituvchilarning faoliyatidagi muvaffaqiyat sabablarini turlicha ko'rsatib o'tganliklarini ko'rish mumkin. Ular qanchalik pedagogik faoliyat omillariga taalluqli bo'lsa, shuncha moddiy, tabiiy, bo'sh vaqtning ko'pligi, hamkasblar va o'quvchilar bilan munosabat kabilarga ham tegishli.

Yosh o'qituvchilar barcha sabablarni aniq ko'rsatib o'tishgan. Biroq ko'proq eslatib o'tilgan sabablardan: modulli ta'lim texnologiyasi (36,5 foiz), ota-onalar bilan aloqa (43,4 foiz), chuqur ilmiy bilimlar (45,8 foiz).

Olingan ma'lumotlardan shuni tushunib olish mumkinki, yosh o'qituvchi o'zini tiklab olishi uchun modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilishi, yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal eta olishi, ota-onalarning yordamiga muhtoj bo'lish bilan birga, o'quv yurtida olgan bilimlariga murojaat qilishi, yangi axborot manbalarini izlab topishi lozim va h.k.

Tajribali o'qituvchilarda ham barcha sabablar belgilangan bo'lsada, lekin ularning mazmuni biroz boshqacha xususiyatlarga ega. Ular ko'proq uchta sababga - faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish (51,9 foiz), vaqti-vaqti bilan qayta tayyorgarlikdan o'tish (49,5 foiz) va modulli ta'lim texnologiyaga asoslanishga (45,5 foiz) to'xtalib o'tganlar. So'ngra esa - sog'lomlik (23,1 foiz), chuqur ilmiy bilimlarga ega bo'lish (35,6 foiz), shuningdek, faoliyatning moddiy omillarining rivojlanishi va ularning pedagog ishining samaradorligiga ta'sirini ham ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni baholashda, o'qituvchilar malakalarining oshishi juda jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchilar o'z javoblarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga va qayta tayyorgarlikdan o'tish orqali yangi ilmiy va amaliy axborotlar to'plashni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Mohir o'qituvchilarda bir qadar boshqacha holat kuzatiladi. Ular muvaffaqiyatga olib keladigan sabablar deb: modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish, o'z ustida muntazam ishlash, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga kelgan muammolarga modulli ta'lim texnologiyasi asosida yechish va tadqiqotchilik ishlarini hisoblaydilar. Sunungdek ular ham malaka oshirishni alohida ta'kidlaydilar.

Moddiy rag'batlantirishga yuqori darajada qiziqmaydilar va ularning bo'sh vaqti ham uncha ko'p emas. Bu tushunarli hol. Mohir o'qituvchi uchun pedagogik faoliyat hamma narsadan ustun turadi, uning hayot mazmunini tashkil qiladi. Shuning uchun u o'z sevgan kasbiga hech qanday rag'batlantirishni kutmasdan, bor kuch-g'ayratini, bo'sh vaqtini sarf qilishga tayyor. Shunga ko'ra ular birinchi navbatda pedagogik mahorat asoslaridan biri bo'lgan modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay bilishni asosiy o'ringa qo'yadilar. Bunga erishish uchun o'qituvchilardan muntazam o'z ustida ishlash talab qilinadi.

Umuman 1.2.3-jadvalga asos bo'lgan manbalar muayyan toifadagi o'qituvchilar pedagogik faoliyatlari shakllanishining o'ziga xos asoslari va yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Yosh o'qituvchilar mahoratining rivojlanishida boshqalar, hamkasblari va ota-onalar bilan aloqa, o'zining modulli ta'lim bo'yicha bilimlarini boyitish manba bo'lib xizmat qiladi. Tajribali o'qituvchilar mahoratining shakllanish omillari - bu, ular kelajakda aloqada bo'ladigan pedagogika fani yutuqlari doirasidagi kadrlarni qayta tayyorlashning tashkilotchilik shakllari bo'lib hisoblanadi. Mohir o'qituvchilar rivojlanishining asosiy manbasi zahirida o'z ustida ishlash va modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni chuqur egallashning yangi shakllarini izlash jarayoni yotadi.

Mohir o'qituvchilar pedagogik faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish esa quyidagi natijalarni berdi:

- a) tajribali o'qituvchilarning metodik mahoratini taqqoslash;

b) pedagogik holatlarni zukkolik bilan tahlil qila olish;

v) modulli texnologiyani qo'llashdagi o'ziga xoslik.

Shu nuqtai nazardan biz modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning mohiyati, uning rivojlanish manbalari, sabablari, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarini tushunib yetishdagi farqni aniqladik.

Taqqoslash natijalari samaraliroq bo'lishi uchun tajribali o'qituvchilar guruhida dastlabki tanlov o'tkazishga to'g'ri keldi. Taqqoslash uchun biz faqat «modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlagan» va «umuman modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlaydi» deb baholanganlarni tanlab oldik. Biz o'z iste'dodidan adashib, o'z ishini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil qila olmaganlarni, qancha harakat qilsa ham keraklicha natijaga erisha olmaganligi sababli samarali ishlay olmayotganlarni hisobga olmadik. Chunki ularning ishlarida ko'p qo'pol kamchiliklar mavjudligi, mazkur pedagoglarni mohir o'qituvchilar bilan taqqoslash samarasiz natijalarga olib kelishi mumkin edi. Bu ishga shu maktabda ishlaydigan o'qituvchilardan kasbdoshlari haqida ma'lumot berishlarini so'rashdan boshladik. (2-ilova)

Tajribali o'qituvchilar bilan anchagina ish tajribasiga ega bo'lgan va bu borada yuqori ko'rsatkichlarga erishgan o'qituvchilarni taqqoslab ko'rish natijasida ular orasidagi farqni, ularning qaysilarida pedagogik mahorat yuqoriligini aniqlash orqali mohir o'qituvchi nomiga musharraf bo'lgan pedagoglar ishining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkoniyat yaratildi.

Reja va dars o'tilishining tahlili, yangi materialning muammoliligi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan mohirona foydalana olishi, uning qay darajada faolligi, yangi axborotni o'zlashtirib olinishi, olingan bilimlarni mustahkamlashning shakl va turlari, darsda texnik vositalarning qo'llanilishi va boshqa bir qancha holatlar, tajribali o'qituvchi va mohir o'qituvchi orasida deyarli farq yo'q ekanligini ko'rsatib berdi. Ularning har birida ham o'z fanini yuksak mahorat bilan egallaganliklari, metodik mahorati, ishining puxtaligi, chuqur mantiqiyiligini ta'kidlab o'tish lozim.

Taqqoslangan guruhlarining pedagogik vaziyatlarni qanday tahlil qila olish qobiliyatlari orasida bir qadar farq borligini aniqladik. Tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar belgilangan bilimlarni teng o'zlashtira olishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Umuman olganda, kuzatishlarimiz natijasida tajribali o'qituvchilar va mohir o'qituvchilar faoliyatidagi asosiy farq ularning pedagogik vaziyatlarni yuqori darajada tahlil qilishlari va uni o'z faoliyatlari bilan taqqoslay bilishlari, o'z ishlarini tanqidiy baholay bilishlarida deb bildik.

Bunda ularning birida pedagogik tahlil yo'nalishlari turlicha bo'lsa, ikkinchilarida esa bir xilligi kuzatiladi.

Tahlil natijasida ikkala guruh o'qituvchilar faoliyatining aksariyat o'xshashligi namoyon bo'ldi. Lekin ayrim parametrlar ikki toifa o'qituvchilar idroki orasida farq borligini ko'rsatdi. Ular quyidagilar: o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay olish darajasi, o'quvchilarni yaxshi anglash imkoniyati, pedagogik vaziyatlarni yaxshi hal qila olishi, o'quvchilarning ichki dunyosiga kirish qobiliyatiga egaligi va h.k.

Ushbu ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mohir o'qituvchilar faoliyatini o'zining shaxsiy fikridan yoki uning safdoshlari fikridan aniqlash mumkinligi ayon bo'ldi. Bu vaziyat har bir qatnashuvchi ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan materialga, faollik formulalariga va muvaffaqiyatlarga nisbatan munosabatning namoyon bo'lishida o'z aksini topadi.

Umuman, keltirilgan hujjatlar mohir o'qituvchilar faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish sirlari, birinchi navbatda, o'qituvchining pedagogik jarayonni yaxshi tushuna olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy baho bera bilishi eng muhim asos ekanligini va faqat shu yerda mohir o'qituvchilar va tajribali o'qituvchilar faoliyatidagi nozik farqlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatib berdi.

Bundan tashqari mohir o'qituvchilar munosabat doirasining o'ziga xosligi, ularning ichki ruhiy holatlari va harakatlarining aniq persepsiya (lat. idrok etish) laridan, o'z shaxsi va o'quvchi shaxsini aniq bilishidan yuzaga keladi.

Olingan natijalar o'qituvchining ta'lim jarayonini modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi, pedagogik xususiyatlarini yaxshi bilishi va o'qituvchi shaxsining modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida tashkil etishga yo'naltirilganligiga taalluqli ekanligidan dalolat berib turibdi.

Uning muhim xususiyatlari pedagogik bilimlarni puxta egallash va har qanday vaziyatda to'g'ri pedagogik tahlil qilishi, modulli ta'lim texnologiyasini qo'llay olishi, o'z faoliyatiga o'ta tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z faoliyatini tahlil qilishi va o'zgalar nazari bilan baholashi, o'z bilimini amaliy faoliyat bilan bog'lashi, o'quvchi bilan dildan gaplashishi, ularni muloqot jarayoniga qo'shilishga, o'zgalarning "Men"iga kira olish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Shaxsning shu xildagi yo'nalganligi o'z-o'zini va boshqalarni anglashda, ma'naviy aloqada bo'lish vositalarini izlash sabablarida namoyon bo'ladi.

BOB YUZASIDAN XULOSALAR

5. O'rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z faoliyatlarini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishlari hozirgi kundagi dozarb muammo bo'lib, pedagogik nazariyada bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

6. Tadqiqotimiz asosida turgan farazni to'g'ri belgilaganimiz eksperimental-tadqiqot ishlarimiz jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Haqiqatdan ham o'qituvchilarni o'z faoliyatlarini modulli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilishda, avvalo "modul", "modulli ta'lim", "modulli ta'lim texnologiyasi" tushunchalarining mazmun va mohiyati, tamoyillari va o'ziga xosliklari aniq anglab yetsalar; ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda foydalanishga e'tibor qaratsalar yaxshi natija berishi mumkin.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni, yo'llarini izlashga, o'zining va o'zgalaring faoliyatiga xolis baho berishga o'rgatadi.

8. O'rta umumiy ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

II – BOB. MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHI

2.1. Modulli o'qitish tushunchasining mohiyati va tavsifi.

“Modulli o'qitish” termini xalqaro tushuncha – modul bilan bog'liq bo'lib (“modul”, lat. **“modulus”** so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi.) Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

Modulning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidir.

Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materialidir.

1982 yilda YUNESKOning anjumandagi ma'ruzasida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o'rganish orqali individual yoki guruh mashg'ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo'lish uchun mo'ljallangan alohida o'rgatuvi paket (to'plam)” deb ta'rif berilgan edi.

Modul – yuqori darajadagi yaxlitlik tizimida o'quv mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funksional tarmoq.¹

Modul – bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini majburiy tarzda nazorat qiluvchi o'quv materialining mantiqiy tugallangan qismi.²

Modul – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism.³

Modul deganda, ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligini tushunamiz.⁴

Modulli ta'lim – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism.⁵

Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi.¹

¹ Kaldibekova A.S. Modulli ta'lim texnologiyasi va uning o'ziga xosliklari. // Sb.nauchno-metodicheskix 24 chastyax. CH.6. – B.45.

² Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2003. – S.274.

³ Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – B.97.

⁴ Nuriddinov B.S. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanish: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2002. – B.13.

⁵ Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2003. – S.58.

O'quv moduli – har bir o'quv topshiriqlarini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar. Ko'proq oddiy va o'ziga xos tarzda o'quv moduli uni o'rganishning ko'proq oqilona shakl va metodlari bilan birgalikda odatiy o'quv dasturlari mavzu(bo'lim)larini aks ettiradi.²

Modulli o'qitish – o'rganishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Inson bosh miyasi to'qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv hujayralari) yoki shartli modullardan iborat. To'qima hujayralari bir-biri bilan ko'p sonli to'qnashuvlarda bo'lishadi. Bir hujayra va uning o'simtasini boshqa hujayra va uning o'simtasi bilan to'qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Bu hujayra bir vaqtning o'zida axboriy umumiylikka o'ziga xos yaxlitlik va tizimlilikka ega bo'lgan elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Modulli o'qitish, pedagogik ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish.

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv material blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad.
- ta'lim standartida berilgan predmet “o'quv elementlarida” maqsadning oydinlashishi.
- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar.
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi.

¹ Selevko G.K. Pedagogiyechkiye texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya. – M.: NII shkolkix texnologiy, 2005. – S. 58.

² Podlasiy I.P. Pedagogika. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2006. – S. 379.

- o'z - o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta'lim jarayonida alohida modullar asosida o'quv faoliyatini tashkil etilishi o'quvchining ta'lim faoliyatining sub'ekti sifatida mustaqil, rejali bilim o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo'llash o'qituvchidan modulli ta'lim prinsiplarini yaxshi bilishni talab etadi:

Modullilikning 1-prinsipi ta'limning konstruktivligi:

a) o'quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o'quvchi oldiga qo'yilgan har bir maqsadga erishish ta'minlangan bo'lsin;

b) o'quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;

v) ta'limning har xil shakl va turlari integrallashsin;

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi: ta'lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta'lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida kursga, sinfga tegishli har xil darajali - yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3- prinsip: ta'limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqligi va ularni almashtirish imkoniyati, o'quv-biluv faoliyatining har bir o'quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qiliish imkoniyati bo'lgan shakli.

4- prinsip: ta'sirlarning tiizimliliigi: ta'limning har xil metod va usullari , mazmuni, o'quv faoliyatining o'zgaruvchanligi asosida bilim o'zlashtirishning qulayligi, maxsus ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

5- prinsip: ta'limning ixchamligi; O'quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning ixcham yo'nalishi;

6- prinsip: ta'limni individuallashtirish: har bir o'quvchining o'zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasi va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab, baholash tizimida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faolligini oshirish ta'limni individuallashtirish demakdir.

7- prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi: modul dasturi axborotlarni oson o'zlashtirish uchun o'qituvchi maslahatidan foydalanishni taqozo etadi (savollar tizimi, algoritmlar va h.)

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmag'i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi).

Modul – ta'lim mazmunining shunday bir yaxlit bo'lagiki, u ta'lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.

Modulli ta'limning boshqa ta'lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

1. Ta'lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (blok)lar)dan iborat bo'lishi va ularni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o'quvchi uchun belgilanadi va u faqat o'quv material hajmini o'zlashtirishga oid ko'rsamalarini emas, balki o'zlashtirish darajasini ham o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi modulni qanday o'rganish kerakligi, zaruriy o'quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o'qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.

2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o'tadi. Faqat modulgina ta'limni sub'ekt-sub'ekt asosida o'tishiga yordam beradi.

3. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtining ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi. Shunday qilib har bir o'quvchi o'z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.

4. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o'quvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lib boshqaradi.

5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o'quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

2.2. Modulli ta'limni tashkil etish tamoyillari

O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq (2.1-rasm) ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlilik tamoyili: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng huquqlik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati sub'ekt - sub'ekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Ya'ni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, pedagogik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Shular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:


- katta hajmdagi o'quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o'quv material, osonroq o'zlashtiriladi;
- o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, o'quv axborotning tegishli strukturasi modulda tuzish yo'li bilan erishiladi.

Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy – bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharx berish;
- muammoli – bu muammoni shakllantirish;
- tizimli – bu modul tarkibining tizimli namoyon etish;
- faollashtirish – bu yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;
- nazariy – bu asosiy o‘quv material bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni echish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;
- tajribaviy – bu tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;
- umumlashtirish – bu muammo echimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;
- qo‘llanish – bu harakatlarning yangi usullarini va o‘rganilgan materialni amaliyotda ko‘llash bo‘yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;
- xatoliklar – o‘quvchining modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ulanish – o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;
- chuqurlashtirish – iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqori murakkabli o‘quv materialini takdim etish;
- test-sinovlash – modul mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.



2.1.-расм. Modulli o'qitishning blok-sxemasi

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

4. Motivasiya (qiziqishni uyg'otish) tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati, o'quvchining o'quv-bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Bu asosiy qoidadir.

Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da'vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

5. Modullik tamoyili. Bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini uch xil ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

- to'la;
- qisqartirilgan;
- chuqurlashtirilgan.

O'qitishning u yoki bu turini tanlash o'quvchiga havola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o'zlashtirishda, usul va shakllarning turiligidagi ham modullik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil o'qish, o'quv va imitasion o'yinlar va hokazo), hamda muammoli ma'ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, modullik, yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko'zda tutiladi.

6. Muammolilik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi. Mashg'ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning echimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni echish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa o'quvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

7. Kognitiv vizuallik (ko‘z bilan kuzatiladigan) tamoyil. Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko‘ra o‘qitishdagi ko‘rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdiridagina o‘zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo‘lib, murakkab ob'ektlar kompyuter suratchalari ko‘rinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo‘lib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik o‘quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. Shuning uchun rasmchalar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchidan, o‘quvchining ko‘rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni o‘rganish jarayoniga miyaning tasviriy o‘ng yarim shari boy imkoniyatlari qo‘shiladi.

Ikkinchidan, o‘quv materialini mazmunini o‘zida zich joylashtirib ravshan ko‘rsatuvchi surat (rasm), o‘quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar, o‘quv informasion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda o‘quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo‘ladi: ularning biri simvolli bo‘lsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) bo‘ladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvolli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o‘z ichiga olgan, bilim berishni uyg‘unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (ko‘zga ko‘rinuvchi) axborot miyaning o‘ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma'lumotli mutaxassis uchun zarur bo‘lgan, tasviriy fikrlash qobiliyatini, intuisiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek «intuisiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatda ilm-fan gepotezasiz (farazsiz), faraz zsa intuisiyasiz mavjud bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, ko‘rgazmali axborot og‘zaki axborotdan ko‘ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko‘rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan ko‘ra ancha yuqoridir. Bu esa o‘z navbatida, ko‘rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini etkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko‘rgazmali axborot bir vaqtning o‘zida beriladi. Shuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og‘zaki axborotdan ko‘ra kam vaqt talab etiladi. Ko‘rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo‘lishi og‘zaki bayondan ko‘ra o‘rtacha 5-6 marta tezroq kechadi. Insonning ko‘rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og‘zaki axborotdan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda u oxirgisini o‘tkazib yuboradi. Ko‘rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir.

Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga bog'liq bo'ladi. O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. Shuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

8. Xatoliklarga tayanish tamoyili. Bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga, o'quvchilarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi, o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga erdam beradi.

9. O'quv vaqtini tejash tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zahirasi yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish, o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillarini to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda, yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

– **10. Texnologiklik tamoyili.** Bu tamoyil o'quvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalarga erishish kafolatini ta'minlovchi, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonini, tizimli modulli yondashuv asosida ro'yobga chiqarishni anglatadi. Mazkur tamoyil quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- maksimal aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlash;
- qo'yilgan o'quv maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;
- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;
- o'qitish natijalarini tezkor baholash va o'qitishga tuzatishlar kiritish;
- o'qitish natijalarini yakuniy baholash.

Texnologiklik tamoyili, o'qitishni qayta takrorlanadigan jarayonga aylanishiga imkon beradi.

Modulli o'qitish tizimida o'rgatuvchi sikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

O'quv maqsadlariga erishish uchun o'quv me'yoriy hujjatlarning uzviyligini ta'minlash tayanch sharoitlarini yaratish zarur. Ushbu maqsadlarda uzviylik tamoyilini qo'llash tavsiya etiladi.

11. Uzviylik tamoyili. Bu tamoyil o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlash uchun o'quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashishin anglatadi. Bunda fanlarning maqsadlariga ko'ra, o'quv rejadagi soatlar mosligi ta'minlanadi.

2.3. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi

Fan bo'yicha faoliyatli yondashuv ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini umumiy ta'lim maktablarida foydalanish mumkin. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- Fanning fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- Fanning bir yoki bir necha tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Fanning tushuntiruv apparatini qat'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlili asosida, eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va kompakt guruhlash imkoniyatini beradi. Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida o'quvchilarga fanni to'raligicha emas, balki faqatgina bir qator modullarni tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa iqtidorli o'quvchilarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:


Ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi (2.1 - rasmi).

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, Davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi. Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo'lib, birinchi fanni o'rganila boshlaganida, o'quvchilarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlanganida, u fanning o'rganish maqsadlari o'quvchilar e'tiboriga yetkaziladi:

Makromodullar vertikal yaqin o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularni o'rganilish muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog'lanishlar hisobga olinishi lozim.

– o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlarning, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.



2.1.-rasm. Fan bo'vicha faolivat vondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologivasining sxemasi

Modul o'z ichiga 2-3 mavzu va shu mavzular bilan bog'liq amaliy darslarni qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ishchi o'quv dastur.

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o'tilgan materialni nazorati bo'lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish (boshlang'ich) nazorati bo'ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuziladi va ular o'quvchiga mashg'ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan ko'rgazma materiallar va adabiyotlar to'plami bilan ta'minlanadi, har bir materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin. Pedagogning vazifasi axborotchi-nazoratchidan boshlab, maslahatchi-muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi vazifasi, o'qitish o'rgatuvchi modullar asosida amalga oshirilganida, namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul - o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va juda ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni juda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo'riqli darslar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modullar amaliy va nazariy mashg'ulotlar bilan birga tuziladi, ular darslar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Darslar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini ko'llab, materiallari blok-sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki: (3-4- ilovalar)

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;

- asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;
- o'quv materialining (modulning) butun hajmi, o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni «siqish» vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

Modulli ta'lim uslubiyotida, bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvolli alomatlarni (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, rasmlar bloki, blok-sxemalar va boshqa ko'rgazmali materiallar o'quvchilar uchun tarqatma material vazifasini o'tashi mumkin. Shu bilan birga har bir fan, jumladan, modul bo'yicha atamalarining izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aqliy hujum, muammoli munozara, evristik (savol-javobli) suhbat, o'quv ishbilarmonlik o'yinlari va hokazo.

Shunday qilib, modulli o'qitishga o'tish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

I bosqich: O'quv rejadagi fanlarni makromodullarga ajratish.

II bosqich: O'qitish davri siqilganida, fanlarni o'rganishning eng maqbul ketma-ketligini o'rnatish.

III bosqich: Makromodul fanlari o'quv dasturlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

IV bosqich: O'quv predmetlarning modullarini shakllantirish.

V bosqich: Modulning o'quv-ko'rgazmali materialini ishlab chiqish

VI bosqich: Modulli o'qitish tamoyillari asosida o'qitish texnologiyasini loyihalash.

VII bosqich: Bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning maqbul sonini e'tiborga olib, mashg'ulotlar jadvalini tuzish.

O'quv jarayonining tashkil etilishini, modulli o'qitish tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

O'qitishning modulli tizimi xususiyatlaridan biri o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi, ushbuni ikki aspektda talqin etish mumkin.

– o'qitish jarayonida modulli o'qitish tamoyillari asosida o'quv axborotini «siqish»;

– o'qitish davrini «siqish» yo'li bilan o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil etish shakli bu mashg'ulotlarni haftalik modulli rejalashtirish va o'quvchilar bilimini reyting baholash hisoblanadi. Ya'ni, bitta modul bir haftaga rejalashtirilishi va u talabalar bilimining testlar yoki boshqa nazorat turi yordamida baholanishi bilan tugallanishi zarur.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- o'quv predmetlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;
 - har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;
 - fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
 - o'quvchilar bilimini muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
 - o'quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);
 - informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, dars soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - optimallashtirish. Buning natijasida, o'quvchi yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.
- O'quv predmeti bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik-texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi (2.2 - jadval).
- o'qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi;
 - o'qishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

Fanni o'qitishning pedagogik-texnologik xaritasining shakli

2-жадвал

Фanning umumiy maqsadi	Mavzu					Tayanch tushuncha			O‘qitish jarayoni		Test topshiriqlari	O‘zlashtirish darajasi (%)
	№	Nomi	O‘quv ilmiy adabiyotlar nomi	Ajratilgan soat	O‘quv maqsadi	Nomi	O‘quv maqsadi		Texnologiyasi (o‘qitish usullari)	Didaktik vositalar		
				Dars			Mazmuni	Toifasi (B.Blum bo‘yicha)				
14.	15.	16.	17.	18.	19.	20.	21.	22.	23.	24.	25.	26.

II BOB YUZASIDAN XULOSA

5. Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o‘quv materiali bolib, o‘quvchilarni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlariga egallashlariga katta imkoniyat yaratadi.
6. Modulli ta’lim jarayonida o‘qitishning uzluksizligi prinsipi amalga oshadi fanlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi
7. O‘qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko‘p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o‘zlashtiriladi;
8. O‘qishni individuallashtirish (o‘quvchi o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi).

III – BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SHAKLLARI VA METODIKASI.

3.2 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta’limning mohiyati.

Biz tanlab olingan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga modulli ta’lim asosida o‘qitishga doir o‘z tavsiyalarimizni berdik . Biz o‘tkazgan tajribalar aksariyat hollarda yaxshi natijalar berdi.

O‘qish darslariga qo‘yilgan zamonaviy talablar o‘qituvchidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qishga jalb qilish, badiiy adabiyotni san‘atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e‘tibor qaratish talab etiladi. Ta’limning an‘anaviy tizimidan farqli ravishda modulli o‘qish darslarining asosida uning har bir etapida o‘quvchining faolligiga asoslangan mustaqil faoliyati, o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan har xil darajali modullar algoritmi asosida ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish yotadi.

O‘quvchilar modul topshiriqlarini mustaqil o‘qiy oladigan davrdan boshlab modulli o‘qishga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya‘ni ikkinchi sinfdan boshlab modullarni kiritish yaxshi natija beradi.

Quyida modulli darsning qisqartirilgan variantini tavsiya etamiz (O‘qish darsining algoritmi)

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsining algoritmi

1-modul

Uy vazifasini tekshirishga tayyorgarlik.

Darslikning ...betini och (Agar u she‘r bo‘lsa takrorla (hikoya bo‘lsa birinchi abzatsgacha o‘qi).

She‘rning bir bandini o‘qib, partadoshingga aytib ber. (hikoya bo‘lsa mazmunini partadoshingga so‘zlab ber).

She‘rda yoki hikoyada nima haqida aytilgan. Qaysi voqea yoki hodisani eslab qolding, nima uchun?

O‘z-o‘zingni bahola va o‘rtog‘ing bahosini eshit.

2-modul

Quvnoq daqiqa:

1. Nafas olishga oid mashqlar: «sharni pufla», «choyni sovit», «changni hayda», «chiroqni puflab o‘chir».

2. Ovozga oid mashqlar: tovushlar artikulyatsiyasi, tez aytish, kichik she‘rni sekin, tez, past, baland ovozda, ichda o‘qish, jo‘r bo‘lib o‘qish, intonatsiyaga rioya qilib o‘qish, yoddan aytish.

3 –modul.

Tez o‘qish. O‘qituvchining “Boshla” degan buyrug‘idan keyin boshla.

1. Lablaringni bir-biri bilan jipslashtir.

2. Faqat ko‘zing bilan o‘qi.

Imkon boricha tezroq o‘qi, tushunmaydigan so‘zlaringni belgila.

Savollarga matndan javob ber.

Javobingni o‘rtog‘ing bilan muhokama qil, uni bilan maslahatlash. Umumiy muhokamada qatnash.

4- modul

Tez o‘qish malakasini egallash uchun intensiv mashqlar.

Yarim ovoz bilan boshlovchi(diktor)ga taqlid qilib o‘qish.

Ritmik chertmalar asosida o‘qish.

Matndan nigohni olib o‘qish.

Tezlashtirib o‘qish.

Juftlikda o‘qish.

Tez aytish tempida o‘qish..

Pichirlab o‘qish.

Faqat ko‘z bilan ichda o‘qish.

Tez o‘qish.

5-modul

Tavsiyalar

Intonatsiyaga rioya qilib o‘qi, urg‘ularni to‘g‘ri qo‘y.

O‘qiyotganda pauzalarga to‘g‘ri rioya qil.

Ovoz kuchining baland yoki pastligini o‘zing belgila.

Tempning tez yoki sekinligini aniqla.

His-hsyajon bilan o‘qi.

Intonatsiya bilan asarga o‘z munosabatingni bildir.

6-modul

Ijodiy daftardagi ish. (tanlash bo‘yicha topshiriqlar).

Darsni xulosalash – o‘z fikringni aytishni, dialogga kirishish, muammoga baho berishni o‘rgan.

Tavsiyalar har bir o‘quvchiga beriladi.

O‘quvchilarda algoritmlardan foydalanish malakasini shakllantirish.

Mustahkam bilim va malakalarga ega bo‘lish maqsadli mustaqil faoliyat tufayli amalga oshishi mumkinligi hammaga yaxshi ma‘lam.

Modullar haqidagi ko‘rsatmalardan tashqari o‘quvchilar uchun ishini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan alohida papkalar partaga qo‘yilishi kerak. Mustaqil ishlashga mo‘ljallangan topshiriqlarning asosida matnni birinchi o‘qishdan o‘qiganlarining mazmunini tahlil qilish va berilgan savollarga javob berish kabi ishlar yotadi. Mazmunni chuqurroq idrok etish va tushunish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘rganishning metodik modeli.

Asosiy mazmunni aniqlash.

Hikoyani bayon etuvchini ajratish.(hikoyani kim aytayapti, u hikoya voqealarining ishtirokchisimi?)

Hikoya qahramonini aniqlash, uning harakatlari va bu harakatlarning sabablarini aniqlash.

Qahramon personajlar xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash.

Ta‘sir qiluvchi shaxsning hislari va holatini aniqlash va testda u holatni bildiruvchi so‘zdarni topish. tushungani bo‘yicha qahramonni og‘zaki tavsiflash.

Hikoya qahramoniga muallifning munosabatini aniqlash. Matndan shunga doir so‘zlarni topish.

Hikoya qahramoniga o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlarini aniqlash.

Asarning asosiy g‘oyasini tushunish.

Hikoya kompozitsiyasi ustida ishlash.

Boshlang‘ich sinfdan ertakni o‘rganishning metodik modeli

Aniq voqelikni aniqlash:

Ertak qahramonlari;

Ularining rolining xususiyatlari (yaxshilik va yovuzlik, va b.);

Voqealarning izchilligi:

a) asosiy voqeaning xarakteri;

b) voqealarning ketma-ketligi;

Xulq motivlari;

Ertak qahramonlari va personajlarning xarakterli xususiyatlari;

Ertak qahramonlari va personajlarning o‘zaro munosabatlari.

Ertak qahramonlari yoki ertakdagi ayrim epizodlarni o'ylagani bo'yicha og'zaki tavsiflash.

Ertakdagi asosiy g'oyani aniqlash.

Ertak qahramoniga yoki undagi voqea-hodisalarga o'quvchilarning shaxsiy munosabatini aniqlash.

Ertak janrining xususiyatlarini farqlash;

Kompozitsiya(tarkibiy tuzilishi);

Voqelik bo'lib o'tgan joy; (real voqelik yoki uydirma);

Ertak voqealarini badiiy ifodalash.

Boshlang'ich sinfda nazmiy materiallarni o'rganishning metodik modeli (she'rni o'rganish)

1. She'rning umumiy hayajonli qismlarini aniqlash;
2. She'rdagi tabiat manzaralarini tasvirlashga doir joylarni topish;
3. Qiziqarli obrazlar va aniq bo'rttirib ko'rsatilgan joylarni topish;
4. Ta'sirli joylarini alohida ta'kidlovchi ovoz bilan o'qish;
5. She'rdagi tasvirlangan jarayonni rasmda ifodalash;
6. Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini aniqlash;
7. Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini va munosabatini ifodalovchi so'zlarni she'rdan topib o'qish;
8. She'rning asosiy mazmunini aniqlash;
9. She'rda tasvirlanganlarga o'quvchining munosabatini aniqlash;
10. She'rdagi aytuvchi shaxsini aniqlash.

O'qish darslarida adabiy asardagi badiiy obrazlarni tahlil etishga doir savollar.

Asar qahramoni bilan do'stlashishni xohlarmiding?

Sen uning o'rnida bo'lsang nima qilar eding?

Hikoya(yoki ertak) qahramonining hamma ishlarini to'g'ri deb o'ylaysanmi? Nima uchun u shunday qildi?

Qahramonni shunday qilishga nima majbur qildi? Boshqacha ham bo'lishi mumkin edimi?

Qahramondagi qaysi sifatlar senga yoqadi, qaysi sifatlar yoki xulqidagi ayrim o'ziga xosliklar senga yoqmaydi

Uning odamlarga munosabati senga yoqadimi?

Qahramonga qanday maslahat bergan bo'lar eding ?

Asardagi voqealar ichida bo'lishni xohlarmiding?

Asarda bo'lib o'tgan voqealarda kim bo'lib qatnashishni xohlar eding?

Shunday vaziyatga tushib qolsang qanday choralar ko'rar eding (yoki nima qilar eding)?

Shunday vaziyatda o'zingni qanday tutgan bo'lar eding?

Agar hikoya qahramonlari sizning sinfingizda o'qiganda sinfingiz hayotida qanday o'zgarish bo'lishi mumkin edi?

Matn mazmuni bo'yicha o'tkaziladigan suhbat savollari.

She'r matnini o'qiyotganingda ko'z oldingda nimalar namoyon bo'ladi? O'qiyotganingda nimalarni his qilasan?

O'qiyotganingda musiqa eshitganday bo'lasanmi?

Qanday musiqa eshitganday bo'lasan (og'ir, xursand, o'ynoqi va h.?)

She'rdagi so'zlar bog'lanishining qaysi tomonlari senga ko'proq yoqadi?

She'rning o'zi qanaqa: g'amginmi, xushchaqchaqmi, oddiymi, O'ylashni talab etadiganmi? to'qib chiqarilgan hodisami? U qanday kayfiyatda yozilgan?

Shoir tabiatning qaysi holatini tasvirlagan? Tasvirlanganlarga uning munosabati qanday?

Qaysi she'rlar hislarni qo'zg'aydi, diqqatni oshiradi, tabiatiga notinchlik yoki tinchlanish hissini olib keladi, uyqu keltiradi yoki boshqa holatlarga kiritadi.

Shoir tomonidan tasvirlangan tabiat hodisalari insonlarning qanday tuyg'ulariga mos keladi?

Ana shu qatorlarni yozganda shoir ko'nglidan nimalar kechgan deb o'ylaysiz? U qanday holatda bo'lgan, nimalarni orzu qilgan?

She'rni yozgan muallif sizningcha nima haqida o'ylagan, nimalarni eslab xotirlagan?

Siz tabiatning shu holati bilan tanishmisiz? Hayotda unga duch kelganmisiz? Qanday holatda duch kelgansiz?

Shu satrlarni yana qachon o'qiy olasiz? Qanday holatda? Qanday vaziyatda? Qanday sharoitlarda sizga bu she'rni do'stingiz yoki kattalar o'qishidan eshitish istagi paydo bo'lar edi?

Bunday ko'rsatmalar o'quvchilarni materialni anglab, tushunib o'zlashtirishga mustaqil tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarishga yordam beradi.

3.2. Boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajriba – sinov ishlari.

Modulli ta'lim texnologiyasi asosida darslarni tashkil etishga doir o'tkaziigan eksperiment ishlari natijasini aniqlash maqsadida takror tekshiruvlar o'tkazildi.

Tajriba yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars jarayonini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil eta olgan o'qituvchilar kontingentini o'rganishni biz hozirgi zamon o'qituvchisi faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjudmi yoki mavjud emasmi degan savolga javob izlashdan boshladik. Bu o'rinda biz masalani obyektiv va subyektiv tomonlarga ajratdik: pedagog o'z faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan deb hisoblaydi (yoki aksincha, tashkil etilgan emas deb hisoblaydi), ayni paytda bu faoliyat mutlaq qarama-qarshi xarakterga ega bo'ladi. Bu holatni aniqlashdan maqsad o'qituvchi o'z harakati haqida noto'g'ri va salbiy xulosalar chiqarmasligi, balki faoliyatni yaxshi yo'lga qo'yishning yangi va samarali imkoniyatlarini izlashi kerakligini tushunishdir.

3.2.1-jadvalda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining tajribadan keyingi o'z pedagogik faoliyatlaridagi modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjudligiga bo'lgan munosabatlarining subyektiv holati tasvirlangan. (3.2.1-jadval)

**Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchilarining oʻz pedagogik faoliyatlaridagi
modulli taʼlim texnologiyasi elementlari**

mavjudligiga boʻlgan munosabatlari (javoblar foiz hisobida)

Oʻqituvchilar kategoriyasi Javoblar	Javoblar soni foiz hisobida		
	5 yil- gacha	15 yil- gacha	Mohir oʻqituvchilar
Modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlayman	10,0	18,5	45,0
Modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlayman shekilli	39,4	46,0	37,0
Qancha intilsam ham modulli taʼlim texnologiyasi asosida ish chiqmayapti	37,0	13,2	8,0
Oʻylashimcha modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlay olmayman	6,1	18,0	7,0
Bu savolga javob berishga qiynalaman	7,5	4,3	3,0

Bu jadvalda quyidagicha qisqartirishlar berilgan “ 5 yilgacha” - 5 yillik ish faoliyatiga ega oʻqituvchilar, “ 15 yilgacha” - 15 yillik ish faoliyatiga ega tajribali oʻqituvchilar va mohir oʻqituvchilar.

1.3.1-jadvaldan koʻrinib turibdiki, tajribadan keyin oʻqituvchilar ishida anch siljish boʻlgan. 5 yillik stajga ega boʻlgan oʻqituvchilarning koʻpchiligi faoliyatlarini modulli taʼlim texnologiyasi asosida tashkil qilishga kirishishgan, baʼzilari esa modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlamayotganliklarini eʼtirof etdilar.

5 yildan 15 yilgacha mehnat stajiga ega boʻlgan tajribali oʻqituvchilar guruhining javoblarida koʻrinib turibdiki ular modulli taʼlim afzalliklarini anglaganlar va bi ishni amalgam oshirishga kirishganlar. Bularning orasida ham oʻz faoliyatini baholay olmaganlar bor, lekin ular ozchilikni tashkil etadi. Bu guruh javoblarida qarama-qarshilik koʻzga tashlanadi. Ular yoki oʻz mehnatlarini modulli taʼlim texnologiyasi asosida tashkil qilingan deb hisoblaydilar, yoki kelajakda modulli taʼlim texnologiyasi asosida ishlash imkoniyatlariga umidsizlik bilan qaraydilar.

Uchinchi toifaga mansub pedagoglar mohir oʻqituvchilar guruhini tashkil etadi. Ularning koʻpchiligi, asosan, oʻz faoliyatlarini aniq baholay oladilar. Ushbu dalillarni ekspertlar (maktab direktori, tuman metodisti, jamoa fikri va shaxsiy kuzatishlarimiz) xuddi shu oʻqituvchilarning faoliyatiga bergan baholariga asoslanib taqqoslaymiz.

Taqqoslash haqidagi ma'lumotlar 3.2.2 - jadvalida berilgan.

3.2.2-jadval tahlilidan ko'rib turibmizki, ko'pchilik yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyati modulli ta'lim texnologiyasi faoliyati sifatida emas, balki unga intilish, faoliyatga yangicha yondashuv yo'llari ustida izlanish deb baholanadi. Ijobiy baholar va modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlay olmaydi deb baholaganlar soni ozchilikni tashkil etadi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra o'qituvchilar faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari

Baholar O'qituvchilar toifasi, mehnat staji	Baholar soni foiz hisobida		
	5 yil gacha	15 yil- gacha	Mohir o'qituvchilar
Shubhasiz modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlaydi	1,3	9,5	51,1
Umuman aytganda modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlaydi	8,2	41,9	23,5
Modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlashga harakat qiladi, lekin har doim ham ishi modulli ta'lim texnologiyasi asosida chiqmaydi	60,8	22,8	22,4
O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlay olmaydi	9,6	12,3	2,0
Baho berishga qiynalaman	20,1	13,5	1,0

Mohir o'qituvchilarga baho berish bir oz murakkabroq kechdi. hattoki ekspertlar ham o'qituvchi faoliyatining haqiqiy xususiyatlarini aniqlashga qiynaldilar. Bu faoliyatning bir vaqtning o'zida ham modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil eta olmaslini aniqlash murakkabdir. (12,3 %) Ekspertlarning fikricha, mohir o'qituvchilar ikki guruhga bo'linadi: bular ijodiy faoliyatida modulli ta'lim texnologiyasi elementlari mavjud bo'lgan o'qituvchilar va shuni qat'iy ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchilik kasbini noto'g'ri tanlagan, ushbu mehnat turiga xohishi, qiziqishi, qobiliyati bo'lmagan va faoliyati ochiqdan-ochiq reproduktiv xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilar.

Modulli ta'lim texnologiyasini tashkil etish mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyatini baholashda, shubhasiz ijobiy tavsif ustun bo'ladi.

3.2.1- va 3.2.2 - jadvallarni taqqoslash natijasi o'qituvchilarning o'z faoliyatlariga baho berishlaridagi subektiv fikrlari ko'rib chiqilayotgan mazkur masala bo'yicha obektiv holatni aks ettiradi. Bu ko'rinish yosh o'qituvchining amaliy malakasi yetishmasada, modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlashga intilishidan, tajribali o'qituvchining o'z qiziqishi va imkoniyatlarini baholashda, ko'p yillik faoliyat tajribasiga asoslanishida, mohir o'qituvchining modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlash uchun intilishi, malakasi va kasbiga nisbatan qiziqishi tufayli yuzaga keldi.

Biz modulli ta'lim texnologiyasi asosida dars o'tilganda o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalarining o'sishi va ta'lim samaradorligining oshishi an'anaviy ta'lim asosidagi

darsga qiyosan baholashga harakat qildik. Tekshiruvda jami Beshkent shahridagi 12-umumta'lim maktabi 3-4- sinf o'quvchilaridan 182 nafari qatnashdi.

Buning uchun o'quvchilar uchun mustaqil topshiriqlar tizimini ishlab chiqildi. O'quvchilarga taqdim etilgan suratlar asosida mustaqil hikoyalar tuzish topshirig'I berildi.

Baholash uchun quyidagi mezonlar tanlandi:

Yuqori daraja. Bunga o'qituvchi bergan yo'nalish asosida 8-10 gapdan iborat hikoya tuza oladigan o'quvchilar kiritildi. Ular suratlardagi muhim jihatlarni o'qituvchi yordamisiz aniqlay oladilar, fikrlarini erkin bayon qila oladilar va fikrlarini o'ziga xos holda himoya qila oladilar. Ular tuzgan hikoyalaridagi gaplar o'zaro mantiqan bog'lanishi va so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishiga alohida e'tibor qaratildi (30 o'quvchi).

O'rta daraja. Bunga o'qituvchi yordami asosida 4-5 gapdan iborat hikoya tuza oladigan o'quvchilar kiritildi. Ular fikrlarini erkin bayon qila oladilar, ammo o'qituvchi e'tiroz bildirsa ikkilanib qoladilar. Ular tuzgan gaplarda 1-2 ta xatoga yo'l qo'yilishi hisobga olindi (64 o'quvchi).

Quyi daraja. Bunga o'qituvchining bevosita yordami asosida deyarli mantiqan bog'lanmagan, gap tuzishda xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilarning hikoyalari kiritildi. Ular o'qituvchining fikrini to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladilar (88 o'quvchi).

Suratlar asosida o'tkazilgan suhbat jarayonida jami 182 ta 3-4--sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Birinchi bosqichda tajriba natijalari quyidagicha bo'ldi:

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o'quvchilarning deyarli hammasi o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qildilar. Kuzatish natijalari asosida o'quvchilar fikrlashi quyidagicha 3 darajada baholandi:

3.2.3-jadval

3-4- sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash darajalari

Sinf	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf
O'quvchi soni	14	16	30	34	41	47
% хисобида	16,8	16,5	35,1	35	48,1	48,5

O'tkazilgan tajriba tadqiqot ishlaridan keyin o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi ancha rivojlandi. Bu quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

3.2.3-jadval

Tajribadan keyin 3-4- sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash darajalari

Sinf	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf	3- sinf	4- sinf
O'quvchi soni	34	44	40	41	11	12
% hisobida	40	45	47	42	13	13

III BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish ishlarning turli shakllarini muntazam va o'zaro bog'liq holda tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday ishlarni tashkil etishning yanada samarali shakli yaxlit tizimlilik asosida amalga oshirilishidir.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi maktabda ta'lim sohasidagi ishlarning tizimli tashkil etilishiga bog'liq.

3. Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida biz o'qituvchilarni ko'proq modulli ta'lim faoliyatiga jalb etilishi ularda shu ishga oid qiziqishning ortishi, maktabda o'qituvchilarning moddiy va ma'naviy rag'batlanishi, raqobat muhitining yaratilishiga bog'liq, degan xulosaga keldik.

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishi uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Chunki, har bir darsni o'tishdan avval uni modullarga ajratgan holda tuzilgan dars ishlanmalari asosida o'tiishlari kerak.

5. Shuningdek, o'qituvchi modulli ta'lim texnologiyasi asosida dars o'tishi uchun metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

UMUMIY XULOSALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish maksimal imkoniyatlarni yaratib beradi, uning jamiyatdagi tez o'zgaruvchan sohalariga erkin o'ta olishiga, madaniyatga kirishi va muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Ayniqsa, ijtimoiy hayot, fan va ishlab chiqarish sohalarida jadal rivojlanib boruvchi texnologik jarayonlar har tomonlama yetuk yoshlarning o'sib borishi va ularning ehtiyojlari asosida darslarni tashkil etishni talab etadi.

Bularni amalga oshirish natijasida:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish o'z-o'zini anglashga va o'z-o'ziga baho bera olishga o'rgatadi;
 - dars jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga joriy eta olishlarini shakllantirish uchun sharoit yaratiladi;
 - o'zaro bir-birlari bilan hamkorlik qila olish malakalari rivojlanadi;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaxlit – ijtimoiy, jismoniy, ma'naviy, intellektual rivojlanishi ta'minlanadi;
 - ta'limning nazariy va amaliy faoliyat bilan aloqasi mustahkamlanadi;
 - o'quvchilarga ortiqcha qiyinchilik tug'diradigan muammolar hal etiladi.
- Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida modulli o'qitish keng qo'llaniladi.

Modul deganda, biror tizimning funksional yuklamasini aniqlashga doir mustaqil qismiga tegishlilik tushuniladi. Nazariy ta'limda esa, modul – bu o'quvchilarning u yoki bu fan bo'yicha bilimlariga doir ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli axborot yoki harakatlarning aniq belgilangan “doza”si. Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, ta'limiy modul tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ta'limiy modul – bu o'zlashtirish ta'lim oluvchi mazkur modullarni egallashi natijasida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning nazorat qilish shakli bilan muvofiqlikda tugashi zarur bo'lgan, o'zida bilishga doir va kasbiy jihatlarni ochib beruvchi o'quv fanining biror qismi mazmunining mantiqiy tugallangan shakli.

Modul bilishga doir va kasbiy tavsifdan iborat bo'ladi. Ana shunga bog'liq holda modulning bilishga doir (axboriy) va o'quv-kasbiy (faoliyatli) qismlari haqida gapirish mumkin. Birinchisining vazifasi – nazariy bilimlarni shakllantirish bo'lsa, ikkinchisining vazifasi – egallangan bilimlar asosida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Blokning bilishga yo'naltirilgan tarkibi o'z navbatida ta'limiy va o'quv-kasbiy qismlarga ajratilgan. Bilishga yo'naltirilgan qism:

- interfaol, izlanuvchan, muammoli texnologiyalarni qo'llash;
- tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rnatish;

- mustaqil izlanish, shaxsiy tajribaga murojaat etish, tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy fikrlarni bayon qilishga undovchi topshiriqlar berish;

- o'quvchilar o'quv faoliyatining turli noan'anaviy turlari, tegishli fanning asosiy tushunchalariga ta'rif berish; xilma-xil nazariyalar, g'oyalar, talqinlarni qiyoslash; adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan shaxsiy bilimlarni umumlashtirishga asoslangan evristik shakldagi amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'limiy qism o'quvchilarga o'quv materiallarini o'rganish metod va usullarini ko'rsatuvchi quyidagi topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

Shaxsiy hayotiy tajriba va o'qib o'rganilganlarni yodga olish (esga tushurish).

Ularga tayanib o'rganilayotgan masala bo'yicha shaxsiy fikr (ta'rif, izoh)ni aniqlashtirish.

Mavzu yuzasidan mavjud turli nuqtai nazarlarni taqqoslash;

Yangi ma'lumotlarni bilish, tahlil qilish va umumlashtirish asosida shaxsiy fikr(ta'rif, g'oya, yondashuv)ni shakllantirish.

Yangi axborotlarning butun to'plamidan o'zi uchun zarurlarini ajrata olish.

Yangi atamalar, ularning ma'nosi bilan tanishish, ularni yozib olish va xotirada mustahkamlash, avvaldan ma'lum bo'lgan atamalarning mazmunini aniqlashtirish.

Mavzuga tegishli adabiyotlar bilan tanishgan holda, qiyin va tushunarsiz joylarni aniqlashtirib olib, o'qituvchiga beriladigan savollarni, eng murakkab va qiziq masalalarni avvaldan belgilab olgan holda kelish.

O'quv qism. Bu qismga refleksiv va amaliy-faoliyatning shakl va metodlari – so'rovnomalar, "O'z-o'zini tahlil qilish xaritasi" bilan ishlash, turli didaktik masalalarni echish, matnlar ustida ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Shuningdek, modul ishlanmalarda: 1) moduldagi tegishli blokning; 2) o'qituvchi faoliyatining; 3) o'quvchilar faoliyatining maqsadlari alohida ko'rsatib beriladi.

Modulli ta'lim tizimi xilma-xil turdagi madaniy, ijtimoiy va ta'limiy vazifalarning o'zaro aloqasi, moslashuvchan pedagogik vositalarning qo'llanishi, o'quvchilarning madaniy qadriyatlarni pedagogik qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'zlashtirishi, bilim olishning o'z hayotidagi o'rnini anglatish hisobiga erishiladi. Ushbu vazifalarni hal etishga:

- muammoli topshiriq va savollarning qo'llanishi;

- pedagogik voqelikda dars jarayonida uchraydigan voqea-hodisalarning tahlil etilishi;

- amaliy mashg'ulotlarning turli shakllarda (fikr almashinuvi, illyustrasiya, refleksiya, "intellektuallar uchrashuvi") o'tkazilishi – badiiy asarlar matnlari bilan ishlanishi topshiriqlarning murakkablik darajasiga ko'ra tabaqalashtirilishi yordam berdi.

Shularni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishda quyidagi natijalarga erishish mumkin degan xulosaga keldik:

1. Modulli o'qitishning imkoniyati – materialni “dozalash”, ta'lim oluvchilarning individual o'ziga xosliklari va qobiliyatlari bilan birlashtirish, materialni maxsus tanlab olish, axborot-bilish va ta'limiy vazifalarning birlashishi, majburiy baholash tamoyili, unga katta qo'zg'aluvchanlik, moslashuvchanlik, xilma-xillikni taqdim etilishi kasbiy amaliyot va madaniy hamda ijtimoiy-pedagogik realikka bakalavr-talabalarini mustaqil olib kirishga taqriban ta'limni yuqori darajada tashkil etilishiga imkon beradi.

2. Modulli o'qitish, pedagogik ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- mustaqil fikrlash motivatsiyasi (qiziqtirish) asosida, boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

3. Fanlar bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi.

4. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

5. Mazmunan fanlar asosida tashkil etilgan fanlararo modulli o'qitish tizimi umumkasbiy blok bilan madaniy-ijtimoiy fanlar blokini “birlashtirish” vazifasini amalga oshiradi.

6. Fanlararo modulli o'qitish jarayonida kasbda va ijtimoiy muloqotda yangi faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga faol munosabatni shakllantirish, motivasion darajasi va mazmunini oshirish, modulli ta'lim doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakatlarini faollashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 214 b.

13. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni. 1997. – 31-61-b.

14. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 24 b.

15. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” – Toshkent, “Sharq”. 1997 y

16. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent, “Sharq” 1998 y. 6 –bet.

17. Karimov I.. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanyada yuksaltirishdir. Toshkent, “O'zbekiston”, 2010 y. 48-75 betlar.

18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, “O‘zbekiston”, - 2012 y. 440 bet

19. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi. “XXI asr” gazetasi, 2011 yil 36-son 1-bet.

20. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.

21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

6. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2001. – 68 s.

54. Avliyakov N.X. Prakticheskiye osnovi modulnoy sistemi obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. O‘quv qo‘llanma – Buxara: 2001. - 99 s.

55. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari. O‘quv metodik qo‘llanma. - T.: Yangi asr avlodi, - 2003. – 88 s.

56. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskoye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. – Tashkent: Moliya, 2002.

57. Belouxin D.A. Osnovi lichnostno-oriyentirovannoy pedagogiki. -M.: Voronej, 1997. – 92 s.

58. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. - M: Nauka, 1989. – 192 s.

59. Bondarevskaya YE.V. Gumanitarnaya paradigma lichnostno-oriyentirovannogo obrazovaniya // Pedagogika. – 1997. - №4. – S.11-14.
60. Borodina N.V., Samoylova YE.S. Modulnaya texnologiya v professionalnom obrazovanii: Uchebnoye posobiye. - Yekaterinburg.: UGPPU, 1998. -27 s.
61. Davletshin M.G. Modul texnologiya obucheniY. – T: TGPU, 2000.
62. Kaldibekova A.S. Modulli ta’lim texnologiyasi va uning o’ziga xosliklari. // Sb.nauchno-metodicheskix 24 chastyax. CH.6. – 228 b.
63. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. - M: Znaniye, 1989 - 80 s.
64. Lavrentev G.V. Slagayemiye texnologii modulnogo obucheniY.- Barnaul, Izd.Altayskogo gos.un-ta, 1994. - 108 s.
65. Maxmutov M., Ibragimov G.I., Ushakov M.A. Pedagogicheskiye texnologii, razvitiye mishleniya uchashixsY. – Kazan: 1993 – 88 s.
66. Nazarova T.S. Pedagogicheskiye texnologii noviy etap evolyusii. – M.: Pedagogika. 1997. - S. 20-26.
67. Nishonaliyev U. N. Modulniye pedagogicheskiye texnologii.- Professionalnoye obrazovaniye. M: 2002. - № 14. - S. 10-12.
68. Nuriddinov B.S. Kasb ta’limi o’qituvchilari malakasini oshirishda faol o’qitish metodlaridan foydalanish: Ped.fan.nomzodi. ...diss. Avtoref. – T., 2002, 13- bet.
69. Pedagogika: pedagogicheskiye teorii, sistemi texnologii. Pod red. Smirnova M: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1999. - 544 s.
70. Pedagogicheskaya texnologiya / Pod red. Kukushkina V.S. – Seriya «Pedagogicheskoye obrazovaniye» - Rostov. Izdatelskiy sentr Mart,2002.-320 s.
71. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta’lim markazi, 1999. – 55 b.
72. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari. –T.: RTM, 2000. – 46 b.
73. Saliyeva Z. Pedagogika kollejlari o’quv jarayoniga ta’limiy texnologiyalarni tatbiq etish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti,2009. – 48 b.
74. Selevko G. K. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii.- M., Narodnoye obrazovaniye, 1998. – 130 s.
75. Stolerenko L.D. Pedagogika. – Rostov na-Donu. Feniks, 2003. – 274 ctr.

76. Farberman B.L. Progressivniye pedagogicheskiye texnologii. - T: Fan, 2002. - 130 s.
77. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – 135 b.
78. Yussyavichine L.A. Teoriya i praktika modulnogo obucheniY.- Kaunas: Shviyesa, 1989.
- 79.K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili kitobi 2- sinf uchun. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010, 128.
- 80.G'afforova T., G'ulomova X. Ona tilidan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2001. - 10 bet.
- 81.G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. -112 b.
- 82.G'afforova T., Nurillaeva Sh. «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar». Qarshi «Nasaf», 2003 y.
- 83.G'afforova T., Nurillaeva Sh., Haydarova O. «Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari uchun didaktik materiallar». Toshkent, «Ilm-ziyo», 2003 y.
- 84.G'afforova T.va boshqalar. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2003 y.
- 85.G'afforova T.va boshqalar. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2003 y.
- 86.G'afforova T.va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. Toshkent, «Sharq», 2003 y.
- 87.G'afforova T.va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2012 y.
- 88.G'afforova T.va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, «Sharq», 2012
- 89.Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.
- 90.Haydarova O.Q.Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.
- 91.www.pedagog.uz
- 92.www.edu.uz
- 93.www.ziyo.edu.uz
- 94.www.gov.uz
- 95.www.ziynet.uz

96. www.istedod.uz
97. www.cer.uz
98. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>
99. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>
100. “**Ziyo NET**” axborot – ta’lim tarmog‘i ([www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))

ILOVALAR

O'qituvchilarga berilgan anketa sabollari:**MUHTARAM O'QITUVCHI!**

Sizdan o'qituvchining faoliyatiga taalluqli bir qancha savollariga javob berishingizni iltimos qilamiz. Shuni bilingki, Siz bergan javoblar faqat ilmiy maqsadlar uchun foydalaniladi. Deyarli hamma savollarning ba'zi javoblari berilgan. Sizning mulohazalaringizga to'g'ri kelgan javoblarning raqamlarini doira ichiga oling yoki tagiga chizing. Shuningdek, javoblarni to'ldirish ham mumkin. Buning uchun bo'sh joylar qoldirilgan.

1.Sizning yoshingiz ?_____yosh.

2.Jinsingiz? 1.Erkak. 2.Ayol.

3.Ishlayotgan maktabingiz?

1.O'rta umumiy ta'lim maktabi.

2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabi.

3.Lisey.

4. Kasb-hunar kolleji.

5..Maxsus maktab.

6._____

4..Maktabingizda siz bajarayotgan vazifangiz?

1.Direktor.

2.O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

3.Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi (direktor o'rinbosari).

4.O'qituvchi.

5.Sinf rahbari.

6.Bosh etakchi.

7._____

5.Umumiy mehnat stajingiz?.....

6.Pedagogik stajingiz?

7.Zamonaviy ta'limni qanday tushunasiz?

1.Yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish.

2.Chuqurlashtirilgan bilim berish.

3.Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish.

4.Ta'lim mazmuniga o'zgartirishlar kiritish.

5._____

6._____

8.Noan'anaviy darslarga qanday qaraysiz?

1.Ijobiy.

2.Bunday darslarda maqsad aniq emas.

3.Bunday darslar menga yoqmaydi.

4.Bunday darslar zamon talabi.

5._____

6._____

9.Pedagogik faoliyatingizdagi muvaffaqiyatlar nimaning natijasi?

1. Chuqur ilmiy bilimlar.

2. Faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida hal etish.

3. Tadqiqot.

4. Modulli ta'lim texnologiyasi.

5. O'z ustida muntazam ishlash.

6. Vaqti-vaqti bilan qayta tayyorgarlik ko'rish.

7. Yaxshi pedagogik jamoaning mavjudligi.

8. Bo'sh vaqtning ko'pligi.

9.Aqliy va ruhiy sog'lomlik.

10. Ish haqiga qiziqish, moddiy rag'batlantirish mavjudligi.

11. Ota-onalar bilan aloqa.

12. O'quvchilar bilan ma'naviy yaqinlik.

13. Boshqa sabablar

10. O'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab ishlashi uchun qanday imkoniyatlar bo'lishi kerak deb uylaysiz?

1. Maqsadning aniqligi va natijaning kafolatlanganligi.

2.O'qituvchiga erkinlik berish kerak.

3.Dastur, darsliklarni tanlash imkoniyati bo'lishi zarur.

4.Moddiy rag'batlantirish kerak.

5.Maoshini va mas'uliyatini oshirish kerak.

6.Maktabning o'quv-moddiy ta'minoti yaxshi bo'lishi kerak.

7._____

8._____

11. Modulli ta'lim texnologiyasidan o'z faoliyatingizda qo'llaysizmi?

1. Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman.
2. Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlayman shekilli.
3. Qancha intilsam ham modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ish chiqmayapti.
4. O'ylashimcha modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ishlay olmayman

22. Bu savolga javob berishga qiynalaman.

12. Pedagogik faoliyatda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning mohiyati nimada?

1. Metodik o'tkirlik fanni o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashni bilish
2. Modullarga bo'lish va ajratishni to'g'ri belgilash.
3. Pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish.
4. Psixologik-pedagogik bilimlarni to'g'ri qo'llash.
5. Dars loyihasini tuza bilish.
6. O'quvchilarni tushuna bilish, ularning qalbiga yo'l topa bilish .

13. O'qituvchining qaysi sifatlarini yuqori baholaysiz?

1. Chuqur bilimga, keng ma'lumotga ega bo'lish.
2. Pedagogik ishda texnologik yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish.

3. Pedagogik mahorat.

4. Kuzatuvchanlik, pedagogik vaziyatlarni tushuna bilish va ijodiy hal qila bilish.

5. Bolalarni sevish.

6. O'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga nisbatan talabchanlik.

7. O'quvchilar bilan umumiy til topa bilish.

8. Yangiliklarni seza olish.

16. _____

17. _____

14. Maktabingizda nechta o'qituvchi bor? _____ ta

Sizningcha shulardan nechtasi o'z faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etib ishlaydi? _____ ta

15. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligini qanday tushunasiz?

1. O'qituvchi ta'lim jarayonida hukmron, o'quvchi bo'ynsunishi lozim.
2. O'qituvchi va o'quvchi erkin muomala qilish kerak.
3. O'quvchi xususiyatini bilib muomala qilish kerak.

Iltimosimizni bajarganingizdan cheksiz minnatdormiz!

2- ilova

**O'qituvchiga uning kasbdoshlari bergan bahoni aniqlash uchun
tarqatilgan varaqa**

1.Modulli ta'lim asosida ishlaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	Modulli ta'lim asosida ishlaymaydi
2.Dars loyihasini oqilona ishlab chiqadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars loyihasini ishlashga qiynaladi.
3.Dars maqsadini aniq belgilaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars maqsadini aniq belgilay olmaydi.
4.Dars maqsadini o'quv-chilar yaxshi biladi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'quvchilar darsning maq-sadini tushunmaydi.
5.Darsning natijasida maqsadga erishadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Darsning natijasida maq-sadga erisha olmaydi.
6.Dars algoritmini yaxshi ishlab chiqadi	<u>2 1 0 1 2</u>	Dars algoritmini yaxshi ishlay olmaydi.
7.Modul dastirini yaxshi ishlab chiqadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Modul dastirini yaxshi ishlab chiqa olmaydi.
8.O'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini yaxshi tashkil etadi	<u>2 1 0 1 2</u>	Ўқувчиларнинг ўқув билиш фаолиятини ташкил эта олмайди.
9.Har bir o'qivchining oldida modul ishlanmasi va yo'llanma turadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'qivchilarning oldida modul ishlanmasi va yo'llanma qo'yilmaydi.
10.Nutqi ravon, sof adabiy tilda gapiradi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Nutqi ravon emas, shevada gapiradi.
11.O'z faoliyatini tanqidiy baholay bi-ladi, xatolar ustida ishlaydi.	<u>2 1 0 1 2</u>	O'z faoliyatini tanqidiy baholay olmaydi, xatolar ustida ishlaymaydi.
12. Pedagogik mahorat egasi	<u>2 1 0 1 2</u>	. Pedagogik mahoratga ega Emas.
13.Darsda texnika vositalaridan foydalanadi.	<u>2 1 0 1 2</u>	Darsda texnika vositalarini qo'llashni билмайди.
14.O'zini to'g'ri baholaydi	<u>2 1 0 1 2</u>	O'zini yuqori baholaydi
15.Har qanday vaziyatning	<u>2 1 0 1 2</u>	Og'ir vaziyatlarda echimni bilmaydi

echimini tez topadi

16. Darsda qiziqarli o'yinlar
tashkil qiladi.

2 1 0 1 2

Darsda qiziqarli o'tmaydi.

17. Dars texnologiyasini
yaxshi ishlab chiqadi.

2 1 0 1 2

Dars texnologiyasini yaxshi
bilmaydi.

3 -ilova

ANIQ MODULLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN O'QISH DARSINING ISHLANMASI.

(1 sinf)

Mavzu: O'zbek xalq ertagi «Rostgo'y bola».

Maqsad: To'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko'nikmasini mutahkamlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.

O'quvchilar shaxsida to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori: Biz nimaiki qilmaylik,

Barchasi zarur, kerak.

Bilim egallash uchun

Tinimsiz o'qish kerak.

1 – modul.

Uyga vazifani tekshirish.

“Maymun va duradgor” haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o'quvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni o'qib, mazmunini so'zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

2 – modul.

Quvnoq daqiqa.

O'qituvchi: Yaxshi o'qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

«Choyni sovit»

«Gulni hidla»

«Sharni shishir»

«Changni hayda».

2) Ovoz mashqi: tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

- Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz.

Yaxshilab e'tibor qiling:

To'g'ri so'z bola. H.H.Niyoziy.

(Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,

To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi biri:” Tanga berurman sanga

So'zla bir og'izgina yolg'on manga”

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:

“so'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur

Tangaga yolg'onni kim olg'on erur”.

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

<i>b</i>	<i>r</i>	<i>o</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>g</i>	<i>o'</i>	<i>y</i>	<i>b</i>	<i>r</i>
<i>o</i>	<i>o</i>	<i>b</i>	<i>o</i>	<i>l</i>	<i>a</i>	<i>ya</i>	<i>o'</i>	<i>o</i>	<i>o</i>
<i>l</i>	<i>s</i>	<i>yo</i>	<i>l</i>	<i>g'</i>	<i>o</i>	<i>n</i>	<i>r</i>	<i>l</i>	<i>s</i>
<i>a</i>	<i>t</i>	<i>a</i>	<i>n</i>	<i>g</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>k</i>	<i>a</i>	<i>t</i>
<i>r</i>	<i>g</i>	<i>k</i>	<i>i</i>	<i>sh</i>	<i>i</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>o</i>	<i>g</i>
<i>o</i>	<i>o'</i>	<i>m</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>t</i>	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>yu</i>	<i>o'</i>
<i>s</i>	<i>y</i>	<i>s</i>	<i>o'</i>	<i>z</i>	<i>i</i>	<i>ng</i>	<i>i</i>	<i>z</i>	<i>y</i>
<i>t</i>	<i>o</i>	<i>g'</i>	<i>i</i>	<i>z</i>	<i>g</i>	<i>i</i>	<i>n</i>	<i>a</i>	<i>a</i>
<i>g</i>	<i>l</i>	<i>a</i>	<i>r</i>	<i>o</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>g</i>	<i>o'</i>	<i>y</i>
<i>o'</i>	<i>y</i>	<i>s</i>	<i>a</i>	<i>n</i>	<i>g</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>i</i>	<i>m</i>

- rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim.

3 – modul.

Skandardagi soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir ogʻizgina yolgʻon, rostgoʻy bola, yolgʻonchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu soʻzlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar oʻzlaricha tuzgan ertaklarini soʻzlab beradilar.

Bugungi oʻtadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Boʻlmasa oʻqituvchi ertak nomini aytadi: “Rostgoʻy bola”). Kelinglar endi ertakni eshitib koʻramiz. Unda baʼzi notanish soʻzlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qoʻyilgan boʻlishi ham mumkin)

Podshoh – yurtni boshqaruvchi kishi.

Vazir – podshohning yordamchisi.

Tadbir – oʻylab qilingan ish.

Xomush – xafa.

4 – modul.

Ertakni oʻqituvchi tomonidan oʻqish, maʼlum bir qismini oʻquvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolgʻon gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (Oʻquvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? Oʻqituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida oʻquvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, “Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir”... qolganini oʻquvchilar davom ettiradilar).

5 -modul.

Mustaqil oʻqish.

Usul: oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birga ovoz chiqarib oʻqiy boshlaydi (oʻquvchilar faqat koʻz bilan oʻqiydilar), oʻqituvchi jim boʻlib, oʻqishni ichida davom ettiradi, oʻquvchilar esa ovoz chiqarib oʻqiydilar, keyin yana oʻqituvchi ovoz chiqarib oʻqiydi, oʻquvchilar koʻz bilan oʻqiydilar va shunday oʻqish ertak oxirigacha davom etadi

Oʻqish oldidan topshiriq: xattaxtaga yozilgan soʻzlarni ertakda berilganday izchillikda, soʻzlar qoʻshib yozing:

1. Qadimda.
2. podshoh boʻlgan.
3. Xomush boʻlib yurgan.
4. Vazirning maslahati.
5. gul urugʻi.
6. farzand qilib olmoqchi.
7. vaqt oʻtibdi.
8. shahar aylanibdi.
9. gullarni koʻrib oʻtaveribdi.

10. ko‘zi tushibdi.

11. gullar qani?

12. qaynattirgan.

6 – modul .

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

- Ertak qahramonlari kimlar?

- Quyidagi so‘zlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yo‘q, gul urug‘i tarqattiribdi. (podshoh).

- Yaxshi farzand topish yo‘lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)

- Qanday yo‘l bilan rostgo‘y, aqlli bola tanlandi?

- Keyin nima bo‘ldi?

- podshoh gul urug‘ini nima qilgan ekan?

- Quyidagi hikmatli so‘zlardan qaysi biri ertak mazmunini to‘ldiradi?

1. Boshingga qilich kelsada rost gapir.

2. Yolg‘onning umri qisqa.

3. Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.

4. To‘g‘rilik baxt keltirar.

(To‘g‘ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo‘ldi.).

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o‘quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo‘lishi mumkin) kabi guruhlariga bo‘linib markazlarda ishlaydilar.

O‘qish markazi: «kitoblar olami».

1 guruh – o‘quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko‘rsatilgan qismni o‘qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo‘linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog‘ozlarga yopishtiriladi. O‘quvchilar bo‘lingan matnni tiklab, to‘liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh – tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo‘yish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir o‘quvchining daftarida qahramonlar xislatlariga tegishli so‘zlar yozilgan: farzandi yo‘q, xomush, ko‘p bolalarni ko‘rdi, gulsiz tuvak ushlab o‘tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o‘qib, kimga tegishligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo‘qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo‘q). O‘zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo'ladi:

Xomush podshoh .

Aqlli vazir.

Rostgo'y bola.

Yolg'onchi bolalar.

Gulsiz tuvak.

Prezentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o'z ishlarining yakuni haqida so'zlaydilar.

O'qituvchi: Qarang xattaxtamizda

Hosil bo'ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida- alohida aytiladi.(bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g'oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

- Bu darsdan qanday yangilik o'rgandingiz? Sizga nima yoqdi? Nima sizga yoqmadi, siz qanday bo'lishini xohlar edingiz?

4- ilova

O'qish (2 sinf)

Modulli o'qish darsi

Mavzu: «Ta'zir» (Xudoyberdi To'xtaboyev)

Maqsad:

Ta'limiy: modulli o'qish metodikasidan foydalangan holda yangi mavzu bilan tanishtirish, asar mazmunini to'liq tushunib olishlariga, ifodali o'qish malakalarini o'zlashtirilishiga erishish.

Tarbiyaviy: O'zber xalqining milliy xususiyatlaridan biri kattalarni hurmat qilish, ularga yordam berish kabi ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Ongli, to'g'ri o'qish malakalarini rivojlantirish. Ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish bilan birga mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish. Dars jixozi: Individual

modul-jadval, tayyorgarlik signallari, rasmlar, Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlaridan ko‘rgazma.

Darsning borishi

IV. Tashkiliy qism

1-Modul, 1- topshiriq

1) Psixologik gimnastika

Har bir kun, har bir soat

Yangilik olib kelsin.

Yaxshilik sizga hamroh,

Aqlingiz mayoq bolsin.

- **Bu so‘zlar bugungi darsimiz shiori bo‘ladi.**

2) O‘qiganda to‘g‘ri nafas olish va aniq talaffuz qilishni rivojlantirish.

- nafas gimnastikasi (”gulni hidlash”, ”shamni o‘chirish”, ”shar shishirish”)

- So‘zlash mashqi (she’r ustida ishlash, xattaxtada yozish)

Yaxshi bo‘lish osonmas

U bo‘y ham tanlamaydi.

Rangga bog‘liqmas biroq -

U shirinlik, holvamas

- Koz bilan o‘qish;
- Ovozsiz, ichda o‘qish;
- Shivirlab o‘qish;
- Baland ovozda, tez, aniq, ravon o‘qish.

V. Mavzu ustida ishlash

2-Modul, 1,2- topshiriqlar

1) **Muallifning hayoti va ijodi ko‘rgazmasi.**(Ko‘rgazmada X.To‘xtaboyevning bolaalar uchun yozgan asarlaridan qo‘yiladi)

Muallifning qaysi asarlarini bilasiz?

Bobom qurgan ko‘prik, Sariq devni minib, Erkacholning o‘rigi, X.To‘xtaboyev

- Siz bu muallif haqida nimalarni bilasiz?
- Muallifning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
- Biz ko'rgazmada qo'ygan kitoblardan muallif asarlarini o'rganishingiz mumkin.

2) Prognostika ishlari.

- Asarda nima haqida gap boradi?

Topshiriq: Muhokama qiling va asar janrini aniqlang.

- Asardagi qahramonlarning ketma-ketligini aniqlang.

(Hikoya o'qilgandan keyin xattaxtda qahramonlarning illyustrasiyalari ilinadi)

- O'qituvchi hikoyani o'qiydi, o'quvchilar tinglaydilar.
- Sizga hikoya yoqtimi?
- Bahromjonning harakatlarini qanday baholaysiz?
- Kim haq deb o'ylaysiz?
- Leksik ishlar o'tkaziladi.

Mazmun ustida ishlab, o'quvchilar bilimini faollashtirish. (juftlikda ishlash)

- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
- Bahromjonning qaysi ishi Sizga yoqmadi?
- Hayotda shunday ishlar bo'lib turishini kuzatganmisiz?
- Bahromjon nima uchun birdan o'zgarib qoldi?
- Bivisi Bahromjonga qanday saboq berdi?
- Quyidagi maqol nimani anglatadi: Yaxshilik nur keltirar,
- Yomonlik – zulmat
- Hikoya qahramonlariga baho bering.
- Buvi nimani o'yladi?
- Bahromjon xatosini qanday tushundi?

Tez o'qish mashqi. (musobaqa tarzida o'tadi).

Модуль 3, задание 1

- Modul tablitsasiga murojaat qilamiz. Vazifa: Hikoya mazmuni ustida ishlash uchun vazifalarni tanlang.
- 9-vazifa (ichda o'qish), 8 (shivirlab o'qish), 7 (juftlikda o'qish), 5(diktorlarga taqlid qilib o'qish).
- Mimik mashqlar.

(O'qituvchi hikoya qahramonlari rolini bajarib berishni topshiradi.)

- Yana modul tablitsasiga murojaat qilamiz va shu asosda ishimizni davom ettiramiz. (Juftlikda ishlash: hikoyani o'qish va birbiriga uning mazmunini gapirib berish, muammoli savollar berish).
- Tanlab o'qish. (gaplarning mazmuniga qarab tanlab o'qish)
- Har bir qahramonning xarakteri, ovoz tempi, hayajonli replikalarni tanlab o'qish.

Rollarga bo'lib o'qish.


Muzikali relaksatsiya

(Chiroyli engil musiqa ovozi. O'qituvchi asta, tinch ovoz bilan bolalarni o'zlarini bo'shashtirib, dam olishlarini aytadi.) Markazlarda ishlash.

O'qish markazi– rollarga bo'lib o'qish. Ro'yxatdagi shaxsiy sifatlardan hikoya qahramonlarini xarakterlovchi sifatlarni ajrating.

Dramalashtirish markazi – hikoya insserovkasini yaratish.

Tadqiqot markazi – «Кластер» tuzish.



Markazlarning prezentatsiyasi.

Рефлексия

- Quaidagi maqollardan qaysi biri hikoya mazmunini ifodalaydi?

Odob – insonga husn.

Odobli bola elda aziz

Odob bilan baxt topilar,

Sabr bilan –taxt.

Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

Одоб-кишининг зеб-зийнати.

Каттага ҳурматда бўл,

Кичикка иззатда бўл.

Қадр қилсанг, қадр топасан.

O'quvchilar maqollarni tanlab. Uni izohlaydilar.

- Dars qiziqarli bo‘ldimi? Unda keling darsga baho beramiz. Darsni yaxshi deb hisoblaganlar xattaxtdagi ko‘rgazmali qurolning cho‘ntakchalariga yashil doirachalarni soladilar, darsga qiziqmaganlar esa sariq doirachalarni tanlab, cho‘ntakchaga joylaydilar. O‘quvchilar xattaxta oldiga kelib, topshiriqlarni bajaradilar.
- O‘qituvchi:

*Mehnat qilsang, ko‘ksing tog’,
Hurmat qilsang, diling chog’.*

VI. **Uyga vazifa** (Matnni ota-onasiga o‘qib berish va muhokama qilish)

6-modd, 1- topshiriq

Hikoyaning rejasini tuzish va shu reja asosida qayta hikoya qilishga tayyorlanib kelish.
Ijodiy ish daftarida: hikoyadan olgan taassurotlari asosida rasm chizish.